



ISBN 978-9910-794-06-3



INSON SALOHIYATI

X.N.Xolmirzayev



X.N.Xolmirzayev

INSON SALOHIYATI

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIV TA‘LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
ANDIJON DAVLAT UNIVERSITETI
FALSAFA KAFEDRASI**

X.N. Xolmirzayev

INSON SALOHIYATI

o‘quv qo‘llanma

“Iste‘dod ziyo press” nashriyoti
Namangan
2024

UO'K: 821-512-133-9

KBK: 84(O`zb)7

X-53

X.N.Xolmirzayev. INSON SALOHİYATI. O'quv qo'llanma.
"Iste'dod ziyo press" nashriyoti. – Namangan, 2024. – 148 b.

Mazkur o'quv qo'llanma 61010500 "Gid hamrohligi va tarjimonlik faoliyati (tillar bo'yicha)" bakalavr yo'nalishi talabalari uchun tayyorlangan bo'lib, unda "Inson salohiyati" fani mavzulari bo'yicha keng ma'lumotlar berilgan. Shuningdek, "Ijtimoiy falsafa" va "Falsafa" fanidagi bir qator mavzularda ham foydalanish tavsiya etiladi.

Mas'ul muharrir:

F.Yuldasheva

falsafa fanlari doktori, professor

Taqrizchilar:

T.Artikov

falsafa fanlari doktori, professor

B.Ganiyev

falsafa fanlari doktori, dotsent

Mazkur o'quv qo'llanma O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2023-yil 22-dekabrda 537-sonli buyrug'iga asosan nashrga tavsiya etilgan.

ISBN 978-9910-794-06-3

© X. Xolmirzayev
© "Iste'dod ziyo press" nashriyoti, 2024

KIRISH

Jahonda ijtimoiy sub'ektlar taraqqiyotining asosiy omillardan biri jamiyat a'zolarining salohiyati hisoblanadi. Tez sur'atlar bilan yuksalib borayotgan zamonaviy jamiyat ehtiyojlari yuqori salohiyatga ega bo'lgan kreativ, innovatsiyalarga intiluvchi, pragmatik, taraqqiyot tendensiyalarini to'g'ri anglab etish salohiyatiga ega bo'lgan shaxslarni talab etadi.

Dunyoning rivojlangan davlatlari ilmiy markazlarida inson salohiyati nazariyasi keng o'rganilmoqda. Jahonda ilm-fan taraqqiyoti natijalari shuni ko'rsatmoqdaki, ilmiy-falsafiy tadqiqotlar tizimida inson salohiyati nazariyasining ijtimoiy-falsafiy asoslari, taraqqiyot qonunlarini tahlil etish tobora dolzarblik kasb etib bormoqda. Inson salohiyatini o'rganish jamiyat kelajagini, istiqbolini o'rganishdir. Jamiyat taraqqiyotining tendensiyalari, barqaror dinamikasini belgilash inson salohiyatini ijtimoiy-falsafiy nuqtai nazardan tahlil etishni talab etadi.

O'zbekistonda inson salohiyatini rivojlantirish, uni yuzaga chiqarish va to'la realizatsiya qilish uchun imkoniyatlar yaratish masalasiga katta e'tibor qaratilmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyev ta'kidlaganidek: "Bizning ustuvor vazifamiz – inson salohiyatini ro'yobga chiqarishga har tomonlama ko'maklashish, uning asosiy huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilishdan iborat. Bu jamiyatda tinchlik va barqarorlik, farovon hayotni ta'minlashning asosiy shartidir"¹.

O'zbekiston Respublikasining 2016-yil 14-sentyabrdagi 406-sonli "Yoshlarga oid davlat siyosati to'g'risida"gi Qonuni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 21-sentyabr 2018-yildagi PF-5544-sonli «2019-2021 yillarda O'zbekiston

¹ Мирзиёев Ш. Янги Ўзбекистон стратегияси. – Т.: O'zbekiston, 2021. – Б.22.

Respublikasini innovatsion rivojlantirish strategiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi Farmoni, 2019-yil 8-oktyabrdagi PF-5847-sonli "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish Konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi Farmoni, 2020-yil 26-martdagi PF-5975-sonli "Iqtisodiyotni rivojlantirish va kambag'allikni qisqartirishga oid davlat siyosatini tubdan yangilash chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni, 2020-yil 29-oktyabrdagi PF-6097-sonli "Ilm fanni 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi Farmoni, 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-sonli "2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni hamda mavzuga oid boshqa huquqiy-me'yoriy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda mazkur o'quv qo'llanma ma'lum ahamiyat kasb etadi.

I BOB. INSON SALOHIYATINI O'RGANISHNING NAZARIY-METODOLOGIK ASOSLARI

Har qanday jamiyat taraqqiyotida inson salohiyatining roli ulkan bo'lib, mazkur salohiyat ijtimoiy tarixiy evolyusiya bilan birgalikda yuksalib boradi. O'zbekistonda modernizatsiya jarayonlari amalga oshayotgan va innovatsiyalar taraqqiyotiga keng yo'l ochilgan hozirgi davrda inson salohiyatini realizatsiya qilish, yuksaltirish, jamiyatning har bir a'zosi salohiyatini yuzaga chiqarish uchun sharoitlar yaratish va uni jamiyat taraqqiyoti yo'lida to'g'ri yo'naltirish strategik muammo hisoblanadi.

Mahalliy va xorijiy ilmiy adabiyotlarda inson salohiyatiga aniq ta'rif berilmagan. Inson salohiyati tushunchasi "inson kapitali", "inson taraqqiyoti", "ma'naviy salohiyat", "intellektual salohiyat" kabi atamalar bilan bog'liqlikda o'rganiladi.

Inson salohiyati o'tgan davr va hozirgi zamonda erishilgan taraqqiyot bilan bog'liq bo'lgan ijtimoiy hodisa hisoblanadi. Bu muammoni hal etish falsafiy-nazariygina emas, amaliy ahamiyatga ham ega bo'lib, jamiyat taraqqiyoti, tendensiyalari, dinamikasini yahlit o'rganishni talab etadi. Yuzaga kelishi mumkin bo'lgan ijtimoiy chaqiriqlarga javob berishga tayyor turish ko'p jihatdan inson salohiyatiga bog'liq.

Mazkur bobda inson salohiyatiga uning jamiyatda ma'lum maqsadga qaratilgan biror ijtimoiy faoliyatni amalga oshirish uchun imkoniyati, manbasi, resursining yig'indisi sifatida ta'rif berilgan. Turli ijtimoiy – falsafiy konsepsiyalar va yondashuvlar asosida inson salohiyatining dialektik, deterministik, gnoseologik, sinergetik hamda praksiologik jihatlari tahlil etilgan. Bobda inson salohiyati uning ajralmas atributi, mohiyatini belgilovchi ajralmas xususiyatlaridan biri sifatida o'rganilgan.

1-§. “Inson salohiyati” tushunchasi

Tayanch tushunchalar: salohiyat, inson salohiyati, moddiy salohiyat, inson salohiyatini yuzaga chiqarish.

Hozirgi davr jamiyat taraqqiyoti sur’atlarining misli ko’rilmagan darajada tezlashib borayotganligi bilan tavsiflanadi. Insoniyat yuz yillar davomida bosib o’tgan yo’lni bugungi axborot asrida bir necha kunda bosib o’tishi mumkin. Globallashuv, axborot taraqqiyoti va tarqalishi, internetdan foydalanish, nanotexnologiyalar va sun’iy intellektning rivojlanishi davrida inson va uning salohiyati jamiyat taraqqiyotining muhim omillaridan biriga aylanmoqda. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyev ta’kidlaganidek: “Bizning ustuvor vazifamiz – inson salohiyatini ro’yobga chiqarishga har tomonlama ko’maklashish, uning asosiy huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilishdan iborat. Bu jamiyatda tinchlik va barqarorlik, farovon hayotni ta’minlashning asosiy shartidir”¹.

Hozirgi davrda tez sur’atlar bilan taraqqiy etayotgan ijtimoiy hodisalar zanjirida inson salohiyati ulkan rol o’ynaydi. So’nggi yillarda inson salohiyati muammosi asosan iqtisodchilar tomonidan o’rganilgan. Lekin “salohiyat”, “inson salohiyati” tushunchalari, salohiyatning tarkibi, strukturasi falsafiy tahlil etilishi maqsadga muvofiq. Tushunchalarning ko’pchilik tomonidan e’tirof etilgan bir xil ta’rifi yo’q. Aslida biror narsa yoki hodisaning falsafiy jihatdan yagona ta’rifi bo’lishi ilmiy nuqtai nazardan to’g’ri talab bo’lmaydi. Bu erda inson salohiyati muammosiga yondashuvlarning turlicha ekanligiga e’tibor qaratish zarur.

Ko’rinib turibdiki, inson salohiyati o’tmish va hozirgi davr bilangina emas, kelajak taraqqiyot bilan bog’liq muammo ekan.

¹ Мирзиёев Ш. Янги Ўзбекистон стратегияси. – Т.: O‘zbekiston, 2021. – Б.22.

Uning hal etilishi jamiyat taraqqiyoti tendensiyalari va kelajak orientatsiyasini anglab etish, uning talablari va ehtiyojlariga moslashib borish, zarur bo'lganda, mazkur ijtimoiy-iqtisodiy ehtiyojlarni, jamiyat tomonidan shaxsga qo'yilayotgan talablarni oldindan ko'ra bilish va ularni tushunish kabi masalalarga bog'liq. "Inson salohiyati muammosi – bu kelajak muammosi, inson salohiyatining imkoniyatlarini baholash va uni boshqarish muammosi"¹. Shundan kelib chiqqan holda, inson salohiyati masalasi kelajakda jamiyatning taraqqiyot darajasi va sur'atlarini belgilab beruvchi, modernizatsiya jarayonlarini harakatga keltiruvchi (lokomotiv) iqtisodiy-ijtimoiy masalalarni hal etish borasida zarur va muhim bo'lgan mutaxassislarni tayyorlash vazifasini ham hal etilishiga aloqador, deb aytish mumkin.

"Salohiyat" so'zi arabchadan olingan bo'lib, "qobiliyat" degan ma'noni anglatadi. "Salohiyatlilik, kuch va undan olingan – potensial, nisbatdir. Chunki aniq mavjud bo'lgan o'zining tashuvchisiga tegishli (fiziologik salohiyat, biologik salohiyat, ijtimoiy salohiyat, psixik salohiyat va boshqalar). Umumiy salohiyatlilik mutlaq, chunki u barcha mavjud salohiyatning xususiyati hisoblanadi. Uning asosida olamning salohiyatliligi realizatsiya bo'ladi"².

"Inson salohiyati" tushunchasi nafaqat iqtisodiy, balki ijtimoiy-falsafiy fanlar doirasida ham keng qo'llanilmoqda. Bu tabiiy, taraqqiy etayotgan har qanday jamiyat asosida inson omili, insonning ma'lum maqsadga yo'naltirgan ongli faoliyati, jamiyat a'zolarining intellektual tafakkuri, progressiv dunyoqarash, ya'ni salohiyati turadi. Ma'lumki, jamiyat

¹ Солнцева Г.Б., Смолян Г.Л. Человеческий потенциал: размышления содержания понятия. В кн.: Человеческий потенциал: опыт комплексного подхода / РАН. Ин-т человека; Под ред. Фролова И.Т. - М.: Эдиториал УРСС, 1999. С. 59.

² Калинина Т.В. Функционально-типологический анализ человеческого потенциала. Дисс. на соискание степени кандидата философских наук. Специальность: 09.00.11-Социальная философия. Нижний Новгород, 2007.-С. 16.

evolyusiyasida ob'ektiv va sub'ektiv omilning dinamikasi dialektik tarzda bir-biriga mos kelganda, jamiyat o'z taraqqiyotida ulkan yutuqlarni qo'lga kiritishi mumkin. Bu jarayonda ijtimoiy ob'ektiv ehtiyojlar va chaqiriqlarga inson, uning ongi va salohiyati tomonidan o'z vaqtida anglanishi davr ruhini butunlay o'zgartirib yuborishi mumkin. Insonga aloqador bu muammo tarixiy taraqqiyotning turli bosqichlarida davr ruhidan kelib chiqib, o'ziga xos namoyon bo'lib kelgan. Inson salohiyatini realizatsiya qilish, yuksaltirish hamda to'g'ri yo'naltirish uning hayoti mazmunini tashkil etadi va ehtiyojlarini ifodalaydi.

Inson salohiyatini o'rganish borasida O'zbekiston olimlari bir qator ilmiy-nazariy, falsafiy tadqiqotlarni amalga oshirmoqdalar. O'zbek olimlari tomonidan yaratilgan ilmiy asarlarda va amalga oshirilayotgan tadqiqotlarda inson salohiyati muammosiga iqtisodiy yondashilgan. Inson salohiyatiga turlicha ta'riflar berilmoqda. Jumladan, iqtisodchi olim Sh.Akramova inson salohiyatini "...hozircha amalga oshmagan mehnat qobiliyatlari sifatida ifodalashimiz mumkin"¹, deb hisoblaydi. Uning fikricha, "inson salohiyati" tushunchasi "inson kapitali" tushunchasidan kengroq. Chunki ijtimoiy sharoitdan kelib chiqib, inson salohiyatining ma'lum bir qismigina inson kapitaliga aylanadi².

Aslida inson salohiyati haqida so'z yuritilganda, inson va uning atributi, ya'ni salohiyat insonning inson, ongli mavjudot sifatidagi ajralmas xususiyatlaridan biri bo'lib, insonning mohiyatini, ekzistensiyasini tashkil etilishi nuqtai nazardan yondashish zarur. Inson salohiyati uni boshqa mavjudotdan

¹ Акрамова Ш.Г. Инсон капитали: моҳияти ва уни ўрганишга ёндашувлар // Экономика и финансы (Узбекистан). – 2011. – №. 10. – С. 53-57. <https://cyberleninka.ru/article/n/inson-kapitali-mo-iyati-va-uni-rganishga-yondashuvlar/pdf>

² Ўша ерда.

ajratib turuvchi xususiyati bo'lib, uning namoyon bo'lishi bevosita insonning ongli faoliyati, tabiiy, moddiy va ijtimoiy ehtiyojlari, o'zini realizatsiya qilishga qaratilgan xatti-harakatlarini belgilab beradi. Bunday xatti-harakatlar orqali inson o'zini u yoki bu sifatda namoyon eta oladi.

Taniqli faylasuf olim Qiyomiddin Nazarov inson salohiyatiga quyidagicha ta'rif beradi: "Salohiyat – u yoki bu vazifani ijobiy hal etish uchun sub'ektning foydalanadigan ichki asoslarga, kuch-quvvatga, imkoniyatga egaligini anglatuvchi falsafiy kategoriya, iste'dodning bir turi bo'lib, insonning muayyan tarzda o'z ilhomini qabul qilishga tayyorlangandan so'ng yuz beradigan sifat. Bu tushuncha alohida inson, ijtimoiy guruh, jamiyat, davlat va bashariyatga nisbatan ishlatilishi mumkin. Insonga nisbatan qo'llanilganda salohiyat uning muayyan faoliyatni bajarish uchun aqliy, ma'naviy va psixofiziologik xususiyatlarini qamrab olishi tushuniladi. Yuksak aql, iste'dod egalari salohiyatli kishilar deyiladi"¹. Ko'rinib turibdiki, olim "inson salohiyati"ga falsafiy kategoriya sifatida qaraydi. Demak, inson salohiyati tarkibiy qismini tashkil etuvchi komponentlarni ham falsafiy muammo sifatida qarash mumkin ekan.

Inson salohiyatida mohiyati jihatidan bir xil, ammo shaklan turlicha bo'lgan biologik, ya'ni genlari orqali, avlodlaridan o'tib kelgan o'ziga xosliklari, tug'ma xususiyatlari hamda mazkur inson yashayotgan va shaxs sifatida shakllanayotgan jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy-ma'naviy, siyosiy-huquqiy jihatlarini aks ettiradi. Natijada uning xususiyatini belgilab beruvchi mentaliteti shakllanadi. Bunday mentalitet u mansub bo'lgan millat, jamiyat, mamlakatda mavjud ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy munosabatlarni ifoda etadi.

¹ Назаров Қ. Жаҳон фалсафаси қомуси. I. А-Н Ўзбекистон файласуфлари миллий жамияти, Маънавият нашриёти, 2019. – Б.82.

Mazkur xususiyatlarning namoyon bo'lishi, yuzaga chiqishi jamiyatda mavjud erkinlik va demokratiya darajasiga bog'liq. Individuallik, o'ziga xoslik shaxsda qanchalik kuchli bo'lsa, uning salohiyati ham kuchli bo'ladi. Bunday o'ziga xoslikning namoyon bo'lishi, shaxsning boshqalarga o'xshamagan tarzda kuchli salohiyatga ega bo'lishi, boshqa insonlarni ham harakatga chorlab, faollikka chaqirishiga ta'sir etadi. Inson salohiyati unga mos ravishda erkinlik, boshqa insonlar bilan o'zaro aloqadorlikda, yangi ehtiyojlarning paydo bo'lishi asosida yuzaga chiqadi. Inson salohiyatining taraqqiyoti va realizatsiya qilinishi davlatni yoki mamlakatni qanday kuchlar pozitiv yoki reaksiyon kuchlar boshqaruviga, ularning manfaatlari va strategik maqsadlariga ham bog'liq bo'ladi.

Insonning mavjud salohiyatini saqlab qolish, rivojlantirish, ehtiyojlarini qondirish uchun uni realizatsiya qila olish muammosi yuzaga keladi. Bu muammoning o'z vaqtida hal etilishi esa inson faoliyatining doimiy amalga oshib borishi, faoliyatning kreativlik asosga qurilganligi, hamda o'ziga o'xshash insonlar bilan o'zaro bog'liqlikda amalga oshirilishini talab etadi. Inson o'zini va salohiyatini muntazam ravishda saqlab qolishi va uni boshqa insonlar bilan o'zaro munosabat orqali ko'paytirib va rivojlantirib borishi, o'zaro ijtimoiy munosabatlarni kengaytirib borishi ob'ektiv zaruriyat hisoblanadi. Demak, inson individualligi, uning mohiyati va salohiyatini yuzaga chiqarishdan mahrum bo'lish uning salohiyatini noto'g'ri tomonga ketib, agressiv xususiyat kasb etib borishiga ham sabab bo'ladi. Oqibatda jamiyatimizda amalga oshib borayotgan islohotlar va innovatsiyalarga bog'liq ravishda inson salohiyatini, yoshlar faoliyatini, zarur vazifalarni bajarish tomoniga yo'naltirish hamda realizatsiya qilish zarurati yuzaga keldi.

Inson salohiyatini tadqiq etish borasida bir qator tadqiqotchilar tomonidan iqtisodiy, ijtimoiy-madaniy, tarixiy,

etnik, geografik, mental kabi yondashuvlarga asoslangan o'zbekistonlik olimlar va xorij faylasuf olimlari tomonidan taklif etilgan nazariyalarni aniqladik¹. Bunday yondashuvlarning xususiyatlarini o'rganish bilan birga hozirgi kunda masalaga falsafiy yondashuv ham muhim ahamiyat kasb etib borayotgani sababli bir qator faylasuf olimlarning inson salohiyatini ijtimoiy-falsafiy nuqtai nazardan tahlil qilganligi va bu borada turli yondashuvlar va nazariyalar taklif etilganligini ko'rishimiz mumkin².

Bu borada xorij olimlarining inson salohiyati bo'yicha o'ziga xos nazariyalari o'rganildi. Inson salohiyatini unga aloqador muammolar nuqtai nazaridan tahlil etgan o'zbek olimlari bir

¹ Қодиров А. Анъанавий жамият ва уни модернизациялаштириш стратегияси. Т., 2006, - Б.5; Гимуш Р.И., Матмуродов Р.М. Инновацион менеджмент. - Тошкент, 2008; Акрамова Ш. Г. Инсон капитали: моҳияти ва уни ўрганишга ёндашувлар // Экономика и финансы (Узбекистан). - 2011. - №. 10. - С. 53-57. <https://cyberleninka.ru/article/n/inson-kapitali-mo-iyati-va-uni-rganishga-yondashuvlar>; Юнусов К. Мамлакатимизнинг модернизациялашуви жараёнида жамиятни креатив бошқаришни тадқиқ этиш муаммолари. // АДУ Илмий хабарнома.-Андижон. 2016. №3. Б.37-40; Ахунوف М.А. Инсон омили - ижтимоий иқтисодий тараққиётнинг етакчи кучи ва бош мақсади. // Илмий хабарнома. Андижон. АндДУ, 2016. № 4.-Б.5; Кулагин В. М., Лебедева М. М., Мельвиль А. Ю. Глобализация и развитие человека //Глобализация: человеческое измерение. - 2002. - С. 112-112. Акъюлов Р. И. Человеческие ресурсы как комплексная экономическая категория //Журнал экономической теории. - 2009. - №. 4. - С. 1.

² Шайхова Х. Интеллектуал салоҳият – тараққиёт мезони. - Т.: 2011 Ўзбекистон НМИУ. 112 б; Юлдашева Ф. Модернизациянинг фалсафий жиҳатлари. // АДУ Илмий хабарнома. - Андижон. 2014. № 4 Б.37; Бегматов А. Инновацион онг: моҳияти, функциялари ва шаклланиш шартлари.- Т., 2016.- 74 Б.41; Юнусов К. Мамлакатимизнинг модернизациялашуви жараёнида жамиятни креатив бошқаришни тадқиқ этиш муаммолари. // АДУ Илмий хабарнома.-Андижон. 2016. №3. Б.37-40; Эгамбердиев А. Ўзбекистонда модернизация шароитида ёшларда инновацион онг шаклланишининг ижтимоий-фалсафий муаммолари. Фалсафа фанлар доктори (PhD) диссертацияси – Андижон, 2019. Б. 162; Келле, В.Ж. Человеческий потенциал и человеческая деятельность / В.Ж. Келле // Человеческий потенциал: опыт комплексного подхода / под ред. И. Т. Фролова. - М.: Эдиториал УРСС, 1999. - С. 62 – 72; Колин К.К. Человеческий потенциал и инновационная экономика.// Вестник Российской Академии естественных наук. 2003, № 4. С.3; Калинина Т.В. Функционально-типологический анализ человеческого потенциала. Дисс. на соискание степени кандидата философских наук. Специальность: 09.00.11-Социальная философия. Нижний Новгород, 2007. - С. 188; Иванов О. И. Человеческий потенциал (формирование, развитие, использование) монография Санкт-Петербург: Скифия - принт 2013 С. 336.

qator ilmiy falsafiy asarlar yaratdilar va ilmiy tadqiqotlar olib bordilar. Albatta, xorij olimlarining ilmiy asarlari va tadqiqotlari ham o'rganildi. Ko'rib chiqilgan yondashuvlar ichida rossiyalik tadqiqotchi T.V.Kalininaning yondashuvi o'ziga xos. Uning fikricha, jamiyat taraqqiyotining ichki omillarini rivojlantirish uning ikki xil salohiyatiga bog'liq: "Jamiyat (mintaqa) taraqqiyotining ichki omillari haqida gapirilganda, asosan ikki xil salohiyat ko'rsatiladi: jamiyatning (mintaqa) moddiy salohiyati va inson salohiyati nazarda tutiladi. Bu erda dialektik aloqadorlikni ko'rish mumkin: moddiy salohiyat (texnik, infrastruktura) insonlar tomonidan yaratiladi va u o'z navbatida inson salohiyatining rivojlanishiga ta'sir ko'rsatadi. Shunday qilib, jamiyat taraqqiyotining ichki omillari haqida so'z yuritilganda, biz ijtimoiy hayotning sub'ekti hisoblangan insonni tahlil etish muammosiga duch kelamiz"¹.

Ma'lumki, jamiyat taraqqiyotining omillari haqida gapirilganda albatta, eng avval inson - sub'ektiv omil to'g'risida so'z boradi. Jamiyatning mavjudligi va rivojlanishi inson omilisiz amalga oshmaydi. Inson jamiyatni va aksincha, jamiyat insonni taqozo qiladi. Yuqorida aytilganlardan ko'rinib turibdiki, inson salohiyatini hali inson tomonidan realizatsiya qilinmagan ijtimoiy-iqtisodiy, ilmiy-intellektual, madaniy-ma'naviy va boshqa salohiyat tashkil etar ekan.

XX asr boshlarida inson salohiyati muammosi yanada dolzarb xususiyat kasb etdi. Muammoni o'rganishning ilmiy-nazariy asoslari dastlab U.Djeyms, Ya.Mareno, A.Maslou kabi G'arb olimlarining asarlarida aks etgan. "Salohiyat" tushunchasi aslida ma'lum bir vazifani amalga oshirishga va maqsadga erishishga qaratilgan manbalar, imkoniyatlar, zaxiralarni ifoda

¹ Калинина Т.В.Функционально-типологический анализ человеческого потенциала. Дисс.на соискание степени кандидата философских наук.Специальность: 09.00.11-Социальная философия. Нижний Новгород, 2007.-С. 7.

etadi. Bu tushuncha turli ma'nolarda qo'llaniladi. Biz o'rganayotgan muammo dastlab iqtisodiy mohiyatga ega bo'lgan bo'lib, uni asosan iqtisodchi olimlar tahlil etgan bo'lsa, endilikda inson salohiyati ijtimoiy-falsafiy fanlar doirasida ham keng o'rganila boshlandi. Faylasuflar muammoning ko'proq ijtimoiy, aksiologik va praktsiologik jihatlariga e'tibor qarata boshladilar.

Ma'lumki, inson iqtisodiy fanlar doirasida ishchi kuchi, moddiy ne'matlar yaratuvchi va ularni ishlab chiqaruvchi tarix va jamiyatni harakatga keltiruvchi muhim sub'ektiv omil sifatida e'tirof etiladi. Falsafiy nuqtai nazardan inson, jamiyat taraqqiyotining ijodkori, ijtimoiy sub'ektiv omil, ya'ni iqtisodiy bilan bir qatorda ilmiy-intellektual, madaniy-ma'naviy, madaniy-ma'naviy, siyosiy-huquqiy, diniy-axloqiy, estetik dunyoqarashga ega bo'lgan, ongli ijodkor shaxs sifatida qaraladigan bo'ldi. Chunki so'nggi vaqtlarda yuz berayotgan o'zgarishlarning markazida inson va uning salohiyati turibdi. Insonning mavjud salohiyati asosida ijtimoiy hayotda yuz berayotgan barcha o'zgarishlar amalga oshmoqda.

Natijada salohiyat mohiyatiga ko'ra, o'zini saqlashgina emas, muntazam yuksaltiruvchi, insonni o'rab turgan borliq bilan o'zaro dialektik aloqada bo'lib, unga ijobiy ta'sir etib, o'zgartirib turuvchi mohiyatga ega bo'lgan ijtimoiy hodisa nuqtai nazaridan o'rganilib, bu borada bir qator ilmiy-falsafiy yondashuvlar shakllandi¹.

¹ Иванов О. И. Человеческий потенциал (формирование, развитие, использование) монография Санкт-Петербург: Скифия – принт. 2013 С. 336; Китайцева Е.А. Сущность понятия “человеческий потенциал”. <http://thsp.ru/issues/issue0609/060907.htm>; Солнцева Г.Б., Смолян Г.Л. Человеческий потенциал: размышления содержания понятия. В кн.: Человеческий потенциал: опыт комплексного подхода // РАН. Ин-т человека; Под ред. Фролова И.Т. - М.: Эдиториал УРСС, 1999. С. 59; Чеснокова В.Ф., Уильям Л. Питирим Сорокин: социальная стратификация и социальная мобильность. Человек. Сообщество. Управление. 2007. № 1. – С. 115;121 <https://cyberleninka.ru/article/n/uilyam-l-uorner-pitirim-sorokin-sotsialnaya-stratifikatsiya-i-sotsialnaya-mobilnost/pdf>

AQSh psixologi, gumanistik psixologiyaning asoschisi Abraxam Maslou inson salohiyatini tahlili borasida psixologik yondashuvga asoslanadi. U “his-hayajonning yuqori bosqichi” konsepsiyasini yaratdi. Uning fikriga ko‘ra inson salohiyati quyidagi ehtiyojlar asosida shakllanadi:

- fiziologik ehtiyojlar (ochlik, chanqoqlik va boshqalar);
- xavfsizlikka ehtiyoj (insonning o‘zini xavfsiz his etishi, qo‘rquvdan xalos bo‘lishi);
- mansublik va muhabbatga ehtiyoj (insonning jamiyatga mansubligi, uning boshqalar tomonidan qabul qilinishi, sevilishi);
- hurmatga ehtiyoj (kompetensiya, muvaffaqiyatga erishish, jamiyat tomonidan tan olinish, e’tirof etilish);
- bilishga ehtiyoj (bilish, bajarish, tushunish, tadqiq etish);
- estetik ehtiyojlar;
- o‘zini realizatsiya qilish¹.

Maslou konsepsiyasida insonning yuqorida sanab o‘tilgan ehtiyojlari uning salohiyatini yuzaga keltirishi, shakllantirishi va bu jarayonning yuqori bosqichi sifatida o‘zini realizatsiya qila olish darajasiga olib kelishini bayon etiladi. Inson ehtiyojlarining bosqichma-bosqich aks etuvchi jarayoni inson salohiyatini yuzaga chiqarish uchun qulay imkoniyatlarni yaratadi. Ular asosida inson salohiyati to‘la realizatsiya qiladi.

AQSh faylasufi va psixologi Uilyam Djeymms “shaxsning tarixiy vaziyatni his etishi (qabul qilishi)” to‘g‘risida yozadi. Uning fikricha, tarixiy jarayon taraqqiyoti va tarixda yuz beradigan turli hodisalar shaxsning namuna bo‘lishi, o‘rnak ko‘rsata olishi hamda faolligi asosida amalga oshadi. Bu jarayonda inson salohiyati shakllanadi va tarixiy jarayonning ma’lum vaziyatlarida yuzaga chiqadi.

¹ <https://poisk-ru.ru/s28458t1.html>? Мурожаат этилган сана: 16.03.2022

Inson mohiyati to'g'risida gapirilganda, o'z-o'zidan uning inson sifatida ma'lum salohiyatga ega ekanligi nazarda tutiladi. Har qanday insonning o'ziga xos salohiyati bo'lib, salohiyat uning insonlik mohiyatini bildiradi. Inson mohiyati esa o'z navbatida uning biror faoliyatni amalga oshirishga imkon beradigan qobiliyatini anglatadi. Albatta, inson faqat jamiyatda, ijtimoiy muhitda shakllanganidek, uning salohiyatining shakllanish jarayoni ham jamiyatda amalga oshadi va ijtimoiy muhitda realizatsiya bo'ladi¹.

T.V.Kalinina inson salohiyatining shakllanishi va realizatsiya bo'lishi jarayoni o'z navbatida ijtimoiy faoliyat, insonning ijtimoiy mohiyati, uning ehtiyojlari, qobiliyati, ijtimoiy imkoniyatlari kabi masalalarga aloqador deb ta'kidlaydi. "Inson salohiyatini shakllantirish mexanizmi va inson salohiyatini realizatsiya qilish masalasini o'rganish faoliyat nazariyasi, insonning ijtimoiylashib borishi, ehtiyojlar va qobiliyat nazariyalariga murojaat qilishni talab etadi"².

"Salohiyat" tushunchasini turli konsepsiyalar, ta'riflar va yondashuvlar asosida o'rganish shuni ko'rsatadiki, bu muammoni o'rganishda olimlar inson o'z salohiyatini ko'proq ma'lum ishni bajarishga qaratilgan ijtimoiy-antropologik hodisa, uni yuzaga chiqarish esa insonning o'z imkoniyatlaridan u yoki bu tarzda foydalanish, imkoniyatlarini ishga tushirish, to'g'ri yo'naltirish kabi masalalarga bog'liqligini nazarda tutadilar.

Mazkur imkoniyatlarga kuch, omil, zaxira, manba kabilar kiritiladi³. Salohiyat muammosiga va "salohiyat" tushunchasiga

¹ Калашникова Н.А. Роль критического мышления в формировании инновационной социальной среды <https://cyberleninka.ru/article/n/rol-kriticheskogo-myshleniya-v-formirovanii-innovatsionnoy-sotsialnoy-sredy/pdf> ISSN 1998-9946. Вестн. Волгогр. гос. ун-та. Сер. 7, Филос. 2015. № 4 (30) 127-133 Мурожаат этилган сана:06.04.2022.

² Калинина Т.В. Функционально-типологический анализ человеческого потенциала. Дисс.на сосискание ученой степени кандидата философских наук. Нижний Новгород, 2007.-С.11.

³ Википедия – Эркин энциклопедия веб саҳифаси <https://ru.wikipedia.org/wiki>. Мурожаат этилган сана 16.08.2021.

turli yondashuvlar va ta'riflarning mavjudligi bu muammoning serqirra hamda murakkabligini, turli shakllar va elementlarni o'z ichiga birlashtirganligini anglatadi. Mazkur holat ayrim tadqiqotchilar tomonidan ham e'tirof etiladi.

S.I.Ojegov va N.Yu.Shvedova salohiyatni "... ma'lum maqsadga erishish uchun sarf qilish va foydalanish mumkin bo'lgan mavjud kuchlar, zaxiralar, manbalar"¹ sifatida tasavvur etadilar. K.M.Misko salohiyatni o'rganilayotgan ob'ektning ichki, yashirin imkoniyatlaridan samarali foydalanishning anglash chegarasi sifatida tushunib, mazkur imkoniyatlarni miqdoriy baholash va pirovardida amaliy faoliyatning ideal sharoitida realizatsiya qilish mumkin, deb hisoblaydi. Umuman olib qaraganda, salohiyatning keng tarqalgan ta'rifi quyidagicha: "... ma'lum bir vazifani bajarishda yoki maqsadga erishishda harakatga keluvchi imkoniyatlar, kuchlar va zaxiralar manbai, alohida shaxsning, jamiyatning, davlatning aniq bir sohadagi imkoniyati"².

T.G.Xramsova salohiyatni o'ziga xos ta'riflaydi: "salohiyat – bu resurslar miqdorigina emas, balki tizimning aniq yo'nalishda rivojlanish imkoniyatidir"³. Shunday qilib, V.P.Babinsev va M.P.Kurkinaning fikricha, o'rganilayotgan muammoga bag'ishlangan ilmiy adabiyotlarda salohiyat tushunchasi ko'p ma'noli bo'lib, u o'ta bahsliligi va uning ma'nosi o'rganilayotgan ilmiy sohaga aloqadorligiga bog'liq. Bu holat salohiyatni

¹ Бабинцев В.П., Куркина М.П. Человеческий потенциал как научная категория. Научные ведомости. Серия Философия. Социология. Право. 2012. №: 8 (127). Выпуск 20. С. 223-229. <https://cyberleninka.ru/article/n/chelovecheskiy-potentsial-kak-nauchnaya-kategoriya/viewer> Мурожаат этилган сана 16.08.2021.

² Илмий электрон кутубхона, Россия табиий фанлар академияси нашриёти томонидан чоп этилган монографиялар веб сайти. <https://monographies.ru/en/book/section?id=11610> Мурожаат этилган сана 16.08.2021.

³ Храмова Т.Г. Методология исследования социально-экономического потенциала потребительской кооперации: Дис. ...д-ра экон. Наук: 08.00.05: Новосибирск, 2002 – С.74.

o'rganish jarayonida oldindan uning noaniqligi va notizimligi hamda bu borada nazariy tahlilning etishmasligini belgilab beradi¹.

Inson salohiyati muammosi bilan shug'ullanadigan ko'plab tadqiqotchilarning fikricha, salohiyat insonda tug'ma mavjud bo'ladi va u inson taraqqiyoti bilan birgalikda ortib boradi. Lekin insonlar o'zining mavjud salohiyatini anglab etmagan holda, uning ma'lum qismidangina foydalanadilar. Ko'pchilik o'zida mavjud salohiyatni bilmasligi va anglab etmasligi ham mumkin.

Yana bir rossiyalik olim O.I.Ivanovning fikricha, inson salohiyatini o'rganish borasida praksiologik yondashuvga asoslanish maqsadga muvofiq bo'ladi. Bunday yondashuv asosida uchta asosiy elementlar, ya'ni ehtiyojlar va qobiliyatlar tizimi, individlar va guruhlarining ijtimoiy zarur faoliyatlarni amalga oshirishga hamda ijtimoiy rollar va vazifalarni bajarishga tayyorligi nazarda tutiladi. Inson salohiyatining yadrosi – qobiliyat, uning asosida esa ehtiyojlar turadi. Tayyorgarlik – ehtiyojlar va qobiliyatni harakatga keltiruvchi mexanizm hisoblanadi².

Inson salohiyati muntazam taraqqiy etib turish dinamikasiga ega. Uning taraqqiyoti insonning barcha sohalardagi mavjud ehtiyojlarining ortib va o'zgarib turishiga aloqador. Bu jarayon asosida inson salohiyatini muntazam ravishda harakatda bo'lib, uning rivojini ta'minlaydigan mexanizm shakllanadi. Shu bilan birga insonlar va guruhlar jamiyat oldida yuzaga kelgan hal etilishi zarur bo'lgan vazifalarni o'z vaqtida amalga oshirishi mumkinligi va bunga tayyorgarlik

¹ В.П. Бабинцев, М.П. Куркина человеческий потенциал как научная категория научные ведомости. Серия Философия. Социология. Право. 2012. №: 8 (127). Выпуск 20

² Иванов О. И. Человеческий потенциал (формирование, развитие, использование) монография Санкт-Петербург: Скифия – принт. 2013 С. 336.

katta ahamiyat kasb etadi. Chunki mavjud mexanizm o'z vaqtida ishga tushmasa, turli insonlar, buyuk shaxslar, millatlarning ongida yuzaga kelgan muhim va dolzarb g'oyalar g'oya sifatida qolib ketadi. Qayd etilgan jarayonda sub'ektning samarali ma'lum makonda yo'naltirilgan faoliyati bilan birga faolligi ham talab etiladi. Lekin shuni ham ta'kidlash zarurki, ayrim tadqiqotchilar "inson salohiyati" va "inson kapitali" tushunchalarini farqi yo'q, deb hisoblaydilar.

Inson salohiyatini aslida faqat unga tegishli bo'lgan xususiyatlar tashkil etadi. Yashash uchun zarur bo'lgan moddiy boyliklar va boshqa resurslar inson salohiyatini yuzaga chiqarish va uni rivojlantirish uchun sharoit va imkoniyat yaratuvchi komponentlar hisoblanadi. "Inson salohiyati insonga tegishli bo'lgan xususiyatlarni, ulardan ajralmas ichki mohiyatini belgilovchi jihatlarni o'z ichiga oladi. Suv ham, havo ham, yashash muhiti ham, moddiy va ma'naviy boyliklar ham, moliyaviy resurslar ham inson salohiyatiga kirmaydi, ularning barchasi salohiyatni shakllantiruvchi, rivojlantiruvchi, realizatsiya qildiruvchi va foydalanuvchi sharoitlar hisoblanadi. Bir so'z bilan aytganda, inson salohiyati – insonning ichki tomoni, insondan va turli ijtimoiy birikmalardan tashqaridagilar emas"¹.

Rossiyalik olim O.I.Ivanov adabiyotlarda inson salohiyatiga madaniyat, ta'lim tizimi, turli ijtimoiy tashkilotlar, inson faoliyatining turlicha moddiy va ma'naviy mahsulotlarini ham tegishli, deb hisoblashi noto'g'ri ekanligini aytib, jamiyatning turli salohiyati o'rtasida aniq chegara qo'yilishi zarurligini va jamiyatning turli salohiyatini ajratib ko'rsatish zarurligini ta'kidlaydi. Inson salohiyati jamiyatda mavjud ko'plab

¹ Иванов О. И. Человеческий потенциал (формирование, развитие, использование) монография Санкт-Петербург: Скифия – принт. 2013 С. 336.

salohiyatdan biri bo'lib, uning iqtisodiy, moliyaviy, harbiy, mudofaa va boshqa shakllarini aytish mumkin. Tadqiqotchining fikricha, inson va jamiyat salohiyatini to'g'ri anglash va tushuntirish uchun qayd etilgan tushunchalar kamlik qiladi¹.

Yuqorida keltirilgan fikrlardan kelib chiqadiki, inson salohiyati haqida gapirilganda, bu muammoni to'g'ri yoritish uchun inson salohiyatining mohiyatini ifoda etuvchi jihatlari va xususiyatlarini ko'proq o'rganib, ularni ifoda etuvchi tushunchalarni to'g'ri va aniq shakllantirib, muammoning kategorial asosini yaratish zarur. Inson salohiyatini o'rganish davomida yuqorida qayd etilgan praksilogik yondashuvga asoslanish maqsadga muvofiq bo'ladi.

Nazorat uchun savollar:

1. "Salohiyat", "inson salohiyati" tushunchalarining mazmun-mohiyati qanday?
2. Inson salohiyatini iqtisodiy va falsafiy ta'riflarini keltiring.
3. Inson o'zini va salohiyatini muntazam ravishda saqlab qolishi uchun nimalarni amalga oshirishi zarur?
4. AQSh psixologi, gumanistik psixologiyaning asoschisi Abraxam Maslou inson salohiyatini tahlili borasida qanday yondashgan? (Maslou konsepsiyasi elementlari qanday?)

¹ Иванов О. И. Человеческий потенциал (формирование, развитие, использование) монография Санкт-Петербург: Скифия – принт. 2013 С. 336.

2-§. Inson salohiyati ijtimoiy muammo sifatida

Tayanch tushunchalar: Inson taraqqiyoti, inson salohiyati taraqqiyoti, inson salohiyatining rivojlanishi, inson salohiyatining shakllanishi, ijtimoiy mobillik.

Insonga aloqador har qanday muammo jamiyatga ham aloqadorligi hamda antropologik mohiyat kasb etib borishi jamiyat va inson munosabatlari jarayonida ko'rinadi. Insonning jamiyatda yashab, ijtimoiy aloqalarda faol ishtirok etib borishi uning salohiyatini ham o'sib borishiga olib keladi. Ijtimoiy-tarixiy rivojlanishning sub'ekti va harakatlantiruvchi kuchi inson ekanligi ma'lum. Insonning jamiyatda amalga oshirayotgan faoliyati asosida faol pozitsiyani egallab borishi ob'ektiv jarayon. Shu bilan birga jamiyatning barcha sohalarida amalga oshayotgan o'zgarishlar, rivojlanish, modernizatsiya, islohotlar, innovatsiyalarning kirib kelishi kabi dialektik jarayonlar inson salohiyatining ortib borishi, faoliyatining yanada kengayib borishiga ulkan imkoniyatlar yaratadi. Buning natijasida insonning yangi faoliyat turlari, jamiyatning yangi sohaları, zamonaviy kasb turlari yuzaga keladi. Mazkur o'zaro aloqador ijtimoiy-antropologik jarayonlarning barchasi jamiyatda amalga oshadi va albatta, ijtimoiy mohiyatga ega.

Uning salohiyat darajasi jamiyat taraqqiyotini belgilab beruvchi asosiy omillaridan biri hisoblanadi. Ikkinchi tomondan, jamiyatning iqtisodiy, siyosiy, huquqiy, madaniy-ma'rifiy, ilmfan, ta'lim, san'at va boshqa sohalarining taraqqiyoti va buning natijasida yuzaga kelayotgan imkoniyatlar inson salohiyatining ham yuksalish darajasiga ta'sir ko'rsatadi. Inson salohiyatini jamiyat taraqqiyoti bilan bog'liqlikda o'rganishning dolzarb masalaga aylanishi bir qator jihatlar bilan bog'liq:

- jamiyat taraqqiyotida inson omili rolining tobora ortib borayotganligi;

Inson salohiyati

- inson salohiyatining ijtimoiy-falsafiy mohiyati tahlil etish zarurati;

- inson salohiyatining yuksalib borish, o'zgarib borish va taraqqiy etish dinamikasini o'rganish zarurati;

- inson salohiyatining elementlari, shakllari va mohiyatini ilmiy- falsafiy tahlil etish zarurati va boshqalar.

Inson salohiyati insonga aloqador bo'lgan boshqa ijtimoiy hodisalar singari dialektik mohiyatga ega. Chunki inson taraqqiyoti bir vaqtda uning salohiyatini ham o'zgarib rivojlanib borishini anglatadi. Jamiyat, insonning rivojlanib borishi va aksincha, inson salohiyatining ortib borishi bir-birini deterministik ravishda shartlab beruvchi ijtimoiy-antropologik hodisaning ichki tomonini tashkil etadi. Jamiyat taraqqiyoti inson salohiyatini yuksalib borishisiz amalga oshmaydi. Jamiyat tomonidan inson salohiyatining taraqqiyoti, yuzaga chiqishi hamda uning sarf etilishi uchun sharoitlar va imkoniyatlarning yaratilishi muhim ahamiyatga ega.

Inson salohiyati muammosini o'rganishga bag'ishlangan adabiyotlarning tahlili shuni ko'rsatadiki, hozirgi kunda inson salohiyati asosan insonning iqtisodiy salohiyati nuqtai nazaridan o'rganilmoqda. O'zbek olimlari tomonidan inson salohiyatini o'rganish bo'yicha bir qator tadqiqotlar amalga oshirilgan. Xususan, Sh.G.Akramova, B.Sh.Usmonov, M.Q.Qodirov, J.D.Eltazarovlarning tadqiqotlarida inson salohiyati, inson kapitali, inson taraqqiyoti masalalari tahlil etilgan.

Ma'lumki, inson falsafada biologik va ijtimoiy mavjudot sifatida qaraladi. Uning ijtimoiy xususiyatlarini qaraydigan bo'lsak, bu muammo murakkab, serqirra va ziddiyatli ekanligini hisobga olish zarur. Uning ijtimoiy mohiyatini tavsiflashda biologik xususiyati bilan bir qatorda iqtisodiy, siyosiy, psixologik, ilmiy-intellektual, sotsiologik, aksiologik, diniy-axloqiy, estetik xususiyatlarini ham hisobga olish zarur.

Ijtimoiy taraqqiyot tendenssiyalari va dinamikasi ko'p jihatdan inson salohiyatining ham dinamikasi va tendenssiyalariga mos keladi va bu ikki jarayon o'zaro aloqador. Iqtisodchi olimlar inson salohiyatini ko'proq jamiyatning yuzaga kelayotgan iqtisodiy ehtiyojlarini qondiruvchi, ishlab chiqaruvchi kuch yoki manba sifatida talqin etadilar. Inson salohiyati bunday qaralmasligi, aksincha, unga jamiyat taraqqiyotining muhim omili nuqtai nazaridan yondashuv zarur. Bunda insonning iqtisodiy salohiyati bilan bir qatorda madaniy-ma'naviy salohiyati ham, albatta, nazarda tutilishi lozim. Demak, inson salohiyatini o'rganishning muhim yo'nalishlaridan biri uning mohiyatini falsafiy tahlil etishdan iborat. Bunda inson salohiyati jamiyat taraqqiyotida yuzaga kelgan ijtimoiy hodisa sifatida o'rganiladi. Bu muammoni hal etish inson salohiyatining genezisi, shakllanish bosqichlari va dinamikasi, rivojlanishi, zamonaviy turlari, darajasi, kelajagi kabi masalalarni ham o'rganishni talab etadi. Inson salohiyatini o'rganishga bag'ishlangan barcha nazariyalarni birlashtiruvchi xususiyati shundaki, ularda inson taraqqiyoti dialektik va dinamik jarayon sifatida qaraladi.

“Inson taraqqiyoti” va “inson salohiyati taraqqiyoti” tushunchalarini solishtirsak, insonning har qanday taraqqiyoti uning salohiyati taraqqiyotini anglatadi. Bu jarayon o'z navbatida jamiyat taraqqiyotini belgilab beruvchi omil ekanligi tushuniladi. T.V.Kalinina inson salohiyatini o'rganish uchta jarayon: inson salohiyatining shakllanishi, realizatsiyasi va uning boshqaruvini tahlil etish orqali amalga oshiriladi, deb yozadi va uning ko'p darajali ekanligini ta'kidlaydi. Birinchi darajada inson salohiyati sub'ektga nisbatan tashqi va ichki, genetik xususiyati bo'yicha ikkinchi darajada tabiiy va sun'iy: ekologik, iqtisodiy, biologik va ma'naviy va uchinchi darajada biologik salohiyat substrat va

funksiyaga, ma'naviy salohiyat, ehtiyojlar va qobiliyatga bo'linadi. Salohiyatning asosiy turlariga iqtisodiy, ekologik, biologik va ma'naviy turlari kiradi¹.

Falsafaning barcha yo'nalishlari u yoki bu tarzda inson muamosini o'rganadi. Ontologiya inson borlig'ini, gnoseologiya insonni gnoseologik jihatlarini, sotsiologiya insonning jamiyat bilan aloqadorligini, prakseologiya inson faoliyatini, aksiologiya insonni oliy qadriyat hamda u yaratayotgan qadriyatlarning ijodkori sifatida tahlil etadi. Yuqorida qayd etilgan falsafiy yo'nalishlar doirasida shakllangan falsafiy ta'limotlar jamiyat tarixida insonning roli, uning tarixiy jarayonga hamda ijtimoiy hayotga moslashib borishi, yangi tabiiy va ijtimoiy sharoitlarda yashovchanligi, yashash uchun kurashga moslashuvi kabi jihatlarini tahlil etishga intilgan. Qayd etilgan insonga aloqador muammolar insonning tobora tarixiy jarayonda sub'ektiv omil sifatida o'zini namoyon eta olishiga imkon yaratib borgan. Sub'ektiv omil sifatida insonning roli uning mehnat qilishi, ijtimoiy faoliyati, yangiliklar yaratishi, ijodiy taraqqiyoti kabilar asosida muntazam yuksalib borgan. Demak, inson tarixiy jarayon bilan yonma-yon muttasil o'zgarib, rivojlanib borgan. Albatta, mazkur ijtimoiy hodisalar doirasida insonning o'z mohiyatini to'la namoyon qila olishi, ijtimoiy jarayonlarga faol munosabatda bo'lishi, uning rivojlanishi salohiyati bilan bog'liq bo'lib, mazkur salohiyatning darajasi, yuksalib borishi ob'ektiv qonuniyat. O'z navbatida insonning rivojlanishi uning salohiyatiga aloqador. Shunday qilib, xulosa qilib aytadigan bo'lsak, jamiyatda sub'ektiv omil rolining ortib borishini uning salohiyati belgilab beradi.

Ma'lumki, jamiyatning oddiydan murakkabga tomon evolyusion taraqqiyotida ob'ektiv omillar bilan bir qatorda

¹ Калинина Т.В. Функционально-типологический анализ человеческого потенциала. Дисс.на сосискание ученой степени кандидата философских наук. Нижний Новгород, 2007.-С.11.

sub'ektiv omil ham asosiy rol o'ynaydi. Insonning - sub'ektiv omilning ijtimoiy mohiyati, jamiyatning barcha yo'nalishlarida amalga oshirayotgan faoliyati, egallab turgan va namoyon etayotgan ijtimoiy va hayotiy pozitsiyasi, jamiyatda amalga oshirilayotgan demokratik jarayonlar va islohotlarga munosabati va ularda ishtiroki, jamiyatning muntazam o'sib borayotgan ehtiyojlarini, strategik taraqqiyotini o'z ijtimoiy ongi bilan aks ettirishi bilan birga o'zining va yashayotgan jamiyatining kelajak orientatsiyalarini tushunishi kabi xususiyatlari u mansub bo'lgan jamiyat taraqqiyotining sur'atlariga, albatta, ta'sir etadi.

Falsafiy nuqtai nazardan jamiyat taraqqiyoti o'zining ob'ektiv qonuniyatlariga ega bo'lgan ijtimoiy voqelik hisoblanadi. Mazkur voqelikning mavjud bo'lishi, uzluksizligi ijtimoiy tarixiy taraqqiyot sub'ektlari hisoblangan urug', qabila, elat, millat, turli etnik qatlamlarning o'tmish, hozirgi zamon va kelajakdagi amalga oshiriladigan faoliyatiga qonuniy ravishda bog'liq. Bunday faoliyatning markazida esa ma'lumki, inson va uning faoliyati turadi.

Inson salohiyatini realizatsiya qilish, bir vaqtning o'zida uning huquq va burchlarini hamda erkinliklarini realizatsiya qilishdir. Ayrim olimlarning fikriga ko'ra inson salohiyatini realizatsiya qilish darajasi bevosita jamiyatda inson erkinliklari tamoyillariga, qonun va demokratiyaga qanchalik amal qilishini anglatadi.

Innovatsiyalarning kirib kelishi, iqtisodiy, siyosiy, ma'naviy-ma'rifiy, ta'lim kabi sohalarning tobora globallashib borishi natijasida ijtimoiy hayot tobora murakkab xususiyat kasb etib bormoqda. Iqtisodiy sohada raqobatning va yangicha talablarning ortib borishi, innovatsiyalarning kirib kelishi inson salohiyati hamda faoliyatiga yangicha vazifalarni yuklamoqda. Jamiyatimiz, davlatimiz oldida mavjud milliy salohiyatni

realizatsiya qilish va yanada yuksaltirish borasidagi muammolarning o'z vaqtida hal etilishi inson salohiyatini yuksaltirish bilan birga uning asosida amalga oshiriladigan faoliyat samaradorligini ham ta'minlashga qaratilishi zarur.

Inson salohiyatining rivoji sharoitlar va imkoniyatlarning mavjudligiga bevosita bog'liq. Mamlakatimizda insonning yashiringan salohiyatini yuzaga chiqarish uchun maksimal darajada sharoitlar va imkoniyatlar yaratish zarur, chunki bunday sharoitda sub'ektlarning kreativlik xususiyatlari hamda innovatsiyalar asosida yondashuvlari yuzaga chiqadi.

An'anaviy, konservativ xususiyatga ega bo'lgan cheklangan jamiyatlarda inson salohiyatini taraqqiy ettirish ancha mushkul. Ular ijtimoiy hayotida modernizatsiyani amalga oshirayotgan jamiyatlarda islohotlar innovatsiyalarni amalga oshirish hisobiga inson salohiyatini yuksaltirish uchun ulkan imkoniyatlar yuzaga keladi. Bunday imkoniyatlar natijasida millat va jamiyat rivojlanib borishining sur'atlari ortadi. Bu nuqtai nazardan Prezidentimiz va hukumatimiz tomonidan qabul qilingan bir qator tarixiy hujjatlar inson salohiyati va uning jamiyat taraqqiyoti rolini oshirishga xizmat qiladi.

O'zbekiston Prezidenti Sh.Mirziyoev Yangi O'zbekistonni barpo etish xalqimizning milliy manfaatlarini ifoda etuvchi tarixiy asoslarga ega bo'lgan ob'ektiv zaruriyat ekanligini uqtirib, bu yo'lda jamiyat a'zolarining salohiyati muhim ekanligiga e'tibor qaratadi: "Biz bu yo'lda islohotlarimizning asosiy harakatlantiruvchi kuchi bo'lgan jamiyatimiz a'zolarining bor bilim va salohiyati, kuch va imkoniyatlari, butun azmu shijoatimizni ishga solishimiz zarur. Shundagina Yangi O'zbekiston jahon maydonida kuchli salohiyat, munosib obro'-e'tiborga ega bo'lgan, har tomonlama obod va farovon mamlakatga aylanadi"¹.

¹ Мирзиёев Ш. Янги Ўзбекистон стратегияси. – Т.: Ўзбекистон, 2021. – Б.4.

Inson o'zi yashayotgan ijtimoiy davr, ijtimoiy makon, ijtimoiy jarayonga tegishli bo'lib, a'zosi bo'lgan jamiyatning xususiyatlarini ifoda etadi. U bioijtimoiy mavjudot sifatida o'z tarixiy davri va yashayotgan jamiyatning mohiyatini tashuvchisi hisoblanadi. Insonni o'rab turgan hamda unga aloqador bo'lgan barcha ijtimoiy hodisalar, amalga oshayotgan jarayonlar hamda ularning ijobiy va salbiy xususiyatlari ma'lum darajada insonning o'tmishi, hozirgi kuni va kelajagini ifoda etadi. Bunday hodisalar va jarayonlar insonning salohiyatida aks etadi. Demak, e'tirof etish mumkinki, inson va unda namoyon bo'layotgan salohiyatining muntazam ijtimoiylashib borishi qonuniy jarayon hisoblanadi. Aytib o'tilgan jarayonlar insonning tobora ijtimoiylashib borishi, ya'ni o'zini shaxs sifatida namoyon etishi uchun imkon yaratadi. U ijtimoiy shaxs sifatida konkret ijtimoiy davrning, u shakllangan jamiyatning tarixini yaratuvchisi hisoblanadi.

Inson ijtimoiy inson sifatida jamiyatning mohiyatini shunchaki aks ettiribgina qolmaydi. U jamiyatda amalga oshayotgan turli hodisalar, ijtimoiy jarayonlarga u yoki bu tarzda ta'sir ko'rsatadi. Bunday ta'sir etish jarayonida uning qobiliyati, o'ziga xos xususiyatlari va qiziqishlari, ongliligi, faolligi, tashkilotchililigi kabi salohiyatini ifoda etuvchi xususiyatlari muhim ahamiyatga ega.

Insonning ijtimoiy mohiyati hamda salohiyatining shakllanishi va to'planishida:

- megamuhit – ulkan ijtimoiy hayot;
- makromuhit – katta jamiyat;
- mikromuhit – insonni o'rab turgan ijtimoiy muhit muhim rol o'ynaydi.

Ijtimoiy muhitning sanab o'tilgan shakllari inson salohiyatini shakllantiruvchi, rivojlantiruvchi hamda realizatsiya qiluvchi ijtimoiy-tarixiy makon hisoblanadi. Inson salohiyatining

ortib borishi unga jamiyatda o'z faoliyati orqali salohiyatidan kelib chiqib, ijtimoiy taraqqiyot talablariga, chaqiriqlariga hamda ehtiyojlariga moslashib boradi. Demak, insonning ijtimoiylashib borishi jarayonida bunga aloqador bo'lgan ikkita hodisani ko'rsatib o'tish zarur:

- insonning jamiyatda amalga oshayotgan ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy-ma'naviy va boshqa sohadagi o'zgarishlar va mazkur sohalarning taraqqiyotga moslashib borishi;

- jamiyat taraqqiyotida inson mobilligining (harakati, dinamikasi, moslashuvi, yashovchanligi va h.k.) ortib borishi.

Bu jarayonlarda inson salohiyatining ortib borishi mazkur salohiyatning realizatsiya qilishi hamda to'g'ri yo'naltira olishi bilan bog'liq.

Har bir yangi avlod o'z hayotida avvalgi avlod tomonidan tashkil etilgan turmush tarzi, moddiy va ma'naviy boyliklarining yaratilganligi hamda ijtimoiy hayotning tashkillanganligiga duch keladi va ulardan foydalanadi. Ularga o'z faoliyati asosida yondashadi. Mavjud ijtimoiy taraqqiyot natijalaridan foydalanadi. Bunday dialektik bog'liqlik asosida insonning salohiyati yanada ortib boradi. Insonning salohiyati o'zigacha mavjud bo'lgan salohiyatdan foydalanish, jamiyatda avlodlar o'rtasida bog'liqlik yuzaga keladi. Demak, insonning zarur sharoitlar va imkoniyatlarga ko'nikma hosil qila olish, yashovchanlik xususiyati vaqt o'tishi bilan jamiyatda qabul qilingan ijtimoiy hayot tartibiga hamda qonun-qoidalariga ham moslashib, mazkur qabul qilingan tartibda yashashning qoidalarini shakllanishiga olib keladi. Bu holat yakka insongina emas, balki ana shu insonlardan tashkil topgan jamiyatning va unda yashayotgan millatning ham salohiyati ortib borishiga olib keladi. Mazkur jarayon barcha jamiyatlarda va ularning tarixida ob'ektiv qonuniyat sifatida yuzaga chiqadi.

Qayd etilgan jarayon jamiyatda insonning ijtimoiy moslashuvi bo'lib, u jamiyat taraqqiyotida ulkan ahamiyatga ega.

Aks holda, minglab aholi yoki jamiyatlar hayotida moslashuv jarayonida o'z salohiyatini ishga sola olmay asta-sekin uning emirilib ketish jarayonlari yuz bergan. Bu borada tarixda bir qancha misollar mavjud. Masalan, qadimda gullab yashnagan, lekin hozirgi kunda er yuzidan yo'qolib ketgan qipchoqlar, yunga, pecheneglar, skiflar, burtaslar, mochika, mayya, hazar kabi xalqlar hayoti va madaniyati o'ziga xos tarzda kechgan. Bu xalqlar ijtimoiy hayotining globallashuvi, migratsiya, urushlar, til bilan bog'liq bo'lgan jarayonlar ularning turmush tarzini tubdan o'zgartirib yubordi. Ular globallashuvda faol bo'la olmaganliklari sababli bu jarayon ularning madaniyati, ma'naviyati va tarixini yutib yubordi¹. Aytish mumkinki, yuqorida nomlari keltirilgan xalqlar yuzaga kelgan turli sharoitlar va chaqiriqlarga moslasha olmay, o'z salohiyatini to'g'ri realizatsiya qila olmay qoldilar. Boshqalar bilan o'zaro ijtimoiy aloqalarning kamayib borishi, salohiyati dinamikasining to'xtab qolishi oqibatida salohiyatining ham yo'qolib ketishiga olib keldi. Yer yuzidan yuzlab millatlarning yo'qolib ketishiga ularning tarixida salohiyatining yo'qolib ketishi sabab bo'lgan, deb aytish mumkin. Bu masalaga yanada konkretroq yondashib, taniqli amerikalik arxeolog olim Kelbert mayya sivilizatsiyasini tarix sahnasidan yo'qolib, emirilib ketishiga olib kelgan sabablarni quyidagicha tushuntiradi: «Mening fikrimcha, mayyaning yo'qolib ketishi uning madaniyat qoidalardan chekinishi bilan bog'liq bo'lgan oddiy holat. Bunda madaniyat o'ta tez rivojlanib, o'z resurslarini juda tez ishlatib yuborib, madaniyat egalari atrof-muhitga o'ta beg'amlik bilan munosabatda bo'ladilar. Boshqa qo'shnilaridan ajralib qoladilar. Ularning tashkiliy imkoniyatlari ham tugadi. Iqtisodiy baza ishchi kuchidan samarali foydalanish qobiliyatini yo'qotdi»².

¹ Исчезнувшие народы. –Москва: Наука, 1998. –С.6-18.

² Gullbert P.T. Th Lost Civilization: the Storiy of Classic Maya. N.Y. 1947. –P.112.

Ko‘rinib turibdiki, inson salohiyatini saqlash va uni yuksaltirish sub‘ektning ijtimoiy moslashuvchanligi bilan aloqador ekan. Ijtimoiy moslashuv insonning ma‘lum tarixiy davrga xos bo‘lgan insonlararo va jamiyatlararo iqtisodiy-ijtimoiy munosabatlarni, mavjud moddiy va madaniy-ma‘naviy qadriyatlarni iqtisodiy, siyosiy va madaniy hayot asoslarini, asrlar davomida shakllanib kelgan milliy-ijtimoiy tajriba, an‘analar va urf-odatlarini o‘zlashtirib borish jarayoni sifatida tavsiflanishi mumkin. Sanab o‘tilgan omillarga asoslangan holda inson va jamiyat taraqqiy etadi. Demak, salohiyatning muhim ijtimoiy xususiyati realizatsiya qilinishi jarayonida yangiliklarga, zaruriyatga, ijtimoiy talablar va buyurtmalarga moslasha olishdan iborat.

Ijtimoiy taraqqiyotda inson salohiyatining ortib borishi bilan bog‘liq bo‘lgan yana bir jarayon insonning ijtimoiy mobilligi hisoblanadi. “Ijtimoiy mobillik” jamiyat a‘zolari hamda jamiyatda shakllangan turli ijtimoiy guruhlarining o‘z maqsad va manfaatlaridan kelib chiqib ma‘lum ijtimoiy pozitsiyani namoyon etishi, uni o‘zgartirishni ifoda etuvchi tushuncha. Ijtimoiy mobillik jamiyat a‘zolarining salohiyatiga turlicha ta‘sir etishi mumkin. Inson o‘zining jamiyatda ega bo‘lgan ijtimoiy mavqei, kasbi, bilimi, ko‘nikmalari va boshqa uning salohiyatiga ta‘sir etuvchi jihatlaridan kelib chiqib ma‘lum darajada ijtimoiy mobil bo‘lishi mumkin.

XX asrning taniqli sotsiologi Pitirim Sorokin “Ijtimoiy mobillik” tushunchasini ilmiy muomalaga kiritgan. Uning 1927-yilda AQShda nashr etilgan “Ijtimoiy mobillik” nomli asari bu borada ulkan ahamiyatga ega bo‘ldi. Sorokin ijtimoiy mobillikni jamiyatga xos bo‘lgan xususiyat sifatida tavsiflaydi. U gorizontal va vertikal mobillikni e‘tirof etadi. Mobillik jarayonida jamiyatda shakllangan ijtimoiy qadriyatlarga katta ahamiyat berib, ularning o‘rni muhimligini e‘tirof etgan¹. Uning fikricha,

¹ Сорокин П.А. Социальная мобильность. М.: 2005. – С. 119.

inson faoliyatidan kelib chiqib har qanday ijtimoiy ob'ekt, qadriyat mobillik xususiyatiga ega bo'lishi mumkin.

Rossiyalik olim V.Chesnokova insonning ijtimoiy mobilligini uning kasbi, professional xususiyatlari, o'z vazifasini samarali bajarishi bilan bog'liq qobiliyati muhim rol o'ynashini ta'kidlaydi. Uning fikricha, insonning xususiyatini hamda salohiyatini jamiyatda mavjud ijtimoiy munosabatlar orqali, insonning mazkur munosabatlardagi o'rni, pozitsiyasi orqali anglash mumkin¹.

Yuqorida aytilganlardan kelib chiqadiki, ijtimoiy hayotda insonning moslashuvchanlik hamda ijtimoiy mobillik xususiyati inson salohiyatining:

ijtimoiy hodisa sifatida namoyon bo'lishini:

jamiyatda shakllangan ijtimoiy munosabatlar bilan bog'liqligini:

ijtimoiy munosabatlarning inson salohiyatining ortishi yoki kamayib borishiga ta'sir ko'rsatishini;

mavjud ijtimoiy munosabatlar inson salohiyatini belgilab beruvchi determinant ekanligini;

inson salohiyati jamiyat taraqqiyotiga aloqador ravishda muntazam ortib borishini;

ijtimoiy taraqqiyotning sub'ektiv omili – insonning salohiyati doimiy dinamikada mavjudligi sababli muntazam ortib borishi kabi hodisalar inson salohiyatining nafaqat antropologik, balki ijtimoiy va madaniy antropologik hodisa ekanligi va shu bilan birga insongagina emas, jamiyat, millat, davlatga aloqador bo'lgan ijtimoiy mohiyatga ega ekanligini anglatadi.

Ma'lumki, jamiyat taraqqiyotining asosida ishlab chiqarish kuchlari va ishlab chiqarish munosabatlari turadi. Ishlab

¹ Чеснокова В.Ф., Уильям Л. Питирим Сорокин: социальная стратификация и социальная мобильность. Человек. Сообщество. Управление. 2007. № 1. – С. 115;121 <https://cyberleninka.ru/article/n/uilyam-l-uorner-pitirim-sorokin-sotsialnaya-stratifikatsiya-i-sotsialnaya-mobilnost/pdf> Мурожаат этилган сана: 04.04.2022.

chiqarish kuchlarining asosiy elementi – inson. Inson jamiyatning sub’ektiv omili sifatida uni taraqqiy ettiruvchi va shu bilan birga o’zi ham ijtimoiy taraqqiyot ta’sirida har tomonlama rivoj topib boruvchi ijtimoiy mavjudot.

Jamiyat va insonning muntazam va uzluksiz progressiv taraqqiy etib borishi – ob’ektiv qonuniyat. Lekin bu ob’ektiv qonuniyatni amalga oshuvi mexanizmining ikkinchi asosiy jihati – sub’ektiv omil – inson. Bu nuqtai nazardan ob’ektiv qonuniyatlarni inson tomonidan to’g’ri anglab etilishi jamiyat taraqqiyotini tezlashtiradi. Bunday holatda insonning egallab turgan ijtimoiy pozitsiyasi, jamiyatda faolligi, kreativ yondashuvi, tanqidiy fikrga egaligi kabi hodisalar katta ahamiyat kasb etadi va sub’ektiv omillarning ijtimoiy taraqqiyotning ob’ektiv qonuniyatlariga mos tarzda yuzaga chiqishini va bunday mutanosiblik inson va jamiyat rivojida katta rol o’ynashini anglatadi.

Inson salohiyati tahlil etilganda, albatta, uning yuzaga chiqarilgan yoki realizatsiya qilingan salohiyati bilan bir qatorda, insonda mavjud bo’lgan tug’ma yoki jamiyatda o’zlashtirilgan, lekin hali yuzaga chiqarib ulgurmagan yashirin salohiyatni farqlash zarur. Tadqiqotlar shuni ko’rsatadiki, inson salohiyatining ikkala turi ham inson va jamiyat taraqqiyotida muhim omil hisoblanadi. Bu borada asosiy vazifalardan biri insonning yashirin salohiyatini yuzaga chiqarish uchun jamiyatda etarli shart-sharoitlar yaratishdan iborat. Ayniqsa, yoshlarning salohiyatini yuzaga chiqarish, uning yuzaga chiqmagan hali realizatsiya bo’lib ulgurmagan qismini to’g’ri yo’naltirish, jamiyatda o’ziga mos faoliyat turlarini shakllantirish va bu borada qayd etilgan salohiyat qismini qo’llash zarur. Prezidentimiz “Yangi O’zbekiston strategiyasi” asarida yoshlarni – “Yangi O’zbekiston bunyodkorlari” deb ta’riflagan. “Navbatdagi muhim vazifamiz – mana shunday farzandlarimiz orasidan yangi

avlod xorazmiy va farg'oniyalarini, ulug'beklar va navoiylarini tarbiyalab, voyaga etkazishdan iborat... Bugungi murakkab zamonda yoshlarni jismoniy va ma'naviy barkamol insonlar etib tarbiyalash biz uchun g'oyat muhim vazifa bo'lib qolmoqda"¹. O'zbekistonda jamiyat va uning a'zolarining yashirin salohiyatini yuzaga chiqarish, saqlash va ishga solish borasida mamlakatimizda barcha sohalarda amalga oshirilayotgan o'zgarishlar, innovatsiyalar va islohotlar natijasida ulkan imkoniyatlar yuzaga keldi. Mazkur yangicha imkoniyatlar va yaratilayotgan sharoitlar inson salohiyatini yuzaga chiqarish hamda yuksaltirishga sezilarli darajada ta'sir ko'rsatishi mumkin.

Bu borada "2022 — 2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risi"dagi PF-60-son O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning "Yangi O'zbekiston strategiyasi" kitobida inson salohiyatini yuksaltirish borasida qo'yilgan vazifalar muhim konseptual g'oyalar vazifasini o'tashi mumkin. Uning fikricha, "Biz o'z oldimizga O'zbekistonni rivojlangan mamlakatga aylantirishni maqsad qilib qo'ygan ekanmiz, bunga faqat jadal islohotlar, ilm-ma'rifat va innovatsiya orqali erisha olamiz. Buning uchun, avvalo, islohotlarning amaliy natijadorligini oshirish, joylarda yangi tashabbuslarni ilgari surishda aholimizning yanada faol, yanada tashabbuskor bo'lishiga erishmog'imiz lozim. Ayni paytda islohotchi bo'lib maydonga chiqadigan, strategik fikr yuritadigan, bilimli va malakali yangi avlod kadrlarini tarbiyalashimiz zarur"².

Ko'rinib turibdiki, Sh.Mirziyoyev yoshlar masalasiga katta e'tibor qaratmoqda. Yoshlar siyosati borasida so'nggi vaqtlarda Prezidentimiz tomonidan imzolangan qonunlar, qaror va farmonlar, hukumatimiz tomonidan qabul qilingan qarorlar

¹ Мирзиёев Ш. Янги Ўзбекистон стратегияси. – Т.: O'zbekiston, 2021. – Б.253; 254.

² Мирзиёев Ш. Янги Ўзбекистон стратегияси. – Т.: O'zbekiston, 2021. – Б.23.

yoshlar salohiyatini yuzaga chiqarish va ular uchun imkoniyatlar yaratishda muhim ahamiyat kasb etadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son “2022–2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi” Farmonining 1-ilovasi 4-bo‘limi “Adolatli ijtimoiy siyosat yuritish, inson kapitalini rivojlantirish” deb atalgan bo‘lib;

- har bir fuqaroga davlat hisobidan aniq kasb-hunarga o‘qish imkoniyatini yaratish;

- maktabgacha ta‘limdagi qamrov darajasini hozirgi 67 foizdan kamida 80 foizga etkazish;

- maktablarni rivojlantirish milliy dasturini joriy etish kabi maqsadlar ustuvor etib belgilangan¹.

Shuningdek, Strategiyaning 46-maqsadida yoshlarni oliy ta‘lim olish imkoniyatlarini oshirish maqsadida quyidagilar keltirilgan: “Oliy ta‘lim bilan qamrov darajasini 50 foizga etkazish va ta‘lim sifatini oshirish. Kadrlar buyurtmachilari takliflari asosida qabul parametrlarini 2022-yilda oshirish. 2022-yilda yoshlarni oliy ta‘lim bilan qamrov darajasini 38 foizga etkazish. To‘lov-kontrakt asosida o‘qishga qabul qilish parametrlarini oliy ta‘lim muassasalari tomonidan mustaqil belgilash tartibini joriy etish. 2026-yilda qabul ko‘rsatkichini kamida 250 mingga etkazish. Davlat oliy ta‘lim muassasalariga akademik va moliyaviy mustaqillik berish, shu jumladan ular tomonidan mehnatga haq to‘lash, xodimlar soni, to‘lov-kontrakt miqdori va ta‘lim shaklini mustaqil belgilash amaliyotini yo‘lga qo‘yish. Davlat oliy ta‘lim muassasalarining tegishli huquq va vakolatlarini aniq belgilash”².

¹ Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2022 йил 28 январдаги “2022-2026 йилларга мўлжалланган Янги Ўзбекистоннинг тараққиёт стратегияси” ПФ-60-сонли Фармони // <https://lex.uz/pdfs/5841063>

² Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2022 йил 28 январдаги “2022-2026 йилларга мўлжалланган Янги Ўзбекистоннинг тараққиёт стратегияси” ПФ-60-сонли Фармони // <https://lex.uz/pdfs/5841063>

“2022–2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi”ning 52-maqsadi global innovatsion indeksda O‘zbekiston Respublikasining o‘rnini yaxshilash va 2030-yilga qadar top-50 mamlakatlari qatoriga kirishni nazarda tutadi. Global innovatsion indeksda qayd etilgan past indikatorlar bo‘yicha O‘zbekiston pozitsiyasini yaxshilash, innovatsion loyihalarni amalga oshirish uchun barcha yo‘nalishlarda keng imkoniyatlarni yaratish, tadqiqotlarni va innovatsion tashabbuslarni qo‘llab-quvvatlashning zamonaviy mexanizmlarini joriy qilishni vazifa qilib qo‘ygan.

Yuqoridagi muhim hujjatlardan anglashiladiki, O‘zbekistonda yoshlar salohiyatini rivojlantirish strategik ahamiyatga molik bo‘lgan muammo hisoblanadi. “Yoshlarning iste’dod va qobiliyati, ezgu intilishlarini to‘liq ro‘yobga chiqarish, ijtimoiy faolligini oshirish, hayotda munosib o‘rin egallashlari uchun barcha imkoniyatlarni yaratib berish bundan buyon ham bosh maqsadimiz bo‘lib qolaveradi. Tomirlarida buyuk bobolarimizning qoni oqayotgan yoshlarimiz ulug‘ ajdodlarimizning munosib vorislari bo‘lishi, ular kabi ulkan maqsadlar sari intilib yashashi va yuksak marralarga erishishi uchun barcha zarur shart-sharoitlarni yaratishimiz zarur. Yangi O‘zbekiston yoshlari ana shunday yuksak darajalarga ko‘tarilishi uchun barcha imkoniyatlarni ishga solamiz”¹.

Qayd etilgan fikrlardan kelib chiqadiki, inson salohiyatining nazariy jihatlarini o‘rganish asosida mazkur muammoga nisbatan aniq ta’rif va yondashuvlar mavjud emasligini anglaymiz. Bu borada berilgan ilmiy xulosalar ham asosan iqtisodiy nuqtai nazardan o‘rganilgan tadqiqotlar natijasida kelib chiqqanligini aytish zarur. Inson salohiyatini falsafiy nuqtai nazardan o‘rganish va xulosalarni keng ommaga etkazish, jamiyatda mavjud salohiyatdan foydalanish, foydalanilib

¹ Мирзиёев Ш. Янги Ўзбекистон стратегияси. – Т.: O‘zbekiston, 2021. – Б.262-263.

ulgurmagan salohiyatni ham realizatsiya qilish imkonini beradi. Bu esa shubhasiz jamiyat rivojiga o'ziga xos omil bo'lib xizmat qiladi. Natijada faqatgina hozirgi zamonda jamiyat duch kelayotgan kelayotgan turli sohalardagi muammolarnigina emas, balki kelajak taraqqiyotidan kelib chiqib iqtisodiy-ijtimoiy, madaniy-ma'naviy, ilmiy-texnologik sohalarda yuzaga kelishi mumkin bo'lgan muammolarni ham anglab etish va oldini olish mumkin.

O'zbekiston Respublikasining yangi rivojlanish bosqichiga o'tishi inson salohiyatidan keng foydalanish imkoniyatlarini yaratadi. Yuqoridagilardan kelib chiqib quyidagicha xulosaga kelish mumkin: inson salohiyati va uning taraqqiyoti jamiyat hayotining davomiyligi va uzluksizligini, progressivligi va cheksizligini, doimiy harakatda bo'lishi va ijtimoiy hodisalarning o'zaro dialektik aloqadorligini va evolyusiyasini ta'minlaydi.

Nazorat uchun savollar:

1. Inson salohiyatini iqtisodiy va falsafiy ta'riflari qanday?
2. "Inson taraqqiyoti" va "inson salohiyati taraqqiyoti" tushunchalari nimani anglatadi?
3. Inson salohiyati realizatsiyasi deganda nimani tushunasiz?
4. Inson salohiyatini saqlash va uni yuksaltirish sub'ektning ijtimoiy moslashuvchanligi bilan aloqador ekanligini qanday izohlaysiz?
5. "Ijtimoiy mobillik" tushunchasining ta'rifi qanday?
6. O'zbekistonda jamiyat va uning a'zolarining yashirin salohiyatini yuzaga chiqarish, saqlash va ishga solish borasida qanday ishlar amalga oshirilmoqda?

II BOB. INSON SALOHIYATI TIZIMI, UNING ELEMENTLARI VA SHAKLLARI

Insonga aloqador barcha hodisalar antropologik va sotsiologik yondashuvlar asosida o'rganiladi. Ularning barchasi inson kabi murakkab xususiyatga va strukturaga ega. Inson salohiyati ham o'ziga xos mohiyatni hamda strukturani ifoda etadi. Inson salohiyati tizimining tuzilishi va uni tashkil etuvchi elementlarning xususiyatlari tizimli yondashuv asosida tahlil etilishi maqsadga muvofiq. Inson salohiyati tizimi elementlarining xususiyatlari uning mohiyatini belgilaydi.

Inson salohiyatini tashkil qiluvchi elementlar inson kapitali va inson resurslaridan iborat. Ularning har biri ham o'ziga xos tizim bo'lib, strukturasi murakkab hisoblanadi.

Inson kapitali shaxsning ijtimoiy tajribasi asosida yig'iladigan hamda uning faoliyatiga imkon beruvchi bilimi, ko'nikmasi, salomatligi kabilarni o'z ichiga oluvchi ijtimoiy hodisa. Inson kapitali uning salohiyati yuksalishining asosi. Inson salohiyati negizida uning kapitali paydo bo'ladi. Inson kapitalini uning hayoti davomida tug'ma bo'lgan va orttirgan jismoniy va ma'naviy salomatligi, ijtimoiy tajribasi, bilimlari, ko'nikmalari tashkil etadi.

Inson kapitalida uning antropologik mohiyati aks etadi. Insonning axloqi, madaniyati, ma'naviyati, bilimi, ta'limi, ijtimoiy faoliyati, faolligi, qadriyatlar tanlovi, aksiologik orientatsiyasi va boshqa xususiyatlari asosida uning kapitali shakllanadi. Inson qobiliyatining o'zi va jamiyat ehtiyojlarini qondirishga qaratilgan qobiliyat va bilimlarning birikmasi sifatida ta'riflash mumkin.

Inson resurslari inson salohiyatining ikkinchi muhim elementi. U inson faoliyatining samaradorligi hamda

unumdorligiga qaratilgan. Milliy resurslar, moddiy resurslar, tabiiy resurslar va boshqalar inson resursining elementi sifatida talqin etiladi. Qayd etilgan tizimda insonning intellektual resursi o'ziga xos rol o'ynaydi. Ayrim olimlar tomonidan inson resurslari insonning o'z hayotida muntazam orttirib borayotgan tajribasi asosida qobiliyati, salomatligi, biologik va ijtimoiy imkoniyatlarini oshirish sifatida ham talqin etiladi. Inson resurslarida uning tug'ma yoki genetik jismoniy va aqliy, madaniy, ijodiy, ilmiy qobiliyatlari va mehnat layoqati aks etadi. Inson resurslaridan to'g'ri va maqsadli foydalanish, albatta, jamiyat va davlat taraqqiyotiga hissa qo'shadi. Jamiyatda inson resurslarini yuzaga chiqarish va ulardan maqsadli foydalanish ma'lum bir shart-sharoitlar, jamiyatning erkinlik darajasi, innovatsiyalarga munosabati hamda inson taraqqiyoti uchun yaratilgan sharoitlarga bog'liq.

1-§. Inson salohiyati tizim sifatida

Tayanch tushunchalar: inson salohiyati tizimini elementlari, inson kapitali, inson resurslari.

Inson salohiyatini falsafiy tahlil etishda muammoga tizimli yondashuv zarur. Bu nuqtai nazardan inson salohiyati murakkab tizim sifatida turli elementlarni o'zida birlashtirgan bo'lib, ushbu elementlar inson salohiyatining asosini tashkil etadi. Inson salohiyati tuzilishi va unga tegishli elementlarning xususiyatlarini aniqlash, bir so'z bilan aytganda, inson salohiyatining mohiyatini o'rganish uchun tizimli yondashuv zarur. Tizimli yondashuv tadqiqot ob'ektini bir tomondan, butun sifatida va ikkinchi tomondan, turli elementlardan iborat tizim


sifatida o'rganishga imkon beradi. Ma'lum tizimga ega bo'lgan butun ob'ektning mohiyati va xususiyatlari uni tashkil etuvchi elementlarning xususiyatlari bilan belgilanadi. Elementlarni butunning qismlari sifatida ham ta'riflash mumkin.

Har qanday yaxlit butunlik - tizim o'zining elementlari orqali mavjud bo'ladi. Tizimning elementlari yoki butunning qismlari o'rtasida doimo o'zaro bog'liqlik va o'zaro ta'sir mavjud bo'ladi. Alohida olingan qism yoki element tizimga yoki butunga teng emas va yakka holda uning mohiyatini belgilab bera olmaydi. Qismlar va elementlar o'rtasidagi bog'liqlik asosida ularning xususiyatlari o'zaro dialektik aloqador va bir-birining mohiyatiga ham ta'sir etadi. Shu bilan birga tizim elementlari ketma-ketligi va ma'lum evolyusiyasini aniqlaydi. Mana shunday asosda tizim ma'lum xususiyatlarga ega bo'lgan va tamoyillarga bo'ysungan holda o'zini saqlaydi va mavjud bo'ladi.

Borliqda mavjud bo'lgan har qanday tizim ma'lum xatti-harakatlar va maqsadga yo'nalgan. Tizimning harakati asosida uning mavjudligi va hayoti ta'minlanadi. Bunday dialektik bog'liqlik va aloqadorlik, harakat har qanday tizimning nafaqat mavjudligi, balki taraqqiyotini ham ta'minlaydi. Inson salohiyatini tadqiq etish holatida bu tizim uning elementlarining mavjudligi va harakatiga bog'liq. Inson salohiyati tizimining mohiyati unga tegishli bo'lgan elementlarning ichki dialektik bog'liqligi va dinamikasiga bog'liq.

Inson salohiyatini tizim sifatida tadqiq etish uning tarkibiga kiruvchi qismlarni alohida o'rganishni taqozo etadi. Fikrimizcha, inson salohiyati tizimini quyidagi elementlar tashkil etadi:

- inson kapitali;
- inson resurslari (1-rasm).



1-rasm. Inson salohiyati tizimi

Hozirgi kunda inson salohiyati bo'yicha yaratilgan ilmiy asarlarda olimlarimiz salohiyatni yakka inson bilan bog'lash bilan cheklanayotganlari yo'q. Aksincha, salohiyat muammosini falsafiy fanlar doirasida millat yoki mamlakat, jamiyat bilan bog'liq ravishda turli tarixiy davrlar doirasida o'rganilmoqda. Xususan, akademik G.I.Zaslavskaya salohiyat muammosini bitta inson bilan emas, u tegishli bo'lgan jamiyat hamda millat salohiyati bilan bog'lagan holda tahlil etgan. Mazkur salohiyat dunyoda raqobat kuchayib borayotgan sharoitda millat va jamiyat taraqqiyotini belgilab berishi mumkin. Shuningdek u "inson salohiyati"ga ijtimoiy-iqtisodiy sohaga tegishli ilmiy kategoriya sifatida qaraydi. G.I.Zaslavskayaning fikricha, "... jamiyatning inson salohiyati – bu milliy birlikning o'z-o'zini faol taraqqiy ettirishga tomon intilishi, tashqi muhit tomonidan va jamiyatlar o'rtasida tobora kuchayib borayotgan raqobat natijasida yuzaga kelayotgan ko'plab savollarga tezkorlik bilan va to'g'ri javob berishga tayyorligi va qobiliyati"¹. Ko'rinib turibdiki,

¹ Заславская Т.И. Двадцать лет российской трансформации. Человеческий потенциал в современном трансформационном процессе. <https://ecsocman.hse.ru/data/2010/12/15/1214861784/Zaslavskya.pdf> Мурожаат этилган сана: 09.04.2022.

jamiyat, millat salohiyati ijtimoiy hayotning barcha sohalarida yuzaga kelayotgan turli chaqiriqlarga javob bera olish qobiliyatini ifoda etadi.

Inson salohiyatining asosida inson kapitali turadi. Inson kapitali shaxsning o'z hayotiy tajribasidan kelib chiqib, butun hayoti davomida yig'ib boradigan, insonga jamiyatda amalga oshiradigan faoliyati uchun asos va resurs bo'lib xizmat qiladigan, muntazam ravishda salohiyatini oshirishga imkon beruvchi bilimlari, ko'nikmalari, ijtimoiy tajribasi va shu bilan birga insonning jismoniy va ijtimoiy salomatligini anglatadi. Inson kapitali uning salohiyati doirasida shakllanadi va rivojlanadi. Bundan kelib chiqadiki, inson kapitalining shakllanishi va rivoji inson salohiyatining rivojlanishi demakdir.

Inson salohiyati va inson kapitali o'zaro bog'liq jarayon sifatida insonning jamiyatda o'zini realizatsiya qila olishining imkoniyati hisoblanadi. Bu jarayonning muhim elementlari insonning qobiliyati, talantini tashkil etadi. Bu borada O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning fikrlarini keltirish o'rinli bo'ladi. Uning "Asosiy maqsad – mamlakatimizda inson kapitalini rivojlantirish" mavzusidagi ma'ruzasi aynan mamlakatimizda inson kapitalini va innovatsiyalarni rivojlantirish muammosiga bag'ishlangan¹.

Jamiyat, davlat, millatning kapitalini tashkil etuvchi omillar tizimida har bir insonning, jamoaning barcha a'zolarining kapitali turadi. Mazkur kapitallar yig'indisi tegishli jamiyatning mavjud kapitalini tashkil etadi. Jamiyatning barcha sohalarining taraqqiyoti markazida inson kapitali turadi. Ijtimoiy sohalarning strategemalari albatta, inson kapitalining ham kelgusi taraqqiyoti, imkoniyatlari va istiqbollarini nazarda tutadi.

¹ Мирзиёев Ш. Асосий мақсад - мамлакатимизда инсон капиталини ривожлантириш www.president.uz/uz/2604 Мурожаат этилган сана: 11.03.2021.

Inson salohiyati

Davlatlar va hukumatlar o'z ichki va tashqi siyosatining yo'nalishlarini, kelgusi taraqqiyot istiqbollari inson kapitali va uning ahamiyati, taraqqiy etishi, yangilanishi kontekstida belgilaydilar va rejalashtiradilar.

Jamiyatning kelajagi, istiqboli ko'p jihatdan insonning innovatsion faoliyatiga bog'liq bo'lib qolmoqda. Insonning intellektual resurslari, intellektual salohiyati inson kapitali hisoblanadi, degan fikrlar bir qator G'arb faylasuflari tomonidan aytiladi. Bunday fikrlar asosida inson kapitali nazariyasi ishlab chiqildi.

“Inson kapitali” tushunchasini olimlar turlicha talqin etadilar. Inson kapitalini o'rganish borasida dastlabki nazariyalar amerikalik olimlar T.Shuls, U.Petti va G.Bekker tomonidan o'tgan asrning 60-yillarida yaratilgan. G.Bekkerning 1964 yilda nashr etilgan “Human Capital” nomli kitobida inson kapitalining nazariy modeli berilgan¹. G.Bekkerning inson kapitali nazariyasi keyinchalik bu sohada yaratilgan ilmiy tadqiqotlar uchun metodologik asos bo'lib xizmat qildi. Olim tomonidan inson kapitalini o'rganish jarayonida masalaga asosan iqtisodiy nuqtai nazardan yondashilganini ko'rish mumkin. Vaqt o'tishi bilan inson kapitali bo'yicha iqtisodiy nazariyalar ijtimoiy jarayonlarga nisbatan ham qo'llanila boshlandi. “Inson kapitali” kategoriyasiga bog'liq ravishda “ijtimoiy kapital”, “siyosiy kapital”, “intellektual kapital”, “inson resurslari” kabi tushunchalar paydo bo'ldi.

Inson salohiyatini o'rganuvchi nazariyalarning markazida inson kapitali muammosi turadi. Inson kapitalini uning salohiyatiga aloqador ravishda ijtimoiy falsafa doirasida tahlil etish zarur, deb hisoblaymiz, chunki insonga aloqador har bir hodisa falsafiy antropologiya doirasida o'rganilishi zarur. Jamiyatda amalga oshadigan ijtimoiy hodisalarning markazida

¹ Becker G. Human Capital. NY., L., 1975.

inson turadi. Jamiyat sohalarining asosiy taraqqiyot omili, determinanti sub'ekt va uning faoliyati bilan bog'liq. Jamiyatda amalga oshayotgan har qanday ijtimoiy jarayonlar, hodisalar albatta, insonga aloqador bo'lib, ular insonning hayotida, faoliyatida va xatti-harakatlarida namoyon bo'ladi.

Ma'lumki, ijtimoiy borliq, jamiyat hayotining barcha sohaları o'zaro dialektik aloqadorlikda mavjud bo'ladi. Turli sohalar bir-biriga o'zaro ta'sir ko'rsatadi. Insonning atributi uning ijtimoiyligi, ya'ni jamiyatda mavjud bo'lishi, uning ta'sirida bo'lish va shu bilan birga o'z faoliyati orqali jamiyatga qo'shilib ijtimoiylashib borishidir. Albatta, bu jarayonda inson salohiyati jamiyatda ma'lum vazifani bajarish nuqtai nazaridan muhim bo'lsa, o'z navbatida jamiyat ham insonning salohiyatini realizatsiya qilishiga hamda yuksalishiga imkon yaratadi.

Inson o'zini, xususiyatini, ichki ehtiyojlari va manfaatlarini, orzu-umidlari, salohiyatini jamiyatda, jamiyat bilan o'zaro munosabatda yuzaga chiqara oladi. Insonning antropologik mohiyatini tashkil etuvchi ijtimoiy hodisalar, ya'ni uning ongi, tili, mehnat qilishi, ongli faoliyati, boshqalar bilan o'zaro munosabatlari, ehtiyojlarining ortib borishi va qondirilishi kabilar inson va jamiyatni o'zaro bog'lab turuvchi ijtimoiy antropologik hodisalar bo'lib, ular natijasida insonning va jamiyatning salohiyati o'rtasida dialektik bog'liqlik yuzaga keladi.

So'nggi yillarda inson salohiyati, inson kapitali masalalari bilim, ta'lim tizimi sohalariga aloqadorlikda tahlil etilayotganini alohida ta'kidlash zarur. «XX asrning 20-yillarida Amerika Qo'shma Shtatlarida yuzaga kelgan teylorizmga qarshi fikrlar asosida 50-60-yillarda G'arbda ilmiy-texnika inqilobi kuchayishi bilan «inson kapitali» nazariyasi paydo bo'ldi va ko'plab faylasuf olimlar bu nazariya bilan shug'ullana boshladi. Bu nazariya amerikalik olimlar G.Bekker, B.Veysbrod, D.Minser, G.Xansen,

T.Shuls asarlarida ilgari surildi. Yangi ilmiy nazariya tarafdorlari zamonaviy ishchi kuchining shakllanishida kasbiy tayyorgarlik, ilm-fan, ta'limning roliga alohida e'tibor bera boshladilar va bu sohalarga sarflanadigan sarmoyalar kelajakda katta foyda keltirishini isbotlay boshladilar»¹. Yuqorida fikrlari keltirilgan olimlarning yondashuvi asosida inson kapitalining bevosita yuksalishiga imkon yaratuvchi ijtimoiy soha sifatida ta'lim tizimini alohida qayd etish zarur. Bu borada ta'lim tizimi tarixiy taraqqiyotning barcha davrlarida muhim ahamiyat kasb etib kelgan. Ta'lim tizimida inson faoliyatiga tegishli bo'lgan alohida vazifalar, ya'ni bilim olish, kasbga tayyorgarlik hamda kasbga yo'nalganlik jarayonlari amalga oshadi. Mazkur jarayonlar inson kapitalini oshirish asosida uning salohiyatini yuksaltirishning imkoniyatlari bo'lib xizmat qiladi.

Inson salohiyati zamonaviy ilmiy-falsafiy muammolarning biriga aylandi. Fan va texnologiyaning beqiyos rivojlanishi inson salohiyatini o'rganish, mazkur muammoga yangicha yondashuvlar zarurligini yana bir karra qayd etmoqda. O'tgan asrning deyarli 80-yillarigacha inson salohiyati kam o'rganilgan soha bo'lgan. Lekin shunga qaramasdan bu ijtimoiy hodisa falsafa, antropologiya sohasida insonga tegishli boshqa masalalarga bog'liq tarzda tadqiq etilgan.

Inson salohiyatiga deterministik yondashuv asosida mazkur hodisani boshqa antropologik mohiyatga ega bo'lgan hodisalarga aloqadorlik kontekstida tahlil etish maqsadga muvofiq. Dialektika nuqtai nazaridan borliqdagi har qanday hodisalar va jarayonlar doimo harakatda, rivojlanishda amalga oshuvini, inson salohiyati ham ana shunday qonuniyat doirasida mavjud bo'lishini nazarda tutsak, uning taraqqiyotini bir qator ijtimoiy

¹ Ахунов М.А. Инсон омили-ижтимоий-иқтисодий тараққиётнинг етакчи кучи ва бош мақсади // АДУ Илми хабарнома. 2016, -№ 4. –Б.51.

hodisalar belgilashini anglab olamiz. Ijtimoiy-falsafiy sohaga tegishli boshqa muammolarga nisbatan inson, shaxs muammosi o'zining murakkabligi bilan ajralib turadi. Tarix, jamiyat va insonga oid barcha fanlar insonni o'rganadi. Inson salohiyati muammosi ham bundan mustasno emas. Inson salohiyatini tadqiq qilish jarayonida turli yondashuvlar, nazariyalar va fikrlarning xilma-xilligi bu muammoning murakkabligini anglatadi va inson salohiyatini aynan falsafiy jihatdan o'rganishni bir oz qiyinlashtiradi. Inson salohiyatini o'rganuvchi nazariyalarning turli-tumanligi uning tendensiyalari, dinamikasi va taraqqiyot istiqbolini ifoda etadi.

Inson salohiyatini falsafiy o'rganish muammoni yuqori umumiylik darajasida tadqiq etishni anglatgan holda ob'ektni antropologikgina emas, balki gnoseologik, praksiologik hamda aksiologik nuqtai nazardan o'rganishni talab etadi. Bir qator olimlar inson salohiyati va inson malakasini o'zaro bog'liqlikda tadqiq etadilar. "Inson kapitali" intellektual hayot, inson salohiyati va malakasining majmuasi kabi turli sohalarning birlashmasiga asoslanadi. Intellektual hayot sohasiga fan, san'at, din, ta'lim kiradi. Inson salohiyati gnoseologik (bilish), yaratuvchilik (ijodiy), aksiologik (qadriyatli orientatsiya-yo'nalgan), kommunikativ va estetik kabi inson salohiyatining shakllarini o'z ichiga oladi. Ko'rinib turibdiki, muallif inson salohiyati masalasini inson kapitali bilan bog'liq holda tahlil etadi. Tahlil qisman praksiologik yondashuvga ham asoslanib, inson salohiyatini jamiyatning sohalariga mos va ularga bog'liq holda o'rganadi.

Inson kapitali va salohiyatining o'zaro aloqadorligi muammosini o'rgangan yana bir rossiyalik olim P.V.Lemanova inson kapitali inson salohiyatining asosini tashkil etishini va unga asoslanishini e'tirof etadi va inson salohiyatini quyidagicha

Inson salohiyati

ta'riflaydi: "Inson salohiyatini uning malakasini tashkil etuvchi elementlar: insonning o'z ishiga aqlini, energiyasini, pozitivligini, ishonchligini, sadoqatliligini, hayot qiyinchiliklarida ishonch bilan ishonchsizlikka qarshi tura olishini, bahslarda aniq pozitsiyaga ega bo'lishini, mehnat faoliyati amalga oshiriladigan siyosiy va iqtisodiy muhit sharoitlarini baholay olishini, insonning o'rganishga intilishini, qobiliyatini, tasavvurini, insonning ijodiy xarakterini, turli hayotiy muhitlarda ishga vijdonan munosabatini, bilimlarning borligini anglay olishi va ularni tartibga sola olishini, maqsad va vazifalarni qo'ya olishi, nostandart vaziyatlarda to'g'ri yo'nalishni topishi, yuzaga kelgan muammolarni ratsional hal eta olishini, yangi axborotni topish va uni boshqalar bilan bo'lishish, guruhda ishlay bilish va maqsadga yo'naltirilgan faoliyatni pozitiv yo'naltirishni, zamonaviy axloqiy qoidalarga bo'ysunish va boshqalar belgilaydi"¹. Olima inson salohiyatini murakkab tizim sifatida ta'riflab, mazkur tizim o'z ichiga o'nlab elementlarni birlashtirishini aytib o'tadi. P.V.Lemanovanning fikridan ko'rinib turibdiki, inson kapitali inson salohiyatining asosini tashkil etadi. Olimaning tahliliga e'tibor qaratsak, inson kapitali ham, salohiyati ham dastlab iqtisodiy hodisa sifatida namoyon bo'lgan. Asta-sekin bu hodisalar yanada ijtimoiy mohiyat kasb etib borayotganini ko'ramiz. Chunki inson o'zini dastlab asosan iqtisodiy sohada realizatsiya qilib salohiyatini yuzaga chiqargan bo'lsa-da, o'z evolyusiyasida iqtisodiygina emas, madaniy-ma'naviy, ilmiy, estetik, diniy va boshqa sohalarda ham faoliyat ko'rsatib borishi tabiiy. Bu jarayon jamiyat taraqqiyoti natijasida yangi yo'nalishlarning paydo bo'lishi bilan bog'liq bo'lib, inson salohiyatining yangi shakllarining yuzaga chiqishiga olib keladi.

¹ Леманова П.В., Социальная политика в управлении развитием человеческого капитала. Учебное пособие. – Москва, 2016. С.14.

Insonning ijtimoiy munosabatlarda ishtirokining sur'atlari oshib borgani sari uning salohiyatini yuzaga chiqarish hamda yuksaltirish uchun yangi imkoniyatlar paydo bo'lishi tabiiy. Bunday munosabatlar inson – inson, inson – jamiyat, inson – iqtisod, inson – ilm-fan, inson – ma'naviyat va h.k. munosabatlar tizimida shakllanadi va davr ruhidan kelib chiqib amalga oshib boradi.

Yana bir rossiyalik tadqiqotchi A.I.Dobrinin inson kapitaliga bag'ishlangan maqolasida "... insonning investitsiya natijasida shakllangan va inson tomonidan yig'ilgan o'z sog'lig'i, bilimi, ko'nikmalari, qobiliyati, motivatsiyasining ma'lum zaxirasi bo'lib, u inson salohiyatining taraqqiyotiga ta'sir etadi"¹, deb yozadi. Insonga investitsiya kiritilishi to'g'risida gap borganda, faqat iqtisodiy investitsiya nazarda tutilmaydi. Jamiyat, millat, yakka inson uchun kiritiladigan investitsiyalar madaniy-ma'naviy, ilmiy-texnologik va boshqalari ijtimoiy ahamiyat kasb etadi. Bu investitsiyalar insonning sog'ligi, turmush darajasining yaxshilanishi, sog'ligining tiklanishi, talab darajasida raqobatbardosh bilim va ta'lim olishi, kasbiy yo'naltirilishi, milliy tarixiy, ma'naviy va madaniy boyliklar va qadriyatlarni o'zlashtirish, tegishli sohalarda o'z malakasi va tajribasini oshirishga qaratiladi. Shu bilan birga hozirgi innovatsion rivojlanish davrida jamiyatda, ayniqsa, yoshlarda innovatsion tafakkurni shakllantirish, uni innovatsion faoliyatni rivojlantirish va kengaytirishga, mamlakatimizning strategik maqsadlariga yo'naltirish va boshqa progressiv taraqqiyotga xizmat qiluvchi sohalar va yo'nalishlarga qaratilgan har qanday moddiy va ma'naviy investitsiya nazarda tutiladi.

¹ Евразийский международный научно-аналитический журнал, Проблемы современной экономики, № 3 (43), 2012, <http://www.m-economy.ru/art.php?nArtId=4219> Мурожаат этилган сана: 14.04.2021.

Inson kapitali va inson salohiyatining rivojlanishi hamda ortib borishi muammolarini o'rganish shuni ko'rsatadiki, jamiyatda inson taraqqiyoti uchun imkoniyatlar kengayib borgani sari inson kapitalini boshqarish muammosi yuzaga keladi. Chunki millat va jamiyat taraqqiyotining rivojlanishi ko'p jihatdan jamiyat va uning a'zolarida mavjud bo'lgan kapitalni to'g'ri boshqarish va to'g'ri yo'naltirishni talab etadi.

Rossiyalik olim S.A.Kurganskiy "inson kapitali"ni iqtisodiy nuqtai nazardan, iqtisodiy kategoriya sifatida talqin etadi. Olim tomonidan amalga oshirilgan tadqiqotlarda inson kapitali muammosi jamiyat iqtisodiy taraqqiyotining muhim jihatini belgilab berishi va unga investitsiyalarning kiritilishi iqtisodiy taraqqiyot rivojiga ijobiy ta'sir etishini belgilab beradi, degan fikrlar aks etgan. Uning fikricha, "inson kapitali" tushunchasi investitsiyalar natijasida shakllangan hamda individ tomonidan yig'ilgan bilim, ko'nikmalar va boshqa sifatlarning zaxirasi bo'lib, ulardan maqsadli foydalanish yangi narx va foydalar oqimini olib keladi"¹. Ko'rinib turibdiki, yuqorida keltirilgan fikrlar orqali inson kapitalini jamiyatning iqtisodiy taraqqiyotiga xizmat qiluvchi zaxira sifatida ta'riflash o'ziga xos yondashuv bo'lib, u inson kapitali jamiyatning kelajagi uchun ham xizmat qilishini nazarda tutadi.

Kurganskiyning fikricha, "...insonning qobiliyati, xususiyatlari, bilimlari, ko'nikmalari va boshqalarni kapitalning o'ziga xos shakli sifatida qarash mumkin, chunki ular:

- to'planib (ko'payib) borish xususiyatiga ega bo'lib, ma'lum zaxirani tashkil etadi;

¹ Курганский С. А. Структура человеческого капитала и его оценка на макроуровне // Известия Байкальского государственного университета. – 2011. – №. 6. – С. 15-22. <https://cyberleninka.ru/article/n/struktura-chelovecheskogo-kapitala-i-ego-otsenka-na-makrourovne> Мурожаат этилган сана: 15.04.2021.

- uning tashuvchisiga kelajakda kundalik iste'molning ma'lum qismidan voz kechish hisobiga yuqori foyda olish imkonini beradi;

- jamiyat uchun to'g'ridan-to'g'ri foyda olish qo'shimcha mahsulotning o'sishi bilan bog'liq;

- inson kapitali shakllanishi davomida individdan ham, jamiyatdan ham katta investitsiyalarni talab etadi;

- har bir individning shaxsiy yutug'i (mulki), boyligi hisoblanadi. Tadqiqotchi inson kapitalini insonning shaxsiy mulki sifatida qaraydi. Lekin shu bilan birga har qanday shakldagi inson kapitali jamiyatning ijtimoiy boyligi sifatida ijtimoiy mohiyatga ega bo'lib, u o'ziga xos tizim sifatida namoyon bo'ladi¹.

Iqtisodiy jihatdan o'rganilgan holatda ham bu boradagi har qanday muammo, qismlardan, inson kapitali ham ijtimoiy muammo hisoblanishi ma'lum, chunki u inson va jamiyatning hayoti, uning mavjudligi masalalarining determinanti hisoblanadi.

Shunday qilib "kapital" tushunchasi ijtimoiy boylikning barcha elementlarini o'z ichiga oladi. Kapital ko'p qirrali iqtisodiy hodisa sifatida namoyon bo'ladi, turli shakllarni qabul qiladi, turlicha vazifalarni bajaradi, ya'ni bozor iqtisodiyotining "barcha sohalarni egallab boruvchi", tizim sifatidagi komponentiga aylanadi².

Ma'lumki, yakka inson yoki shaxs kapitalini o'z mohiyatidan kelib chiqib, guruh, jamiyat, millatga tegishli kapital bilan o'zaro

¹ Курганский С.А., Структура человеческого капитала и его оценка на макроуровне, Известия ИГЭА. 2011. № 6 (80).С.-15. <https://cyberleninka.ru/article/n/struktura-chelovecheskogo-kapitala-i-ego-otsenka-na-makrourovne> Мурожаат этилган сана: 15.04.2021.

² Курганский С.А., Структура человеческого капитала и его оценка на макроуровне, Известия ИГЭА. 2011. № 6 (80).С.-15. <https://cyberleninka.ru/article/n/struktura-chelovecheskogo-kapitala-i-ego-otsenka-na-makrourovne> Мурожаат этилган сана: 15.04.2021

aloqadorlikda o'rganish va ilmiy-falsafiy tahlil qilish to'g'ri, deb hisoblaymiz. Yakka inson u yashayotgan ijtimoiy muhit, uning ma'naviyati, qadriyatlari, madaniyati bilan identifikatsiyasi kontekstida qaralishini talab etadi, chunki mazkur kapital asosida insonning mohiyati, identifikatsiyaviy xususiyatlarni ifoda etadi. Jamiyatda yuz beradigan ijtimoiy hodisalar markazida inson turgani va ularda insonning salohiyati ishtirok etgani sababli, mazkur ijtimoiy hodisalar bir vaqtda mazkur salohiyat va uning elementlariga aloqador. Bunday dialektik aloqadorlik inson salohiyati tizimining ham muntazam ravishda taraqqiy etib, unda yangi elementlarning ham paydo bo'lishiga olib kelishi mumkin.

Inson kapitali uning taraqqiyotini, kelajakdagi ideallari, rejalarini belgilab berishi orqali jamiyat va millatning istiqboliga ham aloqador. Iqtisodchi olim M.A.Axunovning fikricha: "Shu ma'noda inson kapitali insonga kelajakda katta natijalar va foyda olish maqsadida sihat-salomatligi, ta'lim va tarbiya olishi, kasb-hunarga ega bo'lishi va ish bilan ta'minlanishi, qobiliyat va salohiyatini rivojlantirishi uchun sarflanadigan harajatlar – investitsiyalardir"¹.

Yuqorida qayd etilgan fikrlar bilan bir qatorda inson kapitali masalasida o'ziga xos yondashuvga ega bo'lgan tadqiqotchilarning ilmiy ishlarini tahlil qilish shuni ko'rsatadiki, endilikda ko'plab olimlar tomonidan inson kapitalining mohiyatini iqtisodiygina emas, ijtimoiy-madaniy, siyosiy nuqtai nazardan ham o'rganilmoqda. Jumladan, fransuz sotsiologi Per Burde (1930-2002) "kapital" tushunchasini qo'llash sohalarini kengaytirib, "ijtimoiy kapital", "siyosiy kapital", "madaniy kapital" tushunchalarini ilmiy muomalaga kiritgan. Uning

¹ Ахунов М.А. Инсон омили - ижтимоий иқтисодий тараққиётнинг етакчи кучи ва бош мақсади. // Илмий хабарнома. Андижон. АндДУ, 2016. № 1.-Б.52.

fikricha, bilimi, madaniyat darajasi, ijtimoiy tajribasi va ko'nikmalari ortib borgani sari individlar va guruhlar ma'lum ijtimoiy mavqega ega bo'lishga intilib boradilar. Ular manfaatlari va ehtiyojlarini yanada aniqroq ifoda etadilar, o'zlarini kuchliroq namoyon qilishga intiladilar. Ijtimoiy kapitallariga iqtisodiy kapitalini ham manfaatlari yo'lida qo'llab va undan foydalanib, yanada yuqoriroq mavqega va hokimiyatga ega bo'lishga intiladilar¹.

O'zbekistonda so'nggi yillarda inson kapitali bo'yicha anchagina ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda². Iqtisodchi olimlar, mualliflar guruhi tomonidan Toshkent davlat iqtisodiyot universitetida 2013 yil nashr etilgan "Inson taraqqiyoti" nomli darslik bu sohada katta yutuq bo'ldi. Mazkur darslikda inson taraqqiyoti konsepsiyasi va uning mezonlari mukammal yoritib berilgan³.

Inson kapitalini yuqorida keltirilgan qarashlar asosida quyidagicha ta'riflash mumkin: inson kapitali – shaxsning va jamiyatning tobora ortib boruvchi ehtiyojlarini qondirish orqali o'z salohiyatini yanada rivojlantirishga xizmat qiladigan qobiliyati, bilimi, ijtimoiy tajribasi va ko'nikmalari yig'indisini tashkil etadi. (2-rasm.)

¹ Bourdieu, P. Forms of Capital, in: Granovetter, M. and R.Swedberg (eds.). The Sociology of Economic Life. 2nd ed. Boulder: Westview Press, 2001. P. 98-102 <https://cyberleninka.ru/article/n/ponyatie-kapitala-formy-kapitalov-i-ih-konvertatsiya/pdf> Мурожаат этилган сана: 16.03.2022

² Салохўжаев Р. Инсон капитали тараққиёти замонавий иқтисодиётни ривожлантиришнинг ягона йўли <https://review.uz/oz/post/rauf-saloxojaev-inson-kapitali-taraqqiyoti-zamonaviy-iqtisodiyotni-rivojlantirishning-yagona-yoli>; Акрамова Ш. Г. Инсон капитали: моҳияти ва уни ўрганишга ёндашувлар. Иқтисод ва молия / Экономика и финансы № 10, 2011. Б.53-57. <https://cyberleninka.ru/article/n/inson-kapitali-mo-iyati-va-uni-rganishga-yondashuvlar>; Ташкенбаев У. Ўзбекистонда шахс ўз салоҳиятининг неча фоизидан фойдалана олиши ҳисоблаб чиқилди <https://kun.uz/news/2020/10/18/ozbekistonda-shaxs-oz-salohiyatining-necha-foizidan-foydalana-olishi-hisoblab-chiqildi> Мурожаат этилган сана: 10.01.2021

³ Инсон тараққиёти. Дарслик. И.ф.д., проф. Қ.Х. Абдурахмонов таҳрири остида . – Т.: Иқтисодиёт, 2013. – 542 б.



2-rasm. Inson kapitali

Inson resurslari inson salohiyatini tashkil etuvchi tizimning ikkinchi elementi hisoblanadi. Inson resurslarini o‘rganish jarayonida “inson kapitali”, “inson salohiyati”, “hayot sifati” kabi tushunchalarga duch kelamiz. Bu tushunchalar dastlab iqtisodiy fanlarning tushunchasi sifatida ijtimoiy-falsafiy fanlar doirasida tadqiq etiladigan muhim tushunchalariga aylandi.

“Inson resurslari” tushunchasi asosan o‘tgan asrning oxirida qo‘llanila boshlandi¹. “Inson resurslari” tushunchasi XX asr 70- yillarning oxiri va 80-yillarning boshida shaxsiy menejment yoki personalni boshqarish fani negizida yuzaga kela boshladi. Inson resurslari iqtisodiy - ijtimoiy hayot, iqtisodiy-ijtimoiy va madaniy-ma’naviy ishlab chiqarishning yuksalishiga qaratilgan va buni yuzaga chiqaruvchi moddiy va ma’naviy imkoniyatlarni anglatadi. Inson kapitali esa yuqorida qayd etilganidek, ana shu imkoniyatlar asosida kelib chiqadigan bilim, ko‘nikma, mahorat,

¹ Абдурахмонов Қ.Х., Холмўминов Ш.Р., Зокирова Н.Қ. Персонални бошқариш. Т.: “O‘QITUVCHI” 2008 . http://library.tuit.uz/skanir_knigi/book/personalni_boshqarish/1-2%20bob.htm Мурожаат этилган сана:17.03.2022.

malaka va boshqalardan iborat. Inson resurslariga imkoniyat nuqtai nazaridan qaralishi baʼzan uni mehnat resurslari sifatida tushunilishiga sabab boʻldi. Umuman resurslar faqat inson resurslari sifatida talqin etilmasligi lozim. Chunki tabiiy, moddiy, madaniy, maʼrifiy, texnik, axborot va boshqa resurslar ham mavjud. Ularning tuzilishi tobora yangilanib bormoqda. (3-rasm.)

Hozirgi kunda ilmiy-falsafiy adabiyotlarda “tabiiy resurslar”, “moddiy resurslar”, “madaniy resurslar”, “turizm resurslari” va h.k. tushunchalar ham keng qoʻllaniladi¹. Albatta, tabiat yoki er osti resurslari inson faoliyati asosida oʻzlashtirila boshlanganidan keyin inson resurslari sifatida talqin qilinishi mumkin. Ijtimoiy taraqqiyotda inson omilining roli ortib borgani sari inson resurslari ham jamiyat va inson faoliyatiga mos ravishda ortib va ijtimoiylashib boradi.



3-rasm. Inson resurslari

¹ Фалсафа қомусий луғат. Т.: Ўзбекистон фйласуфлари миллий жамияти нашриёти, Шарқ нашриёти. 2004. Б. 495. Назаров Қ. Жаҳон фалсафаси қомуси. II. О-Х Ўзбекистон фйласуфлари миллий жамияти, Маънавият нашриёти 2019. – Б. --.

Ma'lumki, inson resurslari hozirgi kunda inson omilini faollashtirish kontekstida inson salohiyati masalasiga bog'liq tarzda tahlil etilmoqda. Inson omilini faollashtirish, uning salohiyati, kapitali, resurslari kabi mazkur omilni rivojlantiruvchi, imkoniyatlarini yuzaga chiqaruvchi, faollashtiruvchi jihatlarni o'rganish bilan bog'liq vazifani keltirib chiqaradi.

Inson salohiyatini o'rganish borasida olib borilayotgan nazariy tadqiqotlar kengayib borib, "inson salohiyati" va "inson resurslari" tushunchalari ajratib tadqiq etila boshlandi. Ayrim olimlar inson salohiyatini imkoniyat kontekstida, inson resurslari masalasini salohiyatning manbasi sifatida talqin eta boshladilar. "Agar inson salohiyati – u yoki bu maqsadlarda insonning kuchidan va kasbiy malakasidan foydalanish uchun imkoniyat bo'lsa, inson resurslarini esa zaxira va imkoniyat sifatidagina emas, manba sifatida qarash mumkin"¹.

So'nggi yillarda O'zbekistonda chop etilgan falsafa lug'atlarida "inson resursi" atamasi alohida falsafiy kategoriya sifatida qaralmagan. Hozirgi kunda inson resursi atamasi asosan o'zbek iqtisodchi olimlari tomonidan keng o'rganilmoqda. Umumiy holda inson salohiyati inson kapitali va inson resurslarini o'z ichiga oladi.

Inson resurslari aslida insonga tegishli "boylik"larni to'plab berishga xizmat qilishi zarur. Ular insonning intellektual, ijodiy, tadbirkorlik, mehnat va boshqa qobiliyati, axloqiy xususiyatlarini anglatadi. Albatta, ulardan to'g'ri foydalanish, rivojlantirish hamda ularni to'g'ri yo'naltirish mazkur sohalarning rivojlanishiga yo'naltirilgan. Inson resursida insonning doimiy o'z ustida intellektual ishlashi asosida rivojlanish qobiliyati, biologik imkoniyatlari, sog'ligi kabilar turadi.

¹ Акьюлов Р. И. Человеческие ресурсы как комплексная экономическая категория // Журнал экономической теории. 2009. № 4. С.11.

Jamiyatda yuqori salohiyatli insonlar ulkan ehtiyojga aylandi. Chunki jamiyatlar o'rtasida barcha sohalarda raqobatning kuchayib borishi, texnologik innovatsiyalarning kirib kelishi va tez fursatlar bilan rivojlanib borayotganligi jamiyat va inson oldiga ulkan va murakkab vazifalarni qo'ymoqda. Jamiyat va jamiyat sub'ektlarining iqtisodiy o'zgarishlar va taraqqiyot chaqiriqlariga zudlik bilan javob bera olish qobiliyati muhim ahamiyatga ega masala bo'lib qolmoqda. Bu jarayonlarga bog'liq ravishda inson ehtiyojlarining o'sib borishi hamda ijtimoiy sub'ektlar manfaatlarining tobora ortib borayotganligi umuman inson salohiyati oldiga qator talablar qo'ymoqda¹. Mazkur talablarga inson salohiyatining mos kelishi aqliy intellektual xususiyatlari, malakasi, qobiliyati, kreativligi, imkoniyatlarini yuzaga chiqara olishi, kasbiy sifatleri va h.k. lari bilan bog'liq. Aytish zarurki, inson va jamiyatning muntazam o'sib borayotgan ehtiyojlarini qondirish uchun inson salohiyatining tegishli davrga mos ravishda taraqqiyoti kamlik qiladi. Ayniqsa, hozirgi kunda O'zbekistonda amalga oshirilayotgan islohotlar, modernizatsiya jarayonlari sharoitida insonga qo'yilayotgan talablarning ortib borayotganligi aniq. Shunga ko'ra o'rganilayotgan muammo yanada dolzarblik kasb etib bormoqda.

Falsafiy nuqtai nazardan inson faoliyatining samaradorligi, rivojlanishi va aloqadorligiga uning resurslari taraqqiyotiga hamda yangilanib borishiga qaratilgan bo'lib, u insonlarning jismoniy, aqliy-intellektual qobiliyati, madaniy-ma'naviy dunyoqarashi, mehnat layoqatini anglatadi. Muammoni o'rganish shuni ko'rsatadiki, bir qator falsafiy asarlarda "inson salohiyati" va "inson resurslari" tushunchalari farq qilmasligi ko'zga

¹См.: Куркина М.П., Зотов В.В. Человеческий потенциал как категория социального управления регионом. Бизнесинформ. Москва, 2012. № 7.-С.53.

tashlanadi. Fikrimizcha, inson resurslari insonning imkoniyatlari nuqtai nazaridan tushunilishi maqsadga muvofiq bo'lib, ular inson qobiliyatining asosida turadi.

Jamiyat va davlatning, millat va aholining etnik xususiyatlariga inson resurslarining mohiyatiga ta'sir etadi. Inson resurslarining jihatlari etnik va milliy qadriyatlar, milliy tarixiy o'ziga xoslik, regional va hududiy jihatlari, o'zaro iqtisodiy-ijtimoiy munosabatlar milliy va diniy ong qanday tarixiy sivilizatsiyalarga tegishli ekanligi kabi hodisalar bilan belgilanadi.

Ko'rinib turibdiki, inson salohiyati uning resurslarisiz shakllanmaydi. Inson resurslari inson salohiyati tizimining muhim elementi sifatida inson salohiyatining yuksalgan darajasini belgilab beradi. "Inson salohiyati – alohida shaxs, jamiyat va davlatning ma'lum vazifalarni hal etish va maqsadlarga etish sohasida inson resurslaridan foydalanish borasidagi imkoniyatlarining majmuasi"¹ sifatida qaralishi mumkin ekan.

Hozirgi kunda iqtisodchilar, sotsiologlar, psixologlar tomonidan biznesni boshqaruv, xodimlarni boshqaruv, vaqtni boshqaruv, korporativ madaniyat, inson resurslarini boshqaruv singari yo'nalishlarda turli nazariyalar taklif etilgan. Turli kompaniyalar albatta, o'z yuksalishi yo'lida olimlar tomonidan taklif etiladigan turli nazariyalardan foydalanishga harakat qiladilar. Ilg'or kompaniyalar taraqqiy etish uchun inson resurslarini yuzaga chiqarish, ulardan samarali foydalanish, ularni to'g'ri yo'naltirish va inson resurslarini muntazam taraqqiy ettirish uchun bu sohaga investitsiyalar kiritishdan boshqa yo'l yo'q. Hozirgi davrning muhim va dolzarb

¹ К.К. Колин. Человеческий потенциал и инновационная экономика.// Вестник Российской Академии естественных наук. 2003, № 4. С.3.

muammolaridan biri – inson resurslarini taraqqiy ettirish uchun unga muntazam investitsiya kiritib borish zarururati. Aks holda, iqtisodiy-ijtimoiy sub'ektlar zamonaviy talab asosida taraqqiy etmaydi va raqobatbardosh bo'la olmaydi.

Inson resurslari ham albatta, ijtimoiy hodisa sifatida ulardan foydalanish, qo'llash va ularni muntazam takomillashtirib borish jamiyatning demokratlashib borishi, inson erkinliklarining kengayib borishi bilan bog'liq jihatlarga bog'liq. Chunki inson resurslaridan foydalanishgina emas, uni yuzaga chiqarish uchun imkoniyatlarning mavjudligi, sharoitning yaratilganligi muhim ahamiyat kasb etadi. So'nggi yillarda avj olayotgan ayrim salbiy hodisalar: ishsizlikning ortib borishi, tashqi va ichki migratsiya jarayonlari, jamiyat a'zolarining ayniqsa, yoshlarning dolzarb ehtiyojlarini jamiyat tomonidan o'z vaqtida qondirilmaslgi, yangi ish o'rinlarining yaratilmaslgi, ko'payib borayotgan korrupsiya, ta'lim sifatining pastligi kabi salbiy hodisalar inson resurslarining emirilib borishi va kamayishiga sabab bo'ladi. Quyida qayd etilgan fikrlar inson resurslarining ahamiyatini iqtisodiy taraqqiyotning asosiy omillaridan biri deb tan olinishini taqozo etadi:

- Davlat tomonidan inson resurslarini taraqqiyotning asosiy omillaridan biri sifatida tan olinishi, mazkur resurslardan to'g'ri foydalanish va raqobatbardoshlik xususiyatini oshirib borish;

- inson resurslarining to'g'ri taqsimlanishi va boshqarilishi;
- inson resurslarini muntazam takomillashtirib borish, ya'ni mutaxassislarning malakasini oshirish, imkoniyatlarini kengaytirish, o'qitish, xodimlarni tanlay bilish va ularni hududiy talab, ehtiyojlardan kelib chiqib to'g'ri taqsimlay olish kabi ko'nikmalarini muntazam innovatsiyalar hisobiga takomillashtirib borish;

- zamonaviy korporativ madaniyatni rivojlantirish.

Mazkur sohada ilmiy izlanishlar olib borgan xorij olimlari U.Trasey, J.B.Sey, Yan Bardvel, L.Xolden, S.Fisher, R.Dornbush, R.Shmalenzi, K.R.Makkonnell, S.L.Bryu va o'zbek olimlaridan Q.X.Abdurahmonov, Sh.R.Xolmo'minov, B.X.Umurzaqov, N.Q.Zokirova, N.T.Shoyusupova, S.E.Xolmurodov, G.Q.Abdurahmonova, Sh.G.Jabborova, Z.G'.Shakarovlarning fikricha, inson hozirgi kungacha o'z resurslaridan to'g'ri foydalanish va ularni to'g'ri yo'naltirish jihatdan iqtisodiy kompaniya uchun ko'proq foyda olish omili bo'lib xizmat qilgan bo'lsa, endilikda bu jarayonlar ijtimoiy xususiyat kasb eta borib, muhim ijtimoiy qadriyatlardan biriga aylanib qolmoqda.

Inson resurslarini boshqarishda ularga to'g'ri motivatsiya berish natijalarning samaradorligini to'g'ri baholash, rag'batlantirish va rejalashtirish, o'z faoliyatida javobgarlik hissini tarbiyalash kabilar inson resurslarini to'g'ri boshqarishning usullariga aylandi.

O'zbekistonda amalga oshayotgan innovatsion jarayonlar inson resurslarini to'g'ri aniqlash va boshqarishni, bu sohadagi jarayonlarni o'rganish va ularni tadqiq etish, mazkur faoliyatga etarlicha investitsiyalarni jalb etishni talab etadi. Chunki O'zbekistonning jahon hamjamiyatida munosib o'rin egallashi uning iqtisodiy taraqqiyotiga innovatsiyalarni qo'llashga va inson resurslaridan to'g'ri foydalana olishga bog'liq. Yuqoridagi fikrlarning nazariy asosini O'zbekiston Respublikasining Prezidenti Sh.Mirziyoev quyidagicha keltirib o'tgan: "Biz o'z oldimizga O'zbekistonni rivojlangan mamlakatga aylantirishni maqsad qilib qo'ygan ekanmiz, bunga faqat jadal islohotlar, ilm-ma'rifat va innovatsiya orqali erisha olamiz. Buning uchun, avvalo, islohotlarning amaliy natijadorligini oshirish, joylarda

yangi tashabbuslarni ilgari surishda aholimizning yanada faol, yanada tashabbuskor bo'lishiga erishmog'imiz lozim"¹.

Taraqqiyot sur'atlari o'ta tezlashib, jamiyatning barcha sohalariga innovatsiyalar kirib kelmoqda. Innovatsiyalarning kirib kelishi inson faoliyatining ham tubdan yangilanishni, innovatsion asoslarga qurilishi masalasini dolzarb muammoga aylantirdi.

Nazorat uchun savollar:

1. Inson salohiyati tizimini qanday elementlardan tashkil topgan?
2. "Inson kapitali" tushunchasi ta'rifi qanday?
3. Inson kapitali tarkibi qanday?
4. "Inson resurslari" tushunchasi ta'rifi qanday?
5. Inson resurslari tarkibini aytib bering.

¹ Мирзиёев Ш. Янги Ўзбекистон стратегияси. – Т.: O`zbekiston, 2021. – Б.23.

2-§. Inson salohiyatining shakllari

Tayanch tushunchalar: qobiliyat, ijtimoiy faoliyat, ehtiyoj, shaxs salohiyati, intellektual salohiyat, ma'naviy salohiyat, ma'naviy etuklik.

Qobiliyat insonning individual salohiyatini tashkil etadi va uning nafaqat xususiyati, tug'ma imkoniyati ham hisoblanadi. Qobiliyat o'ta individual xususiyat bo'lib, u ko'proq insonning biologik va psixologik o'ziga xos jihati bilan bog'liq. Qobiliyat insonni asosan ruhiy va intellektual imkoniyatlari nuqtai nazaridan tavsiflaydi. Qobiliyat ijtimoiy shart-sharoitlar doirasida, avvalo, oila hamda jamiyatda ijtimoiy munosabatlar asosida yanada rivojlanadi. Insonning bilimi va ko'nikmalari ortib borgani sari uning qobiliyati va salohiyati ham kengayib boradi. Bu jarayonda insonning amalga oshirayotgan ijtimoiy faoliyati, amaliy hayoti muhim hisoblanib, unda inson taraqqiyoti uchun ulkan imkoniyatlar mavjud. Zamon talablaridan kelib chiqqan holda yangicha faoliyat turlarining o'zgarib yoki ko'payib borishi bevosita insonning taraqqiyotiga, demak salohiyatiga ham ijobiy ta'sir etadi. "Bugungi kunda ko'pchilik olimlar inson salohiyatida uchta muhim komponentni: inson va etnik birikmalarning ehtiyojlari, individual va guruh qobiliyati, individ va etnik birikmalarning faol xatti-harakatlarga tayyorligi (axloqiy ko'nikmalar, moyillik)dan iborat deb hisoblaydilar. To'g'ri, tadqiqotchilar yuqorida sanab o'tilgan inson salohiyati komponentlari masalasida bitta fikrga kelmaganlar. Ayrim tadqiqotchilar inson salohiyatini ularning ehtiyojlari va qobiliyati tashkil etadi, deb hisoblaydi, boshqalar – insonning salohiyati ularning qobiliyati va tayyorligidan iborat, deb hisoblaydi. Lekin ko'pincha aynan qanday ehtiyojlar, qobiliyat va tayyorlik to'g'risida so'z borayotganini aniqlashtirmaydilar. Bu masalani

aniqlashtirmay turib, inson salohiyatini tahlil etish umumiy xarakter kasb etadi”¹.

Inson salohiyati uning jamiyatda qanday o‘ringa, mavqega ega bo‘lishi hamda uning ijtimoiy faoliyatiga bog‘liq munosabatlarini belgilab beradi. Insonga aloqador bo‘lgan turli ob‘ektiv va sub‘ektiv hodisalar dialektik tarzda sub‘ektlarning ijtimoiy faoliyatiga aloqador. Ijtimoiy faoliyat inson salohiyati shakllanishining asosi. U tarixiy xususiyatga ega. “O‘tmishda to‘plangan inson salohiyati uning genetik kodida aks etibgina qolmasdan, u moddiylashadi, madaniyat, siyosat, iqtisod va ilm-fanda ifoda etadi. Ikkinchidan, hozirgi kunni ifodalaydi. Bunday sifatda inson salohiyati insonda mavjud kuchni va uni qo‘llashni dolzarblashtiradi. Uchinchidan, inson salohiyati kelajakka yo‘nalgan bo‘lib, uning hozirgi kunda to‘planishi va realizatsiya qilinishi jarayonining xarakteri va xususiyatlari uning kelajak imkoniyatlarini belgilab beradi”².

Yuqorida aytib o‘tilganidek, jamiyat — insonlarning o‘zaro ijtimoiy aloqalari, bog‘lanishlari, munosabatlari natijasida yuz beradigan ijtimoiy faoliyatlari majmuidir. Ijtimoiy faoliyat esa jamiyat moddiy va ma‘naviy hayoti barcha jihatlarining qaror topishi, mavjudligi va rivojlanishining asosidir.

Ijtimoiy faoliyat deyilganda:

jamiyatni tashkil qiluvchi kishilarning moddiy va ma‘naviy ne‘matlarni yaratishga qaratilgan hatti-harakatlarini;

moddiy va ma‘naviy hayotni takror ishlab chiqarish;

jismoniy va ruhiy sog‘lom kishilarni tarbiyalash;

jamiyat va uning a‘zolarini barcha sohalarda salohiyatini yuksaltirish bo‘yicha olib boriladigan nazariy va amaliy ishlar;

¹ Иванов О.И. Человеческий потенциал: вопросы теории и методологии исследования <https://dspace.spbu.ru/bitstream/11701/1403/1/Ivanov.pdf> Мурожаат этилган сана: 13.01.2022

² Китайцева Е.А. Сущность понятия “человеческий потенциал”. <http://thsp.ru/issues/issue0609/060907.htm> Мурожаат этилган сана: 13.01.2022.

jamiyat va insonning tegishli sohalarda yangilik yaratishga intilishi nazarda tutiladi.

Ijtimoiy faoliyat jamiyat hayotining taraqqiyot omillaridan biri. Faoliyat jarayonida turli kishilar va turli ijtimoiy sub'ektlar o'rtasida moddiy va ma'naviy munosabatlar shakllanadi va ular muntazam kengayib boradi.

Ehtiyoj inson, uning faoliyatini shakllantiruvchi, sub'ektiv omilni ma'lum yo'nalishlarga yo'naltiruvchi hodisa. "Ijtimoiy faoliyatlar jamiyat a'zolarining shaxsiy va ijtimoiy ehtiyojlarini qondirish, ular manfaatlariga xizmat qilish maqsadida amalga oshiriladi. Ehtiyojlar va manfaatlar bunda ijtimoiy faoliyatlarni harakatga keltiruvchi kuch, jamiyatning moddiy va ma'naviy hayotining tayanchi bo'lib xizmat qiladi. Ularda jamiyat a'zolarining qiziqishlari, maqsadlari, rag'batlari, xohish va irodalari o'z ifodasini topadi. Bu ehtiyojlar va manfaatlar, o'z tabiatlariga ko'ra, moddiy yoki ma'naviy bo'lib, doimo jamiyat a'zolarining niyatlarida aks etib, ular anglanib olingach, kishilar ijtimoiy faoliyatlarining qonuniyatlari sifatida namoyon bo'ladi"¹.

Jamiyat taraqqiyotining prognozlari va orientatsiyalarini tahlil etish va belgilash inson salohiyatining o'sib borish darajasi, dinamik xususiyatlari, namoyon bo'lishi mumkin bo'lgan tendensiyalarini ham o'rganishni taqozo etadi. Jamiyatning kelgusi iqtisodiy-ijtimoiy o'zgarishlari, dinamikasini aniqlash, uning taraqqiyotida ma'lum davr uchun dolzarb hisoblangan ustuvor yo'nalish yoki sohani belgilash jarayonida albatta, inson salohiyat va uning elementlarini, ularning o'sib borish jarayonini tahlil etib borish zarur. Aytish mumkinki, jamiyat taraqqiyoti bu inson salohiyatining taraqqiyoti, sub'ektiv omilning faollashuvini anglatadi. Qayd etilgan jarayonda tarixiy davr ruhi va xususiyati

¹ Falsafa: Oliy o'quv yurtlari uchun O'quv qo'llanma / E.Y.Yusupov, S.Sh.Shermuhamedov, A.T.Ayupov va boshq. to'ldirilgan 2- nashri. — T.: „Oqituvchi“ NMI 2005.-B. 167.

inson salohiyatining yuzaga chiqishiga turlicha ta'sir etishi mumkin. Bunda jamiyatda demokratik jarayonlar taraqqiyoti, inson huquqlariga amal qilish masalalari ham katta ahamiyat kasb etadi.

Tarixiy nuqtai nazardan olib qaralganda, inson salohiyati barcha davrlarda ham jamiyat taraqqiyotining asosiy omillaridan biri bo'lgan. Davr xususiyatidan kelib chiqib, inson salohiyatini rivojlantirish va uni yuzaga chiqarish uchun sharoitlar turlicha bo'lgan. Hozirgi kunda O'zbekistonda amalga oshirilayotgan modernizatsiya jarayonlari inson salohiyatining rivojlanishi va inson kapitalining o'sishi uchun ulkan imkoniyatlar yaratadi. Modernizatsiya jarayonining natijalari va samaradorligi pirovardida sub'ektiv omilning salohiyati, kapitali va uning asosida tashkil topadigan ijtimoiy faoliyatiga bog'liq.

Jamiyat salohiyatini unda yashab faoliyat olib borayotgan sub'ektlar salohiyatining majmui tashkil etadi. Insonlar yashayotgan sharoitning bir xilligi yoki turlicha ekanligi (hatto bitta mamlakatlarning turli hududlari o'rtasida ham) jamiyat, davlat hududlarining hamda ularda yashayotgan aholining ham salohiyatida farqlar yuzaga kelishiga olib keladi. Lekin shunday bo'lsa-da, jamiyat salohiyati uning a'zolari salohiyatining shunchaki yig'indisidan iborat emas.

“Inson salohiyati” va “shaxs salohiyati” tushunchalari farq qilinadi. “Inson salohiyati” tushunchasi kengroq tushuncha bo'lib, odatda ko'proq jamiyatga va jamoaga nisbatan qo'llaniladi. “Shaxs salohiyati” tushunchasi insonni individual qobiliyati, ruhiy-fiziologik xususiyatlari nuqtai nazaridan tavsiflaydi. Albatta, jamiyat salohiyati tarixiy taraqqiyotning barcha bosqichlarida ham shaxs salohiyatiga asoslanadi. Jamiyat salohiyati uning a'zolari salohiyatining qandayligiga bog'liq. Jamiyat a'zolarining barcha sohalarida moddiy va ma'naviy

kamolotga erishib borishi, albatta, jamiyat taraqqiyotiga va uning salohiyatining yuksalib borishiga xizmat qiladi. Shu bilan birga shaxs salohiyati uning jamiyatda amalga oshirayotgan faoliyati natijasida taraqqiy etadi. Bu – dialektik jarayon qonuniylik xarakteriga ega.

Inson salohiyatini o'rganish jarayonida uning ehtiyojlari, qobiliyati va salohiyatining o'zaro mos kelishi masalasi ham muhim hisoblanadi. Ehtiyoj va salohiyat birdek inson faoliyatining yuzaga kelishi, yangi faoliyat turlarining shakllanishi, umuman, faoliyatning rivojlanishiga ta'sir etuvchi asosiy omillar ekanligi ma'lum. Jamiyat a'zolarining dolzarb bo'lgan faoliyat turlarini anglab etishi muhim ahamiyat kasb etadi. Inson faoliyati kengayib borgani sari uning zaxiradagi salohiyati va yashirin qobiliyati, ong osti imkoniyatlari ham ishga tushadi va yanada rivojlanadi.

Kezi kelganda shuni aytish kerakki, bugungi kunda jamiyatda etishtirib tayyorlanayotgan kadrlarning qanchalik dolzarb ekanligi, jamiyatda hozirgi kunda qanday kasb egalariga zarurat yuqori ekanligini tegishli tashkilotlar doimiy o'rganib, tahlil etib borishlar zarur. Kasbiy ta'lim, oliy ta'lim yo'nalishlari ana shunday ehtiyojlar va buyurtmalar asosida qabul kvotalarini belgilashlari lozim.

Har qanday jamiyatni o'ziga xos tavsiflash mumkin va bu tabiiy. Masalan, Yevropa jamiyati, Sharq jamiyati, O'zbekiston jamiyati kabilar. Jamiyatning erkinlik, demokratik darajasi uchun e'tirof etiladigan milliy va demokratik qadriyatlar inson salohiyatining yuksalishini ta'minlovchi ob'ektiv ijtimoiy shart-sharoitlar hisoblanadi. Lekin bunday ob'ektiv sharoitlar sub'ektiv imkoniyatlar bilan mos tushishi inson salohiyatining taraqqiyotiga ta'sir etuvchi muhim imkoniyatdir. Kishilarning dunyoqarashi, ijtimoiy ongi, fuqarolik pozitsiyasi kabilar

sub'ektiv xususiyatlar sifatida (ob'ektiv imkoniyatlar bilan bir qatorda) uning salohiyatiga ta'sir etuvchi va uni yo'naltiruvchi muhim elementlar yoki xususiyatlardir. Demokratik jamiyatlarda mavjud salohiyatni nafaqat yuksaltirish, balki saqlab qolish, o'sib borishini ta'minlash uchun bazalar yaratish, salohiyatni realizatsiya qilish uchun etarli moddiy va ma'naviy qo'llash, amaliy moddiy imkoniyatlar orqali qo'llash mexanizmlarini ishlab chiqish va to'g'ri yo'lga qo'yish kabi harakatlar, ayniqsa, O'zbekistonning bugungi yangilanayotgan davrida muhim ahamiyatga ega. Qayd etilgan vazifalarni amalga oshirish inson salohiyatini yuksaltirishgina emas, uni saqlab kelajak avlodlarga etkazib berishni ham ta'minlashi mumkin.

Inson salohiyatining yuzaga chiqishida, yuqorida ta'kidlab o'tilganidek, ijtimoiy shart-sharoitlar katta ta'sir ko'rsatadi. Inson yashayotgan va mehnat qilayotgan ijtimoiy muhit insonning ratsional dunyoqarashi, qobiliyati, o'z sohasida kreativligi, talanti, bir so'z bilan aytganda, ilmiy-intellektual salohiyatining realizatsiya bo'lishi, samaradorligi va kelgusi rivojiga ta'sir etadi. Inson salohiyatini yuzaga chiqarish uchun jamiyatda etarli sharoit bo'lmasa, inson kapitalining ortib borishi masalasiga jamiyat etarli e'tibor qaratmasa, bunday jamiyat taraqqiyotdan orqada qolishi aniq.

Inson taraqqiyoti o'z-o'zidan uning salohiyatining ham rivojlanishiga ta'sir etadi. Inson shunchaki rivojlanish vositasi sifatida emas, u o'z salohiyati asosida kreativ yaratuvchi va barcha sohalarda ijod sub'ekti sifatida qaralishi zarur. Bundan tashqari bugungi kun nuqtai nazaridan inson innovatsiya taraqqiyotining sub'ekti va asoschisi kontekstida o'rganilishi zarurati tobora muxim ahamiyat kasb etib bormoqda. Ma'lumki, jamiyat taraqqiyoti evolyusion xususiyatga ega bo'lib oddiylikdan murakkablikka tomon ob'ektiv ravishda kechadigan

jarayon. Bu jarayonda taraqqiyot bosqichlari o'zaro aloqador bo'lib, har bir bosqichda insoniyat tomonidan to'plangan tajriba, ijtimoiy-iqtisodiy hamda ma'naviy boyliklar avlodlar avlodga meros sifatida o'tib boradi. Avlodlarning bunday bog'liqligi asosida jamiyatning resursi, salohiyati saqlanib qoladi.

Har bir yangi avlod mazkur resurs va salohiyat asosida rivojlanadi, unga o'z hissasini qo'shadi. Har bir yangi bosqich ungacha bo'lgan resursga tayanib taraqqiy etadi, o'zini realizatsiya qilish orqali mavjud resursni yuksaltiradi va shu bilan birga o'z salohiyati asosida hissasini qo'shadi. Bu o'zaro bog'liq jarayonlar avlodlar salohiyati, imkoniyatlari va resurslarini yuksalib borishini ta'minlaydi. Natijada avlodlar o'zaro bog'liqligi asosidagi vorislik yuzaga keladi. Har bir avlod o'zining salohiyati va to'plagan barcha resurslarini kelajak avlodga etkazib berish borasida ma'lum imkoniyatlari mavjud. Bunday imkoniyatlar jamiyatning mavjudligini va yashovchanligini ta'minlab beradi. Har bir avlod ega bo'lgan salohiyat, resurslar, imkoniyatlar asosida yangiliklar kirib keladi, jamiyatning progressiv rivojiga ta'sir etuvchi innovatsiyalar yuzaga keladi. Bular asosida jamiyatning oddiydan murakkabga tomon uzluksiz evolyusiyasi va uning doimiy salohiyatigina emas, balki yashovchanligini hamda muntazam yangilanib borishini belgilaydi.

O'zbekistonda barcha sohalarda bo'layotgan modernizatsiya jarayonlari, innovatsiyalar taraqqiyoti va bu borada bir qator chora-tadbirlarning amalga oshirilishi jamiyat a'zolarining salohiyatini yuksaltirish uchun keng imkoniyatlar yaratmoqda. Inson salohiyati jamiyatda barqarorlik, ijtimoiy tartibni ta'minlab turishga katta ta'sir ko'rsatadi. Avlodlarga inson salohiyatining o'tishi, avlodlar o'rtasidagi bog'liqlik va qadriyatlar yashovchanligi inson salohiyatining ham saqlanib qolishiga ta'sir etadi. Jamiyatning demokratik taraqqiyoti va

inson huquqlariga amal qilinishi jamiyatda inson salohiyatining yuzaga chiqishiga bevosita ta'sir ko'rsatadi.

Jamiyatda sub'ektiv omil rolining ortib borishi tabiiy jarayon va ijtimoiy qonuniyat. Jamiyat taraqqiyotining o'zi sub'ektning rolini muntazam ravishda ortib borishini taqozo etadi. Jamiyat taraqqiyotining xususiyatlari inson salohiyatining rivoji, uning jamiyatdagi roli va realizatsiya qilinishi kabi jihatlarini belgilab beradi. "Inson salohiyati" tushunchasi qo'llanilganda, biz intuitiv tarzda kishilarning oldida turgan vazifalarni hal etishga yordam beruvchi inson, guruh, jamiyat xususiyati (xususiyatlari) haqida gap ketayotganligini anglaymiz"¹.

BMT ko'rsatmalari asosida dunyo mamlakatlarida har yili inson salohiyati, inson kapitalining indeksi aniqlanadi va bu borada mamlakatlar solishtiriladi. Bu jarayonda asosan uchta ko'rsatkich hisobga olinadi. Bular: inson hayotining kutilayotgan davomiyligi, ta'lim sifati va darajasi hamda yalpi ichki mahsulotning aholi jon boshiga to'g'ri kelishi.

Inson kapitali indeksini aniqlash bo'yicha 2020-yil ma'lumotlarining natijalariga ko'ra, O'zbekistonda inson o'z salohiyatini o'rtacha 62% qo'llay oladi. Taqqoslash uchun: MDH davlatlari bo'yicha: Belarus – 70%, RF-68 % va Qozog'iston 63 % ni tashkil etadi. Bu jarayonda inson kapitali indeksining uchta asosiy komponentlari hisobga olinadi: omon qolish darajasi (tug'ilgan bolaning 5 yoshgacha yashash ehtimoli), ta'lim davomiyligi va sifati va salomatlik (maktab bitiruvchilarini mehnat bozoriga mehnatga yaroqli sog'lom inson sifatida chiqishi)². Inson kapitalini baholash o'tgan asrning 90-yillaridan

¹ Иванов О.И. Человеческий потенциал (формирование, развитие, использование) монография Санкт-Петербург 2013. С. 5.

² **Ташкенбаев У.**, Ўзбекистонда шахс ўз салоҳиятининг неча фоизидан фойдалана олиши ҳисоблаб чиқилди <https://kun.uz/news/2020/10/18/ozbekistonda-shaxs-oz-salohiyatining-necha-foizidan-foydalana-olishi-hisoblab-chiqildi> Мурожаат этилган сана 18.08.2021.

boshlangan bo'lib, keyinchalik uni aniqlash mexanizmlari takomillashtirib borilgan. Inson kapitali reytingi ilk marta 2018-yilda Jahon banki tomonidan e'lon qilingan.

Inson salohiyati bo'yicha fundamental ilmiy asarlar yaratgan rossiyalik olim O.I.Ivanov yuqorida ko'rsatilgan ko'rsatkichlar asosida inson salohiyatini o'rganish bu borada to'la va aniq ma'lumot bermaydi, deb hisoblaydi. Qayd etilgan iqtisodiy ko'rsatkichlar insonni va uning salohiyatini tavsiflay olmaydi, faqat unga tegishli bo'lgan iqtisodiy sharoitni qayd etadi xolos. Jamiyat va inson salohiyatini ajratib ko'rsatish kerak, inson salohiyati jamiyat salohiyatining bir qismini tashkil etadi, madaniyat, ta'lim tizimi, turli madaniy-ma'naviy mahsulotlar inson faoliyatining natijasi¹. Albatta, yakka inson salohiyati jamiyat salohiyatining elementi, u jamiyat salohiyati asosida shakllanadi, lekin inson va jamiyat salohiyatini ajratib ko'rsatilishi unchalik to'g'ri emas, fikrimizcha.

Inson salohiyatini tadqiq etuvchi bir qator olimlarning fikrlari asosida aytish mumkinki, inson hayoti davomida o'z xususiyatlari, qobiliyati, talanti, bir so'z bilan aytganda, salohiyatini to'la realizatsiya qilmaydi, faqat qisman ishga soladi. Jamiyat taraqqiyoti uchun, albatta, inson salohiyatini to'la realizatsiya qilishi maqsadga muvofiq. Chunki jamiyatning har bir a'zosi o'zining salohiyatini to'la realizatsiya qila olishi u yashayotgan davr va jamiyatning taraqqiyot sur'atlarini tezlashtiradi. Mazkur fikrni ko'plab tadqiqotchi olimlar e'tirof etganlar. Mazkur fikr atrofida birlashgan tadqiqotchilarning intilishlari asosida XX asrning 60-70 yillarida AQShda ko'plab "o'sish markazlari" yuzaga keldi. Bu o'quv markazlarda insonning "hayotiy kuchi"ni to'la yuzaga chiqarish va faollashtirish, pozitiv ijodiy faoliyat bilan shug'ullanish bo'yicha mashg'ulotlar olib borildi.

¹ Иванов О.И. Человеческий потенциал (формирование, развитие, использование) монография Санкт-Петербург 2013. С. 6.

Inson salohiyati tashqi sharoit, tabiiy boyliklar va boshqa tabiiy va ijtimoiy imkoniyatlardan tashkil topmagan. Yuqorida ta'kidlanganidek, inson salohiyati – uning ichki xususiyatlari, ichki shaxsiy manbalari, ko'nikmalari, qobiliyati, talanti, intellektual-aqliy imkoniyatlari, kreativligi, faolligi kabilar bilan belgilanadi.

Inson salohiyatini to'la ro'yobga chiqarish masalasida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son "2022 — 2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni muhim tarixiy ahamiyatga ega. Farmonda inson salohiyati va uni amalga oshirish yuzasidan quyidagi maqsadlar Respublikada ustuvor vazifa sifatida belgilangan:

- turizm salohiyatini oshirish (ichki turizm, ekoturizm, xorijiy turizm bozorlarida mamlakat turizm salohiyatini targ'ib qilish);

- yozgi va qishki sport turlarini rivojlantirish. Jismoniy tarbiya va sport bilan muntazam shug'ullanadigan fuqarolarning, o'quvchi va talabalarning umumiy sonini oshirish;

- xorijdagi vatandoshlarning salohiyatini O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishga jalb etish va ularni rag'batlantirish choralarini ko'rish;

- mamlakatimiz xavfsizligi va mudofaa salohiyatini kuchaytirish, ochiq, pragmatik va faol tashqi siyosat olib borish;

- Respublikaning eksport salohiyatini oshirish;

- kadrlar salohiyatini oshirish¹.

Jamiyatga tegishli salohiyat to'g'risida fikr yuritilganda, ijtimoiy hayot sohalarini hisobga olgan holda salohiyatning shartli ravishda iqtisodiy, madaniy-ma'naviy, siyosiy, harbiy,

¹ <https://lex.uz/uz/docs/5841063> (Конунчилик маълумотлари миллий базаси, 29.01.2022 й., 06/22/60/0082-сон) Мурожаат этилган сана: 14.03.2022

Inson salohiyati

moliyaviy, ilmiy, ta'lim, ekologik turlarini ko'rsatish maqsadga muvofiq bo'ladi. Shu bilan birga tan olish zarurki, salohiyatning qaysi turi bo'yicha so'z yuritilmasin, u inson faoliyatidan kelib chiqib, faoliyatning samarasi va natijasi sifatida e'tirof etilishi lozim.

Tadqiqotchi F.Z.Xoshimovning fikricha, "Intellektual salohiyat ikki tarkibiy qismga ega: amalga oshirilgan va amalga oshirilmagan. Amalga oshirilgan intellektual salohiyat to'g'risida gapirilganda, biz hozirgi vaqtda xodimning mehnat faoliyati jarayonida foydalaniladigan imkoniyatlarining bir qismini nazarda tutamiz, masalan, uning ma'lumoti, bilimi, kasbiy malakasi va h.k. Amalga oshirilmagan salohiyat (rivojlanish salohiyati) optimal sharoitlarni hisobga olgan holda, qator omillar ta'sirida yuzaga chiqadi"¹.

O'zbekistonda demokratik islohotlar jarayoni jadal sur'atlar bilan amalga oshmoqda. Islohotlarning samarali bo'lishida faqat davlat rahbari va davlatning tashabbusi, qabul qilingan farmonlar va qarorlarning o'zi kamlik qiladi. Bugungi modernizatsiya va innovatsiyalar davrida jamiyat a'zolarining faolligi, mehnatga munosabati, kasb mahorati, kreativligi, tashabbuskorligi, innovatsiyalarga intilishi, ma'naviy va intellektuallik darajasi kabi xususiyatlarning inson faoliyatida aks etishi mamlakat taraqqiyotini belgilab beruvchi omillardan hisoblanadi.

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan iqtisodiy-ijtimoiy o'zgarishlarning natijalari shaxs omiliga bog'liq. Shaxs omili jamiyatda bo'lib o'tayotgan jarayonlarning markazida bo'ladi.

¹Xoshimov Ф., Шамсиева Ю. Интеллектуал салоҳият ижтимоий-иқтисодий категория сифатида. Иқтисод ва молия / Экономика и финансы 2019, 12 (132) <https://cyberleninka.ru/article/n/intellektual-salo-iyat-izhtimoiy-i-tisodiy-kategoriya-sifatida> Мурожаат этилган сана: 11.02.2021

Shaxs omili orqali jamiyat taraqqiy etgan. Shaxs yangilanish jarayonining harakatlantiruvchi omilidir. “Fuqarolik jamiyati rivojida iqtisodiy omilning o‘zi kamlik qiladi, albatta. Bu sohadagi yana bir zarurat - inson omilidir. Oliy jamiyat qurish uchun inson, eng avvalo, ehtiyojlarini chuqur anglamog‘i va ularni jamiyatda erkin ro‘yobga chiqarish masalasini egallamog‘i lozim. Zero, bunday jamiyat inson ehtiyojining barcha davrlardagidan ortishi va ularni ro‘yobga chiqarishga “chanqoq”lik ham behad kuchayishiga asoslanadi. Albatta, bunda sub’ektiv omil bilan birga ob’ektiv omil, ya’ni inson ehtiyojlari qondirilishi uchun imkoniyat yaratish ham nihoyatda muhim”¹.

Modernizatsiya va yangilanish jarayonida jamiyat oldida turgan muammolardan biri bu inson omilining o‘zini, mavjud salohiyatini har tomonlama namoyon eta olishi uchun shart-sharoitlar va imkoniyatlar yaratishdan iborat. Bu erda shaxsning ongi, dunyoqarashi va ma’naviyati nuqtai nazaridan amalga oshirilayotgan islohotlarga munosabati, dolzarb muammolarni anglab etishi, jamiyat va shaxsiy ehtiyojlarini to‘g‘ri anglashi, mas’uliyatni seza olish qobiliyati kabi omillar jamiyatning kelajagi va progressiv taraqqiyotiga ta’sir etadi.

Demokratik islohotlarning amalga oshirilishi shaxs maqsadlarining ro‘yobga chiqishi va ehtiyojlarini qondirish uchun katta imkoniyatlar yaratdi. Bunday imkoniyatlar jamiyat a‘zolaridan zarur axloqiy, ilmiy-ma’naviy daraja va salohiyatga ega bo‘lishni talab etadi. Bular etarli darajada bilimga ega bo‘lish, professionalizm, ijtimoiy faollik, keng dunyoqarash, bir so‘z bilan aytganda, yuksak ma’naviyat uchun zamin va imkoniyat yaratuvchi asosiy omillardir.

Inson omili uning jamiyatdagi pozitsiyasi, tabiiy-ijtimoiy muhitga, unda bajarilayotgan ishlarga munosabatini ifoda etsa,

¹ Кулагин В.М., Лебедев М.М., Мельвиль А.Ю. Глобализация и развитие человека. // В кн. Глобализация: человеческое измерение. - Москва: РОССПЕН, 2002. - С.26-27.

salohiyati uning bu sohadagi faoliyatini amalga oshirishning sharti hisoblanadi.

Yuqorida qayd etilganidek salohiyat masalasi hozirda dolzarb mavzuga aylangani, u tadqiqotchilar tomonidan ko'p tilga olinishi bejiz emas. Turli tahdidlar kuchayib borayotgan bugungi kunda jamiyatning kelajagi inson pozitsiyasi, dunyoqarashi, qadriyatlar tanlovi, intellektuallik darajasi, professionalizmi, bilimi-salohiyatiga bog'liq. Jamiyatda inson salohiyatini aniqlash, uni yuzaga chiqarish va ishga solish uchun sharoit va imkoniyatlar yaratish muhim ahamiyat kasb etadi. O'zbekistonda jamiyatni tobora demokratlashtirib borish asosida fuqarolik jamiyatini barpo etish jarayonida faqat iqtisodiy yutuqlar va omillarning o'zi kamlik qiladi. Ular bilan bir qatorda mamlakatda yuqori bilimli, boshqalarga o'rnak bo'lishi mumkin bo'lgan ziyoli, intellektual kuchlarning faolligi, ijtimoiy pozitsiyasi, ma'naviyati ham ulkan ahamiyat kasb etishi mumkin.

O'zbekiston rahbari xalqimiz oldiga mamlakatimizni dunyoning rivojlangan davlatlari qatoriga qo'shilishini ta'minlaydigan muhim vazifani amalga oshirish vazifasini qo'ydi. "Taraqqiyotga erishish uchun raqamli bilimlar va zamonaviy axborot texnologiyalarini egallashimiz shart va zarur. Bu bizga rivojlanishning eng qisqa yo'lidan borish imkonini beradi. Chunki intellektual va madaniy salohiyatning qanday noyob boylik, nodir iste'dod egalarini tarbiyalab kamolga etkazishda hal qiluvchi ahamiyatga ega ekanini unutishga haqqimiz yo'q"¹.

Modernizatsiya jarayonlarini amalga oshirishda jamiyat a'zolarining intellektual va ma'naviy salohiyati muhim ahamiyatga ega. Inson salohiyatining asosida mavjud bo'lgan intellektual salohiyati va madaniy-ma'naviy salohiyati hozirgi tub islohotlar amalga oshirilayotgan davrda muhim ahamiyat

¹ Мирзиёев Ш. Янги Ўзбекистон стратегияси. – Т.: O'zbekiston, 2021. – Б.24.

kasb etib boradi. Shaxsning intellektual salohiyati uning ilmiy, ma'naviy, mafkuraviy salohiyatini tashkil etadi.

Inson salohiyatining muhim shakli-ma'naviy salohiyat bo'lib, u ma'naviy yangilanish jarayonining asosiy omillaridan biri hisoblanadi. U insonning axloqi, dunyoqarashi, ma'naviy qadriyatlari, ma'naviy tanlovi, hayotga faol munosabati asosida shakllangan hodisa bo'lib, u olib borayotgan faoliyatning samarasini ta'minlaydi. Albatta, ma'naviy salohiyat bevosita moddiy boylik yaratmaydi, lekin moddiy boylik yaratuvchi insonlarning ongi, aqli, ruhiyati, aksiologik orientatsiyasi, faolligi kabi jihatlariga ta'sir ko'rsatadi. "Inson salohiyatining markaziy komponenti uning ma'naviy taraqqiyot salohiyati hisoblanadi (ekologik, iqtisodiy va biologik salohiyati bilan bir qatorda). Bu salohiyat insonning boshqa salohiyatlari bilan uzviy bog'langan bo'lib, bu hodisani o'rganishda kompleks yondashuv talab etiladi. Aynan shu sababli ham umuman olganda, inson salohiyati ijtimoiy hayotning ma'lum turini tashkillashtirishda baholovchi va bashorat qiluvchi xususiyatlaridan biri vazifasini o'taydi"¹.

Modernizatsiya jarayonida insonning intellektual, ilmiy salohiyati bilan bir qatorda ma'naviy salohiyatining har qanday ko'rinishidan foydalanish zarur. O'rta Osiyo tarixida doim ham ma'naviy salohiyat shaxsning mohiyatini ifoda etgan. Yuksak axloq, qonun bilan mustahkamlangan erkinlik, bilimlilik, professionalizm, talant, javobgarlik, mas'uliyat, faollik kabi ma'naviy fazilatlar shaxs ma'naviy salohiyatini belgilovchi omillar bo'lib, jamiyat taraqqiyotini belgilab beradi. Chunki ma'naviyati yuqori, jamiyatda amalga oshayotgan jarayonlarga befarq bo'lmagan, faol hayotiy pozitsiyaga ega bo'lgan shaxs ijtimoiy hayotning boshqa sohalarida ham faoliyatini ma'naviy salohiyati asosida tashkil etadi.

¹ Калинина Т.В. Функционально-типологический анализ человеческого потенциала. Дисс. на соискание степени кандидата философских наук. Специальность: 09.00.11-Социальная философия. Нижний Новгород, 2007.-С. 12.

Ma'naviy salohiyat asosida ma'naviy etuklik shakllanadi. Ma'naviy etuklik insonda daxldorlik hissini shakllantirish bilan bog'liq. Ma'naviy etuklik inson axloqining jamiyatda belgilangan axloqiy qoidalarga, axloqiy ongi jamiyat ijtimoiy ongining axloqiy shakliga mos tushishini anglatadi. Bu holat inson ma'naviyatining jamiyat talablari asosida shakllanishiga ta'sir etadi. Hozirgi davr talablaridan kelib chiqib, shaxsni milliy tarixiy qadriyatlar ruhida tarbiyalash bilan bir qatorda uning dunyoqarashida va faoliyatida progressiv zamonaviy qadriyatlar bilan milliy qadriyatlarning uyg'unlashuviga erishib borish orqali shaxsning faoliyatiga ijodiylik, tanqidiy fikrlash kabi innovatsion elementlarni singdirishga erishish zarur. Ayniqsa, bugungi tobora axborotning ahamiyati nihoyatda ortib, muhim zamonaviy qadriyatlardan biriga aylanib borayotgan axborot asri sharoitda yuqorida aytilgan vazifani bajarish yanada dolzarb bo'lib qolmoqda. Mamlakatimizda va xalqaro maydonda ro'y berayotgan turli voqea va hodisalarga nisbatan to'g'ri, ongli munosabatda bo'lish, Yangi O'zbekistonni barpo etish borasida vazifalarni to'g'ri anglab etish mamlakatimiz taraqqiyotiga xizmat qiluvchi sub'ektiv omilning rolini yanada oshiradi.

Inson omili natijadorligi uning salohiyatini to'g'ri yo'naltirishga bog'liq. Bu vazifani "Yoshlarga oid davlat dasturi"¹da belgilangan vazifalarni bajarish bilan qo'shib olib borish samarali bo'lishi mumkin. Buning uchun yoshlar orasidan talantli, bilimga chanqoq, intellektual va madaniy-ma'naviy salohiyatli faol etakchilarni izlab topib tarbiyalash, ularning atrofida islohotlarni va innovatsion jarayonlarni amalga oshiruvchi yadrosini shakllantirish zarur. Kreativlik, ya'ni yaratuvchilik, tashabbuskorlik, ijodiy yondashuvchanlik

¹ <https://lex.uz/docs/3026246> "Ёшларга оид давлат сиёсати тўғрисида" Ўзбекистон Республикасининг Қонуни, 14.09.2016 йилдаги ЎРҚ-406-сон Мурожаат этилган сана: 22.03.2022

xislatlariga ega bo'lgan zamonaviy milliy kadrlarning yangi avlodini tarbiyalab etishtirish va ular ilgari surayotgan innovatsion g'oyalar mamlakatimizni modernizatsiya qilishda muhim rol o'ynaydi. Kreativ fikrlaydigan milliy kadrlarni tarbiyalab etishtirish ta'lim-tarbiyaning muhim tarkibiy qismi bo'lmog'i lozim¹.

Yangilanish jarayonlari shaxsdan yangicha yondashuv, yangicha fikrlashni, shaxs ongi va tafakkurining ham yangilanishini taqozo etadi. Har qanday progressiv tashabbus ko'pchilik tomonidan qo'llab-quvvatlangandagina, u amaliyotga aylanadi. Bu sohada, ayniqsa, rahbarning o'rni va tutgan yo'li muhim bo'lib, uning xatti-harakatlari va faoliyati u rahbarlik qilayotgan jamoa yoki yo'nalishning ham faoliyatini belgilaydi. Rahbar dunyoqarashi, yuksak axloq, erkin va chuqur fikrlash, yangicha tafakkurga asoslanishi talab etiladi. "Bugun bizga mas'uliyatni dadil zimmasiga oladigan, bilimli, dunyoqarashi keng, madaniyatli, huquqiy ongi kuchli, qat'iyatli, bir so'z bilan aytganda, zamonaviy rahbarlar kerak. Barcha jabhalarda shiddatli raqobat kechayotgan hozirgi davrda rahbarlar zimmasidagi mas'uliyat va ularga qo'yilayotgan talablar kuchaymoqda. Turli bo'g'indagi rahbarlar nafaqat etakchilik qobiliyati, odob-axloqi va muomala madaniyati bilan ham o'rnak bo'lishi lozim. Zero, muomala odob-axloq madaniyatimizning muhim mezonlaridandir"².

O'zbekistonda yangilanish jarayonini harakatlantiruvchi kuchlarning yagona manfaatlar asosida konsolidatsiyasini ta'minlash, ularning jamiyat taraqqiyotiga xizmat qiladigan har

¹ Юнусов К. Мамлакатимизнинг модернизациялашуви жараёнида жамиятни креатив бошқаришни тадқиқ этиш муаммолари. // Илмий хабарнома.-Андижон. 2016.№3. –Б.40.

² Ўқиган ўқдан ўзар. С.ф.д., проф. Алишер Файзуллаев билан суҳбат.// Тафаккур. – Тошкент, 2018. № 1. –Б.8;13.

qanday tashabbuslari va xatti-harakatlarini moddiy va ma'naviy qo'llab-quvvatlanishi yuqori natija berishi mumkin. Bunday yondashuv jamiyatning ijtimoiy faoliyatga tortilmagan a'zolarini, uyushmagan yoshlarni, ishsizlarni ham etakchilar ortidan borishga ta'sir etadi. Bu nuqtai nazardan mahalliy milliy iqtisodiyotni rivojlantirish va yoshlarning mahalliy hududga bog'liqligi hissini kuchaytirish ularning tarixiy ongi bilan bir qatorda ma'naviyatini ham saqlab qolishga xizmat qiladi. Chunki ko'chmanchi madaniyat va ma'naviyatda tarixiy ong yo'q. Ko'chmanchilik hayot tarzi bilan kun kechiradiganlar ma'lum hududga, uning tabiati va qadriyatlariga tegishlilik va ularga sodiqlikni his qilmaydilar. Yuksak ma'naviyatli shaxsda o'z vataniga bog'liqlik va sadoqat, shu zaminda o'troqlik, o'zi istiqomat qilayotgan eriga befarq bo'lmay uning iqtisodiy, madaniy-ma'naviy, diniy-axloqiy maqomini o'zlashtiribgina qolmay, balki bu makonning rivojlanishida ham faol ishtirok etishni taqozo etadi.

Mamlakatimizda izchil, maqsadga yo'naltirilgan yoshlar siyosati olib borilmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan yoshlarni qo'llab-quvvatlashga qaratilgan farmon va qarorlarning qabul qilinishi asosida belgilangan vazifalarning bajarilishi mamlakatimizning yoshlar uchun jozibadorligini oshirish va ularni o'z faoliyatini asosan mahalliy hududlarda amalga oshirishlariga turtki bo'ladi. Bu borada "Yoshlarga oid davlat siyosati to'g'risida"gi Qonunning yangi tahrirda qabul qilinishi, "O'zbekiston yoshlar Ittifoqi"ning tashkil etilishi, "O'zbekiston yoshlari xalqaro assosatsiyasi"ning tuzilishi yoshlarning mamlakat taraqqiyoti yo'lidagi intilishlarini, faoliyatini to'g'ri yo'naltirishda, yoshlarning ulkan armiyasi faoliyatining to'g'ri tashkil etilishida muhim rol o'ynaydi. Bu masala davlatimiz rahbari tomonidan alohida qayd etildi: "Bu haqda so'z yuritganda, aytish lozimki, biz ulug' bobolarimizning

munosib davomchilari bo'ladigan etuk insonlarni tarbiyalash masalasiga, afsuski, etarlicha ahamiyat bermadik. Holbuki, intellektual va madaniy salohiyatning qanday noyob boylik ekani, nodir talant egalarini tarbiyalab kamolga etkazish hal qiluvchi ahamiyatga ega ekanini unutishga haqqimiz yo'q. Rivojlangan mamlakatlar bugungi yuksak taraqqiyot darajasiga aynan shuning hisobidan etgani - bu ham haqiqat"¹.

Yoshlar siyosati doirasida amalga oshiriladigan ishlar izchil reja asosida borishi va aniq maqsadga yo'naltirilishi borasida anchagina ishlar bajarilgani ma'lum. Bundan tashqari jamiyatda tashabbuskor, faol yoshlarning birlashib, o'zaro fikr va tajriba almashishlari, bir-birining faolligini qo'llab-quvvatlashi muhim. Yetakchi, tashabbuskorlik xislatlariga ega bo'lgan faol yoshlardan boshqalarning ham faoliyatini tashkil etuvchi yadrosini shakllantirish yaxshi samara berishi mumkin. Mazkur yadroning salohiyatini, yashirinib yotgan qobiliyatini yuzaga chiqarish va ishga solish uchun imkoniyatlar yaratib berish, bu sohadagi yoshlarning intilishlari va harakatlarini to'g'ri yo'naltirish ziyolilarning vazifasidir. Chunki yoshlarda endigina shakllanib kelayotgan faollikni to'g'ri yo'naltirish orqali jamiyatda faollik pozitsiyasi muhitini shakllantirish mumkin. Bunday muhit ko'pchilikning ongida aks etadigan befarqlik, o'zibo'larchilik xususiyatlarining kamayishiga olib keladi.

Taniqli huquqshunos A.Saidov yoshlarning kelajakda mas'uliyatli bo'lishi, huquqi va erkinligini himoya qila olishi masalasiga e'tibor qaratib: "Birorta davlat yosh avlodni ijtimoiy va kasbiy faoliyatga, davlat ishlarida ishtirok etish va ularni boshqarishga tayyorlashning aniq va chuqur o'ylangan dasturisiz taraqqiy eta olmaydi...Bugun yoshlarga o'zini realizatsiya qilishi, kasbiy va ijodiy o'sishi uchun imkoniyatlar yaratib berish zarur.

¹ Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Олий Мажлисга Мурожаатномаси. 22 декабрь, 2017 йил. - Тошкент: Ўзбекистон, НМИУ, 2018.-Б.79.

Yoshlarning jamiyat uchun to'la mas'uliyatni o'zlariga olishlari uchun quyidagi yo'nalishlarga e'tibor qaratish lozim: yoshlarning huquqi va erkinligini himoya qilish, ta'lim, bandlik, ijtimoiy himoya, ijtimoiy hayotda ishtirok etishi"¹. Bu borada ta'lim va bilimning mavqeini oshirish, milliy-ma'naviy va ilg'or global demokratik qadriyatlarni yoshlar tomonidan yaxshi o'zlashtirilishiga imkon yaratib berishni va ularni mustaqil fikrlashga o'rgatishni talab etadi.

Yoshlar qatlamida uyushmagan yoshlar alohida o'rin tutadi va ular ko'pchilikni tashkil etadi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti bu borada olib borilayotgan ishlar etarli emasligini uqtiradi: "Ammo ochiq tan olishimiz kerakki, bu borada amalga oshirilayotgan ishlarimiz hali etarli darajada emas. Shuning uchun biz yoshlarimiz, ayniqsa, uyushmagan yoshlar bilan ishlashga jiddiy e'tibor qaratishimiz zarur. Biz ular bilan ko'proq gaplashishimiz, qalbiga quloq solishimiz, muammolarini echish uchun amaliy ko'mak berishimiz, eng asosiysi, aziz yurtboshimiz Islom Abdug'anievich aytganlaridek, yoshlarga yo'lni keng ochib berishimiz kerak...tadbirkorlikka yo'l ochish - avvalo, yoshlarga keng yo'l ochib berishdir, desak, ayni haqiqat bo'ladi"².

Ma'naviy yangilanishning muhim omillaridan biri avval ta'kidlanganidek, iqtisodiy omildir. Bu omilning yuzaga chiqishi inson salohiyati bilan bog'liq. Ma'naviy yangilanishni amalga oshiruvchi sub'ektlarning ilmiy-ma'naviy salohiyati taraqqiyot talablari va jamiyat manfaatlarini asosida yangilanib turishi zarur.

Rossiyalik tadqiqotchi I.Z.Garafiev inson kapitalini taraqqiy ettirishni ijtimoiy taraqqiyotning shakllaridan biri, deb biladi.

¹ Саидов А. Конституционное регулирование прав в Узбекистане. // Ижтимоий фикр. Инсон Ҳуқуқлари. -Тошкент, 2014. № 4.-С.15.

² Мирзиёев Ш. Гўзал ва бетакрор ўлка. (Наманган вилояти сайловчилар вакиллари билан учрашувдаги нутқ). Мирзиёев Ш. Буюк келажакимизни мард ва олижаноб халқимиз билан бирга қураимиз. - Тошкент: Ўзбекистон, 2017.-Б.103.

Modernizatsiya va innovatsiya natijasida fan va yangi texnologiyalar taraqqiyoti, innovatsion muhitning yuzaga kelishi inson kapitalini shakllantirish va uning salohiyatini yuzaga chiqarishga katta imkoniyatlar yaratishini ta'kidlab, olim inson kapitalini unga muntazam ravishda yangi bilim va ko'nikmalar sifatida kiritilib boriladigan investitsiya sifatida tavsiflaydi. "Insonga kiritilgan maxsus bilimlar sifatidagi investitsiyalar bozor iqtisodiyoti tomonidan talab etiladigan innovatsion kapital hisoblanib, insonga hayotining shart-sharoitlarini yaxshilashga va imkoniyatlarini kengaytirib borishga imkon beradi. Bunday kapital doim dolzarb bo'lib, unga hamma vaqt ham ijtimoiy buyurtma mavjud bo'ladi. Insonning yuqori bilimi va ilmiy-ma'naviy ko'nikmalari inson kapitalining asosi bo'lib, bunday kapital jamiyat tomonidan yuqori baholanadi"¹. Gap shunchaki inson kapitali haqida emas, yuqori sifatga ega bo'lgan inson kapitali haqida bormoqda. Bunday kapital insonning oliy qadriyat sifatidagi mohiyatini ifoda etadi. Bu qadriyatni saqlab qolish, uni har tomonlama ko'paytirib borish va to'g'ri realizatsiya qilish insonga sarf etiladigan investitsiya hisoblanadi.

Davlat faoliyati jamiyat a'zolarining faoliyati asosida amalga oshadi. Sub'ektlar faoliyatining mohiyati, bu jarayonda ularning faolligi davlat tomonidan qo'yilgan vazifalarning bajarilishini belgilaydi. Davlat qabul qilgan qarorlar va boshqa ko'rsatmalarning muhim va dolzarbligini, jamiyat ehtiyojlariga mos tushishini sub'ektlar tomonidan to'g'ri anglab etilishi, qaysi sohada faoliyat ko'rsatmasin, sub'ektiv omilning faolligiga ta'sir etadi va ularda mas'uliyat va daxldorlik hissini shakllantiradi. Daxldorlik esa uning salohiyatini ishga solishiga turtki bo'ladi.

¹ Гарафиев И.З. Инновационный человеческий капитал в регионе (социологический анализ). Автореферат дисс. на соискание степени кандидата соц. наук. Пенза, 2013.- С.4.

Demak, kelajakda yoshlar ongida faol hayotiy pozitsiyani, shunchaki kundalik ehtiyojlarni emas, ahamiyatli, dolzarb xususiyatga ega bo'lgan anglangan ehtiyojlarni shakllantirish hamda ularni vatanimiz, millatimiz ehtiyojlariga uyg'unlashtirish ular hayotining yaxshilanishiga va bu orqali vatanimiz taraqqiyotiga xizmat qiladi.

O'zbekistonda demokratik islohotlarning, bozor munosabatlarini shakllantirish natijalarining samaradorligi kishilar tafakkurining o'zgarishi, unda jamiyat ehtiyojlari va davr ruhini aks ettiruvchi innovatsion qadriyatlarining aks etishi bilan ham bog'liq. "Tafakkur o'zgarishi jamiyat hayoti uchun muhim bo'lgan iqtisodiy sohani isloh qilish, mulkning hilma-xil shakllari tengligini ta'minlash va ularni rivojlantirish uchun keng imkoniyatlar yaratish, demokratik bozor islohotlarini amalga oshirish bilan chambarchas bog'liq jarayon hamdir"¹. Hozirda kadrlarning innovatsion salohiyatiga qo'yilayotgan talablarning bajarilishi ham ma'naviy yangilanishga xizmat qiladi.

G'arb mamlakatlarida demokratik jamiyatning shakllanishida "fuqarolarning mas'uliyatni his qilishi" jamiyatning mo'tadilligini ta'minlaydi. Bu narsa shunchaki mas'uliyatni his qilish sifatida emas, quyidagi gumanistik omillar orqali namoyon bo'lishi muhim:

- insoniy munosabatlarni saqlab qolish;
- ijtimoiy hamkorlikni ta'sis etish;
- barqaror rivojlanishni yo'lga qo'yish².

Qonun ustuvorligi, ijtimoiy mas'uliyat G'arb ma'naviyatida etakchi unsur hisoblanadi. G'arb mentaliteti ham shunga

¹ Назаров Қ. Дунёқараш ва тафаккуримизни ўзгартираётган маънавий мезонлар. // Ўзбекистон демократик ислохотлар ва фуқаролик жамиятини ривожлантириш йўлида. Республика илмий-амалий конференция материаллари тўплами.-Тошкент: Академия,2012.-Б.5.

² Йонас Г. Принцип ответственности.-Москва: Пионер, 2000.-С.80.

asoslangan. Bundan farq qilgan holda, Sharq ma'naviyatida axloq, din, jamoaviylikka asoslangan insoniy munosabatlar etakchi o'rinda turadi. Bu holat ma'naviy yangilanish jarayonida jamiyatda yuz berayotgan hodisalarga nisbatan insonda daxldorlik hissini shakllantirishga ta'sir etadi. Kishilarda daxldorlik hissini shakllantirish orqali ularning faolligini ta'minlash ma'naviy yangilanish jarayonida jamiyat oldida turgan vazifalarni amalga oshirishda muhim ahamiyatga ega.

Ma'naviy yangilanishning ob'ekti - faol va kreativ, ijodiy hamda innovatsion shaxsdir. "Jamiyatda yangi ijtimoiy buyurtma paydo bo'ldi: barcha topshiriqlarni so'zsiz bajaruvchilar o'rniga turli vaziyatlarda tez yo'l topa oladigan, yuzaga kelgan muammolarni ijodiy hal etib, tushunarli qaror qabul qilib, uning mas'uliyatini oladigan, ijodiy va moslashuvchan aqlga ega bo'lgan, yangilikni his etadigan, tanlov imkoniyatiga ega bo'lgan, ijtimoiy islohotlarda faol ishtirok etadigan kishilar talab etilmoqda"¹. Ko'rinib turibdiki, M.Yu.Molostovanning fikricha, bugungi tarbiya sur'atlari o'ta tezlashib borayotgan davrda yoshlardan yuksak ijtimoiy, kreativ moslashuvchanlik, intiluvchanlik kabi zarur xislatlarga ega bo'lishi talab etilmoqda. Amerikalik olim Aleks Inkeles bunday kishilarning xususiyatlari yangilanish jarayonlarini qabul qilayotgan va ularda o'zining o'zgarishlarga ochiqligi, dunyoqarashini o'zgartirishdan qo'rqmasligi, fikrlar xilma-xilligini tan olishi, hozirgi davrgagina emas, kelajakka yo'nalganligi, o'ziga qattiq ishonch va to'siqlarni engib o'tishga harakat qilish kabilardan iborat bo'ladi, deb ta'kidlaydi². Bu borada mamlakatimizda "Innovatsion faoliyat

¹ Молостова М.Ю. Теоретико-методологические основания понятия "инновационное поведение. // Известия Самарского научного центра Российской академии наук. Самара. Т. 12,2020, № 5.-С.132.

² Инкелес Алекс. <https://studopedia.Org/6-74263.html> Мурожаат этилган сана: 02.02.2022

to'g'risida"gi qonunning¹ qabul qilinishi jamiyat a'zolarining faolligini oshirishda muhim ahamiyatga ega bo'ldi. 6 bob, 39 ta moddadan iborat mazkur Qonunda quyidagilar innovatsion faoliyat sohasidagi davlat siyosatining asosiy yo'nalishlari etib belgilanmoqda:

- innovatsion rivojlantirishning huquqiy jihatdan tartibga solinishini ta'minlash;
- ustuvor yo'nalishlarni belgilash;
- zarur shart-sharoitlar va infratuzilmani yaratish;
- innovatsion faoliyat sub'ektlarini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash va rag'batlantirish;
- respublika, tarmoq va hududiy davlat dasturlarini ishlab chiqish hamda amalga oshirish;
- investitsiyalarni jalb etishga ko'maklashish;
- davlat-xususiy sheriklikni rivojlantirish;
- kadrlarni tayyorlashni, qayta tayyorlashni va ularning malakasini oshirishni tashkil etish;
- xalqaro hamkorlikni rivojlantirish².

Ma'lumki, ijtimoiy taraqqiyot innovatsiyalarning kirib kelishi asosida amalga oshib kelgan. Ijtimoiy – tarixiy evolyusiya innovatsiyalar bilan yonma-yon amalga oshib kelgan. Faqat innovatsiyalarning tarqalishi barcha tarixiy davrlarda bir xilda bo'lmagan. Hozirgi kunga kelib innovatsiyalar jamiyatning barcha qatlamlarida tez sur'atlar bilan tarqalayotganligining guvohi bo'lyapmiz.

Taraqqiyotning jadal sur'atlari hamda innovatsiyalarning ijtimoiy fenomenga aylanib borishi jamiyatning innovatsion xususiyat kasb etib borishini ham belgilamoqda. Bu sohada O'zbekiston va xorij olimlari tomonidan ko'plab nazariyalar

¹ <https://lex.uz/docs/4910391> Мурожаат этилган сана: 17.02.2022

² <https://strategy.uz/index.php?news=1023> Мурожаат этилган сана: 16.03.2022

yaratildi: innovatsion jamiyat, innovatsion shaxs, innovatsion faoliyat, innovatsion ong, kreativ guruhlar va boshqalar o'rganildi¹.

Rossiyalik tadqiqotchi O.V.Щупленковning fikricha, innovatsiyalar taraqqiyoti innovatsion shaxsni shakllantirishni taqozo etadi, uning yangi xususiyatlari yangicha qadriyatlar, madaniyat, axloq, ma'naviyatga asoslanadi. Lekin innovatsion shaxs an'anaviy axloq, madaniyat va ma'naviyatni ham saqlab qolishi zarur. Bu vazifani ta'lim tizimi bajaradi. Bunday shaxs taraqqiyot omili, uning "axborot yuki" ulkan, tinmay oshib boradi. U yangiliklar asosida inqiloblarni amalga oshiradi².

Iqtisodiy jihatdan kuchli davlatlarda insonning intellektual va ma'naviy salohiyati taraqqiyotning omiliga aylandi. Bunday davlatlarning izidan borib, intellektual va ma'naviy salohiyat omilining muhimligiga e'tibor qaratish va uning yuzaga chiqishini ta'minlash mamlakatimiz uchun strategik ahamiyatga ega. Chunki bu sohada raqobatning kuchayib borishi jamiyatdan shaxs salohiyatiga jiddiy yondashuvni talab etadi. "Intellektual sohada raqobat shiddatli tus olayotganiga guvohmiz. Bu borada rivojlangan va rivojlanish yo'liga kirgan davlatlar orasidagi farq esa er bilan osmoncha! Xo'sh biz-chi, ertaga jahoniy raqobatga dosh bera olamizmi? Yurtimizda ta'lim sifati xalqaro sifat standartlariga nechog'li uyg'un?...Bu kabi dolzarb savollarga aniq javobimiz bo'lishi, bu borada strategik dasturlar ishlab

¹ Гимуш Р.И.,Матмуродов Р.М. Инновацион менеджмент. - Тошкент, 2008; Мавлонова Р., Рахмонкулова Н. Бошланғич таълим педагогикаси. Инновация ва интеграция. - Тошкент: Voris-nashriyot, 2012; Бегматов А. Инновацион онг: моҳияти, функциялари ва шаклланиш шартлари.-Тошкент; Молостова М.Ю. Теоретико-методологические основания понятия "инновационное поведение". // Известия Самарского научного центра Российской академии наук. Самара. Т. 12,2020, № 5; Щупленков О.В.,Щупленков Н.О. Проблема формирования инновационной личности в современном обществе// Психология и психотехника.-2013.-№ 8. 2016. Карпова ЮА. Введение в социологию инноватики:. Учебное пособие. -СПб.: Питер, 2004. и др.

² Щупленков О. В. Проблема формирования инновационной личности в современном обществе. // Психология и психотехника.-Москва, 2013.-№ 8.-С.21.

chiqishimiz kerak. Mamlakat kelajagini aholining intellektual salohiyati belgilashini unutmashimiz lozim”¹.

Nazorat uchun savollar:

1. Qobiliyat tushunchasiga ta’rif bering.
2. Ijtimoiy faoliyat nima?
3. “Inson salohiyati” va “shaxs salohiyati” tushunchalari farqi qanday?
4. BMT tomonidan har yili e’lon qilinadigan inson salohiyati va inson kapitalining indeksi qanday?
5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son “2022 — 2026 yillarga mo’ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to’g’risida”gi Farmonida inson salohiyati va uni amalga oshirish yuzasidan qanday maqsadlar ustuvor vazifa sifatida belgilab berilgan?

¹ Ўқиган ўқдан ўзар. С.ф.д., проф. Алишер Файзуллаев билан суҳбат.// Тафаккур. - Тошкент, 2018. № 1.-Б.8;13.

III BOB. INSON SALOHİYATI VA FAOLIYATINING O‘ZARO DIALEKTIK ALOQADORLIGI

Mazkur bobda inson faoliyati va salohiyati o‘zaro bog‘liq hodisalar sifatida tadqiq etiladi. Inson faoliyati ma‘lum maqsadga asoslangan va natija olishga qaratilgan bo‘lib, bu jarayon salohiyat orqali namoyon bo‘ladi. Chunki har qanday faoliyat sub‘ektning salohiyati asosida amalga oshishi mumkin. Insonga aloqador bu ikki ijtimoiy-antropologik hodisa o‘zaro dialektik bog‘liq bo‘lib, ular bir-biriga ta‘siri orqali taraqqiy etadi. Inson faoliyati uning salohiyati orqali amalga oshsa, salohiyati ijtimoiy faoliyati natijasida yuzaga chiqadi, yuksaladi, jamiyat tomonidan saqlanib, kelajakka uzatiladi. Faoliyatning kengayib va taraqqiy etib borishiga aloqador holda salohiyatning ham yuksalib, samarador bo‘lib borishi amalga oshadi.

Inson salohiyati hamda faoliyati bir tomondan insonning ijtimoiy mohiyatini ifoda etuvchi bir-birini o‘zaro taqozo etuvchi, ob‘ektiv va ikkinchi tomondan, sub‘ektiv hodisalar hisoblanadi. Bu ikki hodisaning ijtimoiy taraqqiyoti jamiyat tomonidan belgilangan bo‘lib, ularning mavjudligi hamda yuksalib borishi ijtimoiy hayotga bo‘ysungan holda salohiyatning kelib chiqishi va yuksalib borishi shaxsga bog‘liq.

Salohiyat va faoliyatning tashuvchisi inson bo‘lsa-da, bu ikki ijtimoiy hodisaning yuzaga chiqishi, shakllanishi jamiyatda amalga oshadi. Jamiyatda shaxs o‘ziga o‘xshash boshqa shaxslar bilan o‘zaro iqtisodiy-ijtimoiy munosabatlarga kiradi. Qayd etilgan munosabatlar shaxsning shakllanishi va uning salohiyatining namoyon bo‘lishiga olib keladi. Shaxs salohiyatining shakllanishi va yuksalishida ijtimoiy munosabatlar asosiy o‘rin tutadi. Ijtimoiy faoliyat shaxs

salohiyatining yuzaga chiqishi va realizatsiya bo'lishi uchun ulkan imkoniyatlar yaratdi. Jamiyatda inson, millat salohiyatini rivojlantirish, realizatsiya qilish, saqlab qolish millatni, uning kelajagini saqlab qolish demakdir. Aks holda, milliy salohiyatsiz millatning etnomavqei asta-sekin xavf ostida qoladi.

1-§. “Faoliyat” tushunchasi va faoliyatning tarkibi

Tayanch tushunchalar: faoliyat, inson faoliyati, “tabula tasa” - “toza taxa”, in’ikos, ma’naviy ehtiyoj, ma’naviy faoliyat, ijod, mehnat.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining inson taraqqiyotiga qaratilgan Farmonlari va Qarorlari hukumatimiz tomonidan bu borada qabul qilinayotgan dasturlar insonga va uning salohiyatini rivojlantirishga yo‘naltirilgan, deb aytish mumkin. Chunki inson va uning faoliyati tarixni, jamiyatni harakatlantiruvchi kuchi, inson salohiyatining darajasi jamiyat taraqqiyotining sur‘atlarini belgilab beruvchi asosiy omillardan biridir.

Insonning muntazam faoliyatning biror turi bilan shug‘ullanishi uning ajralmas xususiyati, atributidir. Bu nuqtai nazardan inson salohiyati va faoliyati o‘zaro bir-birini taqozo etuvchi antropologik va ijtimoiy hodisa hisoblanadi. Inson salohiyati uning faoliyati natijasida yuzaga chiqadi. Insonning ijtimoiy mohiyati uning faqat jamiyatda yashashi va unga bog‘liqligi, jamiyatda amalga oshayotgan barcha ijtimoiy jarayonlarda ma’lum rol bajarishi, ijtimoiy makonda o‘zining ma’lum o‘rniga ega bo‘lishi, uning oliy qadriyat sifatidagi aksiologik mohiyati, ijtimoiy munosabatlarda qanday va kim

sifatida ko‘rinishi insonning faoliyatiga bog‘liq. Inson faoliyati orqali ijtimoiylashib boradi. Uning ijtimoiylashuvi o‘z navbatida unga o‘xshash boshqa sub’ektlar bilan faoliyati orqali o‘zaro aloqaga kirishishni ta‘minlaydi.

Faoliyat muammosi, uni falsafiy tahlil etish qadimdan olimlarni qiziqtirib kelgan. Qadimgi falsafada axloq muammosi ko‘p o‘rganilganligi sababli faoliyat axloqiy faoliyat nuqtai nazaridan o‘rganilgan. Masalan, Arastu “Qalb haqida” nomli asarida qalbning yuqori darajadagi faoliyati to‘g‘risida yozadi va uni inson tanasining faoliyati sifatida ta‘riflaydi. Arastu insonning axloqiy faoliyatiga e‘tibor qaratib, bunday faoliyatni barkamol insonning vazifasi deb ta‘kidlaydi.

Sharqda “Avesto”da aks etgan “Ezgu fikr, ezgu so‘z, ezgu amal” g‘oyasi faoliyat muammosini yoritishda nazariy asos bo‘lishi mumkin. G‘oyadan shunday xulosa chiqadiki, ma‘lum amalni bajarish dastlab uning ongida tasavvur etiladi va ma‘lum maqsad tomon etaklaydi. Forobiyning fikricha, “...inson faoliyatsiz tura olmaydi, ammo har qanday faoliyat va harakat insonni inson qilib ko‘rsata olmaydi. Chunki o‘z tabiatiga ko‘ra hayvonlar ham ovqatni ko‘radi va unga intiladi va bunda ongsiz harakatni amalga oshiradi”¹.

Islom falsafasi, ayniqsa, Naqshbandiya tariqatining ta‘limoti insonni faqat diniy faoliyat bilan shug‘ullanmasdan ijtimoiy-iqtisodiy faoliyat olib borishi hamda halol mehnat bilan shug‘ullanishi zarurligi g‘oyasini tarqatgan.

Imom Buxoriy Payg‘ambarning agar inson o‘zining va oilasining ehtiyojlarini qondirish uchun mehnat qilayotgan bo‘lsa, uning mehnati Olloh sharafiga qilinayotgan jihod sifatida qaralishi zarur, degan fikrini keltiradi. Hanafiya mazhabining

¹ Абу Наср Форобий. Фозил одамлар шахри. – Т.: А.Қодирий нашриёти, 1993. – Б: 55.

nazariyotchilaridan biri al-Hoshim as- Samarqandiy inson biror hunarga ega bo'lib, uni o'zlashtirishi zarur, deb hisoblaydi¹.

G'arb mutafakkirlari Kant, Gegel, Nisshe, Fixte falsafiy ta'limotida faoliyatga oid fikrlar keng o'rin olgan. Ular faoliyatni axloq, bilish jarayoni, nafosatshunoslik kontekstida o'rganganlar. Djon Lokk "Inson aqli to'g'risida tajriba" nomli asarida har qanday bilim tajriba asosida olinishini ta'kidlaydi. U insonni "tabula tasa" - "toza taxta" sifatida tavsiflaydi va asta-sekin inson tashqi olam bilan o'zaro munosabati asosida tajribaga ega bo'lib boradi, deydi. Tajriba ichki va tashqi bo'lib, tashqi tajriba sezgilar orqali olingan g'oyalar, ichki tajriba insonning shaxsiy faoliyati haqidagi g'oyalardir. Ularning shakllanishida inson asosiy rol o'ynaydi. Ko'rinib turibdiki, Lokk faoliyat muammosiga gnoseologik nuqtai nazardan bilish asosida yondashadi. Chunki o'rganilayotgan narsa yoki hodisa aqlning uch xil faoliyati asosida o'zlashtiriladi: solishtirish, moslashuv, abstraksiya.

Faoliyat jarayonida insonning o'zi ham taraqqiy etib yashash usuli, ya'ni mehnat qilish jarayoni, sub'ektning jamiyat bilan munosabatga kirishi sifatida anglandi. Insonning ijtimoiy hayotga, amaliyotga qo'shilib borishi uning faoliyati orqali yuz beradi. Forobiy aytganidek, "Inson o'z ehtiyojlarini qondirish va panoj topish uchun jamoaga va jamiyatga birlashuvi zarur bo'ladi"².

Faoliyat va zaruriyatni Ibn Rushd sababiy shartlik bilan bog'ladi. "Har qanday faoliyat zaruratan o'z sababiga ega. Biz mavjud ashyolar biri ikkinchisining sababi ekanligiga va biri ikkinchisi orqali faoliyat ko'rsatishiga shubha qilmasligimiz

¹ Улрих Рудольф. Ал-Матурудий ва Самарқанд суннийлик илоҳиёти. – Т.: 2001. Б. – 139.

² Абу Наср Форобий. Одамларнинг бирлашувига ўзаро ёрдамга эҳтиёжи борлиги ҳақида. Фозил одамлар шаҳри. – Т.: Янги аср авлоди, 1993. – Б. 238.

kerak”¹. Ko‘rinib turibdiki, Ibn Rushd faoliyatni dialektik-deterministik mohiyatini ta’kidlagan.

Sharq mutafakkirlaridan biri Abdurahmon Jomiyning asarlarida ham inson faoliyati masalasiga e’tibor qaratilgan. Jomiy falsafiy ta’limotining markazida inson turadi. U insonning bilish qobiliyati cheksiz ekanligini ta’kidlaydi, asarlarida shaxs erkinligi, adolat, saxovat, mehnatsevarlik, to‘g‘rilik, bilimdonlik haqida fikr yuritadi. Uning aytishicha, inson mehnat faoliyatida moddiy dunyo hodisalarini idrok qiladi. “Imkoni boricha hamma narsa haqida haqiqatni bilishga intiladigan va o‘zining bilib olgan narsalarini amalda qo‘llay oladigan kishi dono deb aytiladi”².

Arab tarixchisi, sotsiologi, iqtisodchi olimi Ibn Xaldun (1332-yil 27-mayda Tunisda tug‘ilgan) “Muqaddima” asarida qanday qilib badaviylar qishloqdan shaharga kelib yangi faoliyat turlariga o‘rganishi va shahardan qishloqqa yangiliklar olib kelishi natijasida yangicha umron – sivilizatsiya shakllanishini e’tirof etadi. Ular zarurat yuzasidan ma’lum mehnat turlari bilan shug‘ullanadi. Bunday mehnat qishloqda va shaharda o‘ziga xos amalga oshadi³.

XX asrga kelib faoliyat ma’lum maqsadga va olamni qayta qurishga yo‘naltirilgan, taraqqiyotga qaratilgan ijtimoiy jarayon sifatida tushunila boshlandi. Mazkur jarayon bir tomondan, insonga, uning salohiyatiga aloqador bo‘lsa, ikkinchi tomondan, tashqi olamga borliqqa dialektik aloqador bo‘lganda amalga oshuvi natijasida ijtimoiy amaliyotga aylanib borishi nazariyasi yaratildi.

¹ Григорян С.Н., Сагадеев А.В. Избранные произведения мыслителей стран Ближнего и Среднего Востока IX-XIV вв. С.498. М.: - 1961, Издательство социально-экономической литературы (Соцэкгиз)

² Жомий. Ҳафт авранг. —Т., 1914. Б. 81.

³ Очерки истории арабской культуры, V – XV вв. Главная редакция восточный литература. М., 1989. - С. 322-325

So'nggi vaqtlarda faoliyat muammosi ijtimoiy antropologiya va madaniy antropologiya doirasida keng o'rganilmoqda. Chunki inson o'zini inson sifatida boshqalar bilan o'zaro aloqaga kirishish natijasida anglashi mumkin. Bunday hodisa esa faqat kommunikatsiya asosida amalga oshadi. Buning ma'nosi shuki, inson o'zini faoliyat orqali va faoliyat asosida yaratishi mumkin. Inson o'z xususiyatlari va mohiyatini faoliyati orqali shakllantiradi va yuzaga chiqaradi, ya'ni o'zini yaratadi va shakllantiradi.

Insonning shaxsga aylanib borishi jamiyatning a'zosi sifatida o'zini yanada yuksaltirib borishi uning faoliyati doirasida amalga oshadi. Bu nuqtai nazardan inson ijtimoiy faoliyatning ham ob'ekti, ham sub'ekti hisoblanadi. Inson faoliyatida uning sub'ekt sifatidagi xususiyatlari aks etadi: aqli, maqsadlari, ijodiy intilishi, kreativligi, xarakteri va h.k.lar inson amalga oshirayotgan faoliyatda yuzaga chiqadi. Falsafa Ensiklopedik lug'atida faoliyatga quyidagicha ta'rif beriladi: "Faoliyat – inson mavjudligining muhim hususiyatlaridan biri, kishilarning tashqi dunyoga bo'lgan faol munosabati shakli, insonning o'zini-o'zi maqsadga muvofiq tarzda o'zgartirish usulidir"¹.

Q.Nazarov faoliyatning ayrim turlari (xossalari) haqida fikr yuritib, uning muhim atributi sifatida sub'ektivlikni qayd etadi: "Faoliyatning sub'ekti shu bilan izohlanadiki, u shaxsning o'tmishdagi tajribasi, uning ehtiyojlari va mo'ljallari, motivlari va maqsadlari, emotsiyalari va irodasini tavsiflovchi xususiyatlari, bilish qobiliyatlari va h.k. bilan belgilanadi"². Olimning fikricha, faoliyat muammosi shaxsning hayotiy tajribasi, qadriyatlarini hamda maqsadlari bilan bog'liq.

¹ Фалсафа: Энциклопедик луғат. – Т.: "Ўзбекистон миллий энциклопедияси" Давлат илмий нашриёти, 2010 – Б. 281.

² Назаров Қ. Жаҳон фалсафаси қомуси. II. О-Ҳ Ўзбекистон файласуфлари миллий жамияти, Маънавият нашриёти 2019. – Б. 83.

Faoliyatning asosini tashkil etuvchi element – bu in'ikosdir. In'ikos borliqning umumiy xususiyati hisoblanadi. In'ikos butun olamga, noorganik va organik tabiatda barcha mavjudotlarga, insonga xos bo'lgan hodisa. In'ikos turli narsa va hodisalarning o'zaro bir-biriga ta'sir etish jarayonida paydo bo'ladi va bir-birini o'zgartiradi. Har qanday o'zgarish, harakat in'ikosdan boshlanadi. Notirik tabiatda masalan, temirning yomg'ir ta'sirida zanglashi, suvning muzlashi, tirik tabiatda bahorda o'simliklarning o'sib chiqishi, turli tirik mavjudotlarning tabiat o'zgarishlariga nisbatan reaksiyasi va boshqalar in'ikosga misol bo'lishi mumkin.

In'ikosning oliy shakli - bu inson ongida uni o'rab turgan borliqni aks etishidir. Ya'ni in'ikosning oliy shakli olamni anglash, borliqda yuz berayotgan hodisalarni tushunib etish, unga munosabat bildirish va uni o'zgartirishdan iborat. Anglash, ongli in'ikos faoliyat orqaligina amalga oshadi.

“Inson ongining kelib chiqishini tushunib olish kaliti — bu uning biologik tuzilishi (eng avvalo, miyaning g'oyat murakkab tuzilishi va funksiyasi) hamda shakllanayotgan odamning tabiatni va o'zini o'zgartirib borgan faoliyatidir. Insonning amaliy faoliyati mohiyatini tushunmay turib, ongning kelib chiqishini tushunish mumkin emas. Hayvondagi in'ikos shakllari bilan odamdagi in'ikos shakllari o'rtasidagi tub farqning sababi ular faoliyatining xarakteridadir. Hayvonlarning instinktiv-biologik, adaptatsion-moslashuvchanlik faoliyati odamning mehnatidan qanchalik farq qilsa, hayvonlarning psixik faoliyati ham odamning ongidan shunchalik farq qiladi”¹.

Jamiyat barqaror taraqqiyotining ta'minlanishi kelajak avlodlar ijtimoiy-iqtisodiy salohiyatining muntazam o'sib borishini talab etadi. Jamiyat taraqqiyotiga asosan insonning

¹ M.A. Ahmedova, V.S.Xan, D.A. Alimova va boshq.; M.A.Ahmedova umumiy tahriri ostida: O'zR Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi. —T.: O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti, 2006. -299-b.

manfaatlari va ehtiyojlari muntazam ortib boradi. Ehtiyojlarning qondirilishi yangi ehtiyojlarning yuzaga kelishiga olib keladi. Inson ehtiyoji doimiy ortib borish xususiyatiga ega. Bu holat inson kapitalini ham tobora ortib borib, uning ehtiyojlarini ham vaqtida qondirilishini talab etadi. Hozirgi zamon taraqqiyot talablari, davlatlar o'rtasidagi raqobat, globallasuv chaqiriqlari, mamlakatlarning raqobatbardosh bo'la olishi, innovatsion jamiyatning shakllanishi mavjud inson kapitalini aniqlash va to'g'ri taqsimlash, undan to'g'ri foydalanish, inson kapitalining tinmay ortib borishini va unga yangi investitsiyalar kiritilishini ta'minlab borishni talab etadi.

Ma'lumki, dialektika insonni o'rab turgan borliqni doim harakatda va o'zgarishda ekanligini, mavjud narsalar va hodisalar o'zaro dialektik aloqador bo'lib, determinizm tamoyillariga bo'ysunishini e'tirof etadi. Bu jarayonda insonning tashqi olamga munosabati, unga bog'liqligi hamda tashqi olamni doim o'zlashtirishga va qayta qurishga intilishi uning faoliyati asosiga quriladi.

Eng umumiy ma'noda faoliyat inson va jamiyatning tashqi olam bilan o'zaro munosabati hisoblanadi. Inson va jamiyat – faoliyat sub'ekti bo'lib, uning munosabati tashqi olam, ya'ni faoliyatning ob'ektiga qaratilgan. Bu erda sub'ekt borliq bilan, ya'ni ob'ekt bilan faoliyat orqali munosabatga kirishadi. Faoliyatni insonning uni o'rab turgan olamni hamda o'zini o'zgartirishga qaratilgan ongli harakati, deyish mumkin.

Faoliyat muammosiga bag'ishlangan ilmiy-falsafiy asarlarga murojaat qilsak, ularda mazkur muammoga turlicha yondashuvlar aks etgani ko'rinadi. Faoliyat falsafaning bo'limlaridan biri bo'lgan praksiologiya tomonidan o'rganiladi. Faoliyat falsafasi inson faoliyatining kelib chiqishi, mohiyati, xususiyatlari, faoliyatning shakllari, faoliyatning boshqa tabiiy va ijtimoiy jarayonlar bilan o'zaro dialektik munosabati kabi masalalarni o'rganadi.

Insonning har qanday faoliyati ma'lum maqsadga qaratilgan bo'lib, maqsad insonning ehtiyojlari va manfaatlarini ifoda etadi. Faoliyatning qanchalik keng va chuqur bo'lishi, mohiyati va davomiyligi bevosita maqsadning mohiyatiga aloqador. Kutilgan maqsadga erishish inson faoliyati davomida yana yangi ehtiyojlarning kelib chiqishiga sabab bo'ladi. Faoliyatning rivojlanishi, kengayib borishi bu jarayonga yanada ko'proq ob'ektlarning, vositalarning tortilishiga shu bilan birga uning sub'ektini ham har tomonlama taraqqiyotiga sabab bo'ladi.

Faoliyat atrof muhitni yaratadi, madaniylashtiradi. Bu jarayonda faoliyatning o'zi ham aks ta'sirga uchraydi va rivojlanadi. Bu jarayonga borliqning yangi elementlari va hodisalari tortilib boradi. Har qanday ongli faoliyat – maqsadli faoliyatdir. Maqsadga erishilgach, faoliyat ma'lum natijaga olib keladi. Bu erda, ehtiyoj – maqsad – faoliyat – natija o'zaro aloqador zanjirini yuzaga keltiradi. Kishilarning faoliyatini amalga oshirishi, eng avvalo, ularning ehtiyojlaridan kelib chiqadi. Lekin ehtiyoj bu jarayonda doim ham asosiy rol ni o'ynamasligi mumkin. Faoliyat ko'p hollarda hayotiy zarurat bilan bog'liq. Mazkur jarayonda ichki va tashqi holatlar, sharoit taqozosi, tasodifiy yuzaga chiqqan omillar muhim rol o'ynashi mumkin.

Inson o'zining ongli faoliyati orqaligina insonlik vazifalarini bajarishi mumkin. Faoliyatsiz inson mavjud bo'la olmaydi. U faoliyatini moddiy ehtiyojlar asosida amalga oshiradi, yo'naltiradi va rivojlantiradi.

Rossiyalik olim I.V.Soboleva faoliyat ijtimoiy hayotda zarurat asosida amalga oshishi mumkin, faoliyat tashqaridan ta'sir orqali amalga oshirilganda uni majburiy faoliyat deb ataydi va uni ehtiyojsiz amalga oshadi, deb hisoblaydi¹.

¹ Соболева И.В. Человеческий потенциал российской экономики, проблема сохранения и развития. М.: Наука, 2007. – с. 12.

Inson salohiyati

Inson salohiyati va faoliyatining o'zaro dialektik aloqadorligi va bir-birini taqozo etishi ijtimoiy falsafiy hamda ijtimoiy antropologik muammo. Salohiyat va faoliyat insonning mohiyatini ifoda etgan hamda uning jamiyatdagi o'rni, jamiyat, ijtimoiy borliq mavjudligining determinanti ekanligi, jamiyatda shakllanadigan ijtimoiy munosabatlarning sub'ekti sifatida namoyon bo'lish hamda insonning tug'ilganidan boshlab ijtimoiylashib borishi hamda mazkur munosabatlarning amalga oshuvini ta'minlovchi ijtimoiy faol sub'ekt bilan bog'liq muammo.

Inson salohiyati bu inson taraqqiyoti masalasi, chunki inson taraqqiyoti uning salohiyatiga asoslanadi. Inson salohiyatini o'z faoliyati orqaligina yuzaga chiqara oladi. Inson salohiyati masalasi tahlil etilganda uni umumiy qilib aytganda jamiyat bilan aloqadorlik kontekstida o'rganish maqsadga muvofiq bo'ladi.

Insonning qobiliyati uning salohiyati orqali namoyon bo'ladi hamda faoliyatida yuzaga chiqadi va realizatsiya bo'ladi. Inson faoliyati insonning intellektual darajasi, ko'nikmalari, tafakkur qilishi qobiliyati asosiga qurilgan bo'lib, ma'lum sohada o'zini realizatsiya qilib borishini belgilab beradi hamda yo'naltiradi. Mavjud salohiyat ijtimoiy faoliyat orqali namoyon bo'lishi jarayonida insonning yashirin imkoniyatlarini ham yuzaga chiqaradi. Muammo mazkur salohiyatni to'g'ri yo'naltirib, ijobiy natijaga erishishdan iborat.

Inson salohiyatining gnoseologik (intellektual, abstrakt tafakkur, mantiq, axborotni qabul qilish va qo'llash) jihatlari salohiyat yuksalishida muhim rol o'ynaydi. Bu gnoseologik elementlar inson salohiyati va faoliyati taraqqiy etishida ulkan ahamiyatga ega. Inson salohiyati va faoliyati o'rtasida dialektik aloqadorlik quyidagicha namoyon bo'ladi: salohiyat faqat faoliyat orqali amalga oshadi va aksincha, faoliyat inson salohiyatini yanada rivojlantirish uchun yangi imkoniyatlarni yuzaga

keltiradi. Inson o'z salohiyatini anglab etishi uning taraqqiyot sur'atlariga ham ta'sir ko'rsatadi.

Inson salohiyatining xususiyati davr ruhidan kelib chiqadi. Jamiyat taraqqiy etib borgani sari inson salohiyati ham, albatta, rivojlanib boradi. Uni jamiyatda realizatsiya qilinishi muammosi yuzaga keladi. O'zbekistonda inson salohiyati va faoliyatining taraqqiyotini ta'minlash maqsadida bir qator ishlar amalga oshirildi. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 27.06.2018 yildagi PF-5466-son "Yoshlar — kelajagimiz" Davlat dasturi to'g'risida"gi Farmoni¹, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 19.01.2022 yildagi PQ-92-son "Mahallalarda yoshlar bilan ishlash tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori², O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 30.06.2020 yildagi PQ-4768-son "O'zbekiston Respublikasi Yoshlar ishlari agentligi faoliyatini tashkil etish to'g'risida"gi Qarori³, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 20.11.2019 yildagi 921-son "Andijon viloyatida aholi, shu jumladan yoshlar o'rtasida kompyuter texnologiyalari va Internet jahon axborot tarmog'idan samarali foydalanishni tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori⁴, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 17.10.2018 yildagi 832-son "O'zbekiston Respublikasi Innovatsion rivojlanish vazirligi huzurida Yoshlar innovatsiya markazini tashkil etish to'g'risida"gi qarori⁵, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 05.07.2017 yildagi PF-5106-son "Yoshlarga oid davlat siyosati samaradorligini oshirish va O'zbekiston yoshlar ittifoqi faoliyatini qo'llab-quvvatlash to'g'risida"gi Farmoni⁶ kabi normativ huquqiy hujjatlar qabul qilinmoqda.

¹ <https://lex.uz/docs/3826820> Мурожаат этилган сана 30.05.2022

² <https://lex.uz/uz/docs/5831865> Мурожаат этилган сана 30.05.2022

³ <https://lex.uz/docs/4880129> Мурожаат этилган сана 30.05.2022.

⁴ <https://lex.uz/docs/4601907> Мурожаат этилган сана 30.05.2022.

⁵ <https://lex.uz/uz/docs/4007833> Мурожаат этилган сана 30.05.2022.

⁶ <https://lex.uz/docs/3255680> Мурожаат этилган сана 30.05.2022.

Yangi texnologiyalar insonni, dunyoni va borliqning xarakterini tubdan o'zgartirib yubordi. Bundan tashqari bu o'zgarishlar inson faoliyatini tabiatning ichki omillaridan biriga aylatirdiki (masalan biologik omilga), uning buyuk kuchi tabiatning kuchiga teng, ba'zan hatto tabiatning kuchidan ham o'tadi. Ko'pgina tabiiy jarayonlar inson faoliyatisiz kechgan holatdagidek emas. Inson planeta masshtabini qamrab oluvchi geologik kuchga aylandi¹.

Yuqorida qayd etilgan sharoitda inson va uning taraqqiyoti uchun ulkan imkoniyatlar yaratildi. Nafaqat dunyoning, balki insonning ijtimoiy qiyofasi tubdan o'zgardi. Insonning uni o'rab turgan ijtimoiy borliqni, o'zi yashayotgan jamiyatni his qilishi mavjud tarixiy davr muhitidan va xususiyatidan kelib chiqadi. Har bir avlod o'tmishga o'z zamonasidan boqib ijobiy namunalardan qaraydi. Insonga o'zi yashagan davridan ma'lum norozilik xos. Bunday holat insonning doimiy o'sib boruvchi ehtiyojlaridan kelib chiqadi.

Inson salohiyatini realizatsiya qilish uchun sharoit yaratilishi, uni to'g'ri yo'naltirilishi bu jarayonning natijadorligiga ham bog'liq bo'lib, inson xatti-harakatlari va faoliyatining natijasini ko'rishi va uni qo'llay olishi muhim ahamiyatga ega. Inson salohiyatini realizatsiya qilishi darajasi uning amalga oshirgan faoliyatining samaradorligi va tarqalgan makoni bilan aniqlanadi. Jamiyat va inson ehtiyojlaridan kelib chiqib, inson salohiyati zaxiradagi kapitalini ishga soladi va bu asosda davr talablariga javob beradi. Insonning jamiyatda faolligi, faoliyati salohiyat zaxirasining tobora kengayib borishiga xizmat qiladi. Bundan kelib chiqadiki, inson salohiyati muammosi bilan bog'liq ravishda realizatsiya qilingan va realizatsiya qilinmagan salohiyat masalasi ham yuzaga keladi.

¹ Шаповалов В.Ф. Основы философии современности. К итогам XX века. –Москва: Флинта-Наука, 1998. -С.112.

Albatta, insonning har qanday salohiyati uning ma'lum maqsadga va ehtiyojlarni qondirishga yo'naltirilgan faoliyati orqali yuzaga chiqadi va realizatsiya qilinadi. Bu nuqtai nazardan inson salohiyati masalasiga prakseologik yondashuv talab etiladi. Inson salohiyatining yuzaga chiqish darajasi, realizatsiya qilinishining xususiyatlari va o'zgarib borayotgan jihatlari davr ruhidan kelib chiqadi.

Ma'naviy soha jamiyatning muhim sohalaridan biri. Mustaqillikning boshlaridayoq O'zbekiston Respublikasining birinchi Prezidenti I.Karimov ma'naviyatni iqtisodiy va siyosiy sohalar bilan bir qatorda ustuvor soha sifatida ko'rsatib bergan. Ma'naviyat millatning xususiyatini, qadriyatlarini aks ettiradi, u inson ma'naviy salohiyatini saqlashga va rivojlantirishga imkon yaratadi. Ma'naviy faoliyatning ham xususiyatini, umuman insonni belgilab beradi.

Insonning ma'naviy ehtiyojlaridan biri diniy ehtiyojdir. Ma'naviy ehtiyojlar insonning apriori tug'ma xususiyati hisoblanadi. Buni qondirish uchun ma'naviy boyliklar yaratiladi. Ma'naviy faoliyat ma'naviyatning funksiyalari orqali amalga oshadi: tarbiyalovchilik, integrativlik, aksiologik, akkumlyativlik va boshqalar. Ma'naviy faoliyat – ma'naviyatni anglash, uni rivojlantirish va ma'naviy boyliklar yaratishga qaratilgan faoliyat. Bu faoliyat davomida ma'naviy boyliklar yaratiladi, ma'naviy qadriyatlar saqlanib avlodlardan-avlodlarga uzatiladi, ya'ni ma'naviy meros boyib boradi. Inson ma'naviy faoliyat jarayonida jamiyatda mavjud axloq, urf-odatlar, ma'naviy qadriyatlar, bilim olish kabilar orqali o'z ma'naviy ehtiyojlarini qondirib, undan ma'naviy faoliyatga hamda faoliyat orqali ma'naviy munosabatlarga kirib boradi. Ma'naviy jarayon yanada rivojlanadi. "Ma'naviyat ayrim shaxsning sa'yi-harakati, olamni bilishi, ilmga intilishi, hayot tajribasi natijasida shakllanadi.

San'at, badiiy adabiyot, ayrim olingan fanlar, axloq, din va insonni o'rab turuvchi kishilar ma'naviyatga hissa qo'shadilar"¹.

Inson, jamiyat, millat ma'naviy jihatdan boyib borgani sari ma'naviyat, qadriyatlarga munosabat o'zgaradi, qayta ko'riladi, ayrim hollarda ma'lum jihatlari o'zgartiriladi. Bu haqida Forobiy shunday degan edi: "...yomon odatlarni o'zida ifodalovchi o'tmishni ham o'zgartirmoq kerak, aks holda, uning kayfiyati saqlansa, turmushda hech qanday yangilik, o'zgarish va o'sish ham bo'lmaydi"². Ko'rinib turibdiki, ma'naviy soha ham zamon tamoyillari asosida o'zgarib, taraqqiy etib borishi zarur ekan. Hozirgi axborot davrining qo'yayotgan talablari, yoshlar ongining tez sur'atlar bilan o'sib borayotganligi kabi o'ta tez taraqqiy etib borayotgan jamiyat tomonidan qo'yilayotgan chaqiriqlar ma'naviy faoliyatni yanada rivojlantirish orqali milliy ma'naviyatni boyitish vazifasini qo'yadi.

Faoliyatning yuqori darajasi bu ijoddir. Ijod faqat insongagina xos bo'lgan hodisa. Ijod inson faoliyatining cheksizligini anglatadi. Unda insonning aqli, ruhiyati, tajribasi ishtirok etadi. Ijod insonning o'zidan o'zib ketishini anglatadi.³ Ijod yangilik yaratadi, shunga ko'ra u taraqqiyotning chaqiriq shakli hisoblanadi. Ijod to'g'risida gapirilganda tasavvur etish bilan bog'liq jarayon nazarda tutiladi. Ijodning maqsadi yangilik, innovatsiya yaratishdir. Ijodning natijasiga betakrorlik xos bo'lib, bu jarayonda hali jamiyatda mutlaqo bo'lmagan yangilik yaratiladi. Ba'zan ijod natijasi to'satdan, kutilmaganda yuzaga chiqadi. O'ziga xos san'at asarlari, ilmiy kashfiyotlar shular jumlasidandir. Fransuz faylasufi Anri Bergson insonning

¹ Т.Ортиқов, Р.Алиев. Маънавият ва маърифат таҳлили. Андижон, "Ҳаёт" нашриёти, 2011. – Б.30.

² Абу Наср Форобий. Фозил одамлар шаҳри.-Т.: А.Қодирий нашриёти. 1993. – 223 б.

³ Юлдашева Ф. Ўзбекистонда глобаллашув шароитида маънавий янгиланишнинг ўзига хос хусусиятлари Фалсафа фанлари бўйича фалсафа доктори (DSc) диссертацияси. – Т.: 2019. – Б. 226.

mohiyati uning ijod qilishida, chunki u tabiatiga ko'ra ijodiy zot, unga intuitsiya xos. Ijodiy intuitsiyalar - bu irratsional hodisa. Anri Bergson "Ijodiy evolyusiya" asarida har bir insonda qandaydir ichki kuch mavjudligini va bu kuch insonni ijodga, fikrlashga chorlashni, bu esa hayotning davomiyligini e'tirof etadi. Bu jarayonda ijod va intuitsiyaning roli kattaligini ta'kidlaydi¹.

Ijod jarayonida shakllangan faoliyatni ijodiy faoliyat deyish mumkin. Lekin ijod bilan jamiyatning ayrim a'zolarigina shug'ullanadilar. Ular ma'lum ma'noda ma'naviy elitani tashkil etadi.² Ijodiy faoliyat egasi o'ziga xos ma'naviyati, fikrlashining o'zgachaligi, qobiliyati, turli ideallarga intilishi kabi xususiyatlari bilan ajralib turadi. Albatta, ilmiy ijod bilan shug'ullanadigan shaxslar – olimlar yuqori qobiliyatga ega bo'lib, ularning ilmiy ijod natijalari ba'zan katta jamoalarning faoliyatidan ko'ra kuchliroq ahamiyatga ega bo'lishi mumkin.

Shuni aytish zarurki, har qanday ijodiy faoliyat asosida ulkan mehnat yotadi. Mehnat faoliyatida insoning ehtiyojlari, maqsad va vazifalari, hatto ideallari ham aks etadi. Buyuk Sharq mutafakkiri Ibn Xaldun inson faoliyati va uning ehtiyojlarini o'zaro bog'liq deb hisoblaydi. Mehnat faoliyatini jamiyatning geografik sharoitlari iqlimi, mehnati kabilar bilan bog'laydi. Bu jarayonda mehnat taqsimoti, jamiyatning taraqqiyot darajasi, boshqaruv usuli, kishilarning ijtimoiy faoliyatiga ta'sir etadi. Ibn Xaldun ushbu jarayonda shaharning rolini alohida ko'rsatadi. Uning fikricha, kishilar o'z ehtiyojlaridan kelib chiqib, shaharga keladilar va shaharning yangicha qadriyatlarini o'zlari yashagan joylarga olib keladilar. Shahar madaniyati va qulayliklariga o'rganib boradilar³.

¹ Анри Бергсон. Творческая эволюция. М.: Терра-Книжный клуб, 2001.- 384 с.

² Ф.Юлдашева. Маънавий элита. Жамият ва бошқарув.

³ Григорян С.Н., Сагадеев А.В. Избранные произведения мыслителей стран Ближнего и Среднего Востока IX-XIV вв. С.498. М.: - 1961, Издательство социально-экономической литературы (Соцэкгиз)

Umumiy tarzda inson faoliyatining turlarini quyidagicha tavsiflash mumkin:

- iqtisodiy faoliyat;
- axloqiy-diniy faoliyat;
- madaniy - ma'naviy faoliyat;
- ilmiy - intellektual faoliyat;
- siyosiy - huquqiy faoliyat;
- estetik faoliyat.

Iqtisodiy faoliyat – insonning o'z ehtiyojlaridan kelib chiqib, borliqni o'zlashtirish asosida moddiy boyliklar yaratishga qaratilgan faoliyat. Madaniy - ma'naviy faoliyat – inson va jamiyatning axloqiy, diniy, estetik sohada amalga oshiriladigan faoliyat. Ilmiy - intellektual faoliyat – tabiat, jamiyat, inson hamda ular bilan bog'liq amalga oshadigan tabiiy, ijtimoiy hodisalarni, jarayonlarning xususiyatlari va mohiyatini bilishga qaratilgan insonning nazariy va amaliy faoliyati. Siyosiy - huquqiy faoliyat – jamiyatning siyosiy hayotini tashkillashda, ichki va tashqi siyosatida ishtirok etish. Har qanday faoliyatning asosida yaratuvchilik, yangilik yaratishga intilish yotadi. Inson jamiyatda amalga oshirayotgan faoliyati, yashashi, xatti-harakatlari orqali muntazam ijtimoiylashib boradi. Inson ma'lum madaniyatga tegishli, mazkur madaniyatni tashuvchisi bo'lganligi tufayli u madaniy mavjudot sifatida o'zini namoyon etadi. Bu sifatda uning ehtiyojlari, talablari va ideallari davr ruhiga mos tarzda o'zgarib boradi.

Umuman inson faoliyatining evolyusiyasini quyidagi bosqichlarga bo'lish mumkin. Quyidagi tasnif mehnat taqsimotiga aloqador ravishda paydo bo'lgan:

1. Insonning dastlabki faoliyati termachilik, ovchilik va chorvachilikka bo'lingan mehnat taqsimoti asosida yuzaga kelgan.

2. Chorvachilik, dehqonchilikning ajralib chiqishi asosida nisbatan murakkabroq faoliyat yuzaga keldi.

3. Dehqonchilik va hunarmandchilik asosida mehnat qurollarining murakkablashib borishi bilan birga o'ziga xos faoliyat shakllandi.

4. Qishloq xo'jaligi va sanoat taraqqiyotiga bog'liq tarzda butunlay yangicha mohiyatga ega bo'lgan faoliyat rivojlandi.

5. Kompyuterlashtirish, avtomatika, internet, nanotexnologiyalar rivoji natijasida zamonaviy faoliyat yuzaga keldi. Bu faoliyat avvalgi faoliyatlarga nisbatan yuksak taraqqiy etgan bo'lib, yuqori sur'atlar bilan amalga oshib boruvchi innovatsion mohiyatga ega bo'lgan faoliyat hisoblanadi.

Jamiyat taraqqiyoti, yangilanishi tarixda yaratuvchanlikka intilish jamiyatning ma'naviy hayotiga ham albatta katta ta'sir ko'rsatgan. Fan taraqqiyoti, hatto yangicha diniy g'oyalarning tarqalishi bunga misol bo'ladi: "Jamiyatni yangilash, diniy g'oyalarni hayotiy yaratuvchilik g'oyalari bilan uyg'unlashtirish haqidagi ilk g'oyalarni ilgari surgan alloma Xoja Bahouddin Naqshbandiydir. Bahouddin Naqshbandiyning mehnat, yaratuvchanlik etikasini xristianlikdagi protestant, mehnat etikasi (M.Lyuter, A.Kalvin) bilan qiyoslash mumkin"¹.

Fan - dunyo to'g'risidagi, shu jumladan, odamning o'zi to'g'risidagi ob'ektiv bilimlarni ishlab chiqarish bo'yicha yuksak darajada tashkil etilgan va ixtisoslashtirilgan faoliyatdir. Fan va texnikaning hozirgi taraqqiyoti insonlar faoliyatini tubdan o'zgartirib yubordi. Insonning fan va texnika rivojiga, eng so'nggi namunadagi texnika yutuqlarining esa inson hayotiga ta'siri juda katta hisoblanadi. Fan kishilarga yangicha hayot tarzini yaratib bermoqda. Bu jarayonlarni K.Yaspers quyidagicha ta'riflaydi:

¹ Қодиров А. Анъанавий жамият ва уни модернизациялаштириш стратегияси. Т., 2006, - Б.5.

“Qisman odamning o‘zi tomonidan yaratilgan muhit odam mohiyatining belgisidir”¹. Texnika o‘z-o‘zicha mavjud bo‘la olmaydi.

Jamiyat taraqqiyotiga dialektik aloqador ravishda ehtiyojlarning o‘sishi, insonlarning, taraqqiyotga moslashib borishi, ijtimoiy muhitning o‘zgarishi natijasida kishilarning ijtimoiy mobilligining ortib borishi, urbanizatsiya, davlatlar o‘rtasidagi xalqaro munosabatlarning kengayib borishi, globallashuv jarayonlari chegaralarning nisbatan ochilib borayotganligi natijasida yuzaga kelayotgan imkoniyatlar kabi hodisalar faoliyatning ham yanada yangi turlarini yuzaga kelishini ta‘minlamoqda. Buning natijasida yangi zamonaviy ob‘ektlar, sub‘ektlar, o‘zaro munosabatlar shakllanmoqda. Turli xalqaro kompaniyalar, korporatsiyalarning yuzaga kelishi inson va uning faoliyati hamda salohiyatining oldiga yangicha talablarni qo‘ymoqda. Yuqorida qayd etilgan hodisalar asosida jamiyat va innovatsion faoliyatning yuzaga kelishi ob‘ektiv zaruratga aylandi. Innovatsiya – yangilik, o‘zgarish, taraqqiyotni anglatuvchi tushuncha.

Nazorat uchun savollar:

1. Faoliyat muammosini yoritib bergan manbaalarda ushbu tushunchaga qanday ta‘rif berilgan?
2. Faoliyat tushunchasi ta‘rifida Shaq va G‘arb mutafakkirlari yondashuvining farqli jihatlarini ko‘rsatib o‘ting.
3. In‘ikos nima?
4. Ma‘naviy faoliyat nia?
5. Ijodni qanday ta‘riflaysiz?
6. Inson faoliyatining turlari qanday?

¹ Новая технократическая волна на Западе. Гуревич П. С. (ответственный редактор) М.: «Прогресс», 1986.-453с.

2-§. Innovatsion faoliyat va inson salohiyatining yuksalishi

Tayanch tushunchalar: innovatsion faoliyat, innovatsion shaxs.

Hozirgi kunda jamiyatning barcha sohalarda keng tarqalayotgan innovatsiyalar, innovatsiya jarayonlariga aloqador ravishda innovatsion faoliyat faoliyatning yuqori darajasi sifatida yuzaga keldi. Innovatsion faoliyatning yuzaga kelishi jamiyat ehtiyojlarining ortib borishi bilan bog'liq tarzda yuzaga keldi (aytish zarurki, innovatsiyalar va innovatsion faoliyat tarixning barcha davrlarida ham amalga oshib kelgan). Innovatsion faoliyat insonning barcha sohalarda amalga oshirayotgan faoliyatining turi sifatida emas, xususiyati tarzida paydo bo'ldi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoev ta'kidlaganidek: «Ilm-fan – taraqqiyot asosi, zamonaviy ilm-fan yutuqlariga, innovatsion g'oyalarga tayanmagan davlatning ham, jamiyatning ham kelajagi yo'q. Faqat ilm va ma'rifat, intellektual salohiyat, har tomonlama bilimli kadrlar hisobidan O'zbekistonni yangi taraqqiyot bosqichiga olib chiqa olamiz»¹.

Faoliyat inson hayoti va uning mavjudligini ta'minlab turuvchi va jamiyat ehtiyojlarini qondirishga qaratilgan ijtimoiy hodisa ekanligi ma'lum. Innovatsion faoliyat ijtimoiy taraqqiyotning ehtiyojlari asosida shakllanib, faoliyatga yangiliklarni joriy etish orqali rivojlanadi. Bunday faoliyat ma'lum sohalarda quyidagi innovatsion hodisalarning yuzaga kelishini belgilab beradi:

- zamonaviy, yangicha g'oyalarning paydo bo'lishi, ilmiy kashfiyotlar;

¹ Давлатимизнинг юксак мукофотлари топширилди. //Халқ сўзи. 2017 йил, 8 декабрь, 247-сон.

-yangicha yondashuvlar, yangi texnologiyalarni joriy etish;
-ishlab chiqarish tizimini yangicha kreativ asoslarda qayta qurish;

- barcha sohalarda boshqaruv tizimida yangicha usullarni tatbiq etish kabi ijtimoiy jarayonlar ta'sir ko'rsatadi.

Yuqoridagi fikrlardan kelib chiqadiki, "Innovatsion faoliyatning asosiy maqsadi turli xildagi yangiliklarni hayotga joriy etishdan iborat. U zamonaviy talablar asosida inson omilining rolini oshirish, inson, insoniyat hayotida uchraydigan ijtimoiy psixologik to'siqlarni bartaraf etishni o'z oldiga maqsad qilib qo'yadi"¹.

Innovatsion faoliyat jamiyat taraqqiyotining barcha davrlarida ham amalga oshib kelgan. Bosqichma - bosqich evolyusion ravishda bunday faoliyatning elementlari insonlar hayotiga kirib borgan. Uning asosida jamiyat va uning a'zolarining amaliy faoliyati o'zgarib, progressiv xususiyat kasb etib kelgan.

Modernizatsiya, globallashuv, axborotlashuv jarayonlari natijasida hayot sur'atlarining tezlashib borishi sababli ob'ektiv ravishda jamiyatdan taraqqiyotning tezlashib borayotgan sur'atlarini hisobga olgan holda faoliyatining barcha turlariga uzluksiz tarzda innovatsiyalarni joriy etib borishga majbur. Aks holda, jamiyat boshqa jamiyatlar taraqqiyotidan ortda qolishi tabiiy.

Tadqiqotchi X.I.Abdurahmonovning fikricha: "Innovatsion faoliyat yangi bilimlarning mazmuni va innovatsiyalar avlodini anglash orqali tafakkurda rivojlanib boradigan jarayondir. Bu jarayon muammoli vaziyatni izchil, yaxlit tahlil qilish bilan bog'liq bo'lgan, dunyoni anglashni o'zgacha shakllantiradigan,

¹ Назаров Қ. Жаҳон фалсафаси қомуси. I. А-Н Ўзбекистон файласуфлари миллий жамияти, "Маънавият" нашриёти, 2019. – Б.486.

ma'lumotni qayta ishlash va saqlash va undagi shaxsni o'zi belgilashga xos analogiya bo'lgan aqliy modelni o'rganishga asoslangan"¹.

Jamiyat hayotiga innovatsiyalarning kirib kelishi, innovatsion ongning shakllanishi, jamiyatning tobora innovatsion xususiyat kasb etib borishi natijasida innovatsion shaxs shakllanadi. Albatta, jamiyat taraqqiyoti uning asosiy omili – insonga ta'sir etadi. Ijtimoiy rivojlanish borasida amalga oshayotgan o'zgarishlarga mos ravishda jamiyatda mavjud ijtimoiy tizimlarning ham transformatsiyasini, innovatsion qadriyatlarni jamiyat va uning a'zolari tomonidan o'zlashtirib borilishini, inson dunyoqarashi, tafakkurining ham o'zgartirishini, inson hayoti va faoliyati sohasida yangicha, dolzarb zamonaviy metodlar va metodologiyani talab etadi.

Globalashuv, modernizatsiya, innovatsiyalar ta'sirida shaxs qadriyatlarining transformatsiyasi oddiy ehtiyojga aylanib bormoqda. Bunday jarayonlar ob'ektiv tarzda shaxs mohiyatiga ham ta'sir etayotganligi yaqqol sezilmoqda. Jamiyatda innovatsion xususiyatga ega bo'lgan shaxslarning ortib borishi ijtimoiy zaruriyatga aylandi. Bu haqda A.Egamberdiev quyidagilarni ta'kidlaydi: “Shaxs faoliyatiga ommaviy yondashuvlarda uning ijtimoiy xususiyatlari tarkibida qattiqqo'llik, boshqalarning taklif va xulosalariga qo'shilmaslik va bir so'zlilik kabi axloqiy sifatlar bilan tushuntirilsa, innovatsion shaxs mavjud vaziyatga tanqidiy yondashadi, ilmiy asoslangan tavakkalchiliklardan qo'rqmaydi, yangi narsalarni sinab ko'rishga ishtiyoqmand insondir. Innovatsion shaxsning

¹ Абдурахмонов Х. Замонавий ёшлар дунёқарашида инновацион тафаккурни шакллантиришнинг ижтимоий омиллари. Фалсафа фанлар доктори (PhD) диссертацияси. – Андижон, 2021. – Б. 90.

samarali faoliyati natijasida novatsiyalar majmuasi vujudga keladi”¹.

Jamiyat taraqqiyotida innovatsion faoliyatning yuzaga kelishi uchun ma’lum sharoitlar zarur. Jamiyatda kreativ fikrlovchi, tanqidiy yondashuvchi, yuksak bilimli hamda zamonaviy, ilg’or dunyoqarashga ega bo’lgan, yuksak intellektual salohiyatli faol hayotiy pozitsiyada mustahkam turadigan, tavakkalchi va boshqa shu kabi xususiyatga ega bo’lgan yoshlarning ko’payib borishi, jamiyat va unda yashab o’z faoliyatiga innovatsiyalarni tadqiq etib borayotgan ilg’or guruhlarning shakllanishiga olib keladi.

Hozirgi kunda innovatsion faoliyat faoliyatning yuqori darajasi sifatida yuzaga kelmoqda. Innovatsion guruhlarning ko’payib borishi jamiyatda ilg’or fikrlovchi, yangiliklarga intiluvchi yoshlar qatlamining ham shakllanishiga olib keladi.

Innovatsion faoliyat asosida quyidagi yondashuvlar yotadi:

- kreativ yondashuv;
- tanqidiy fikrlash;
- ijodiy yondashuv.

Ma’lumki, jamiyatning yangilanish jarayonlarida, barcha sohalarida islohotlar amalga oshirilayotgan davrda innovatsion shaxs va uning innovatsion ongi muhim ahamiyatga ega. Chunki innovatsion faoliyat qayd etilgan omillar bilan bog’liq. Innovatsion faoliyat jamiyatning ehtiyoji sifati namoyon bo’ladi. Chunki jamiyatning liberallashib borishi, demokratik jarayonlarning barcha sohalarida amalga oshib borishi innovatsion faoliyatning taraqqiyotiga yanada kengroq yo’l ochadi. Kelajak innovatsiya bilan, innovatsiya sohasidagi faoliyat bilan bog’liq.

¹ Эгамбердиев А. Ўзбекистонда модернизация шароитида ёшларда инновацион онг шаклланишининг ижтимоий-фалсафий муаммолари. Фалсафа фанлар доктори (PhD) диссертацияси. – Андижон, 2019. – Б. 102.

Ma'lumki, jamiyatda amal qilinadigan qadriyatlar demokratik jarayonlar, modernizatsiya va innovatsiyalar ta'sirida o'zgarib boradi. Qadriyatlar aslida, mohiyatiga ko'ra, ko'proq konservativ xususiyatga ega. Ular jamiyat hayotidan muhim o'rin olgani uchun ham qadriyat. Ammo innovatsiyalar asosida qadriyatlar ham yangilanib borishi mumkin. Hatto ba'zan transformatsiya ham bo'lishi mumkin. Innovatsiyalarning qadriyatlarga ta'sir etishi ob'ektiv jarayon, chunki ayrim hollarda asrlar davomida kishilar hayoti mazmunini tashkil etgan urf-odatlar, munosabatlar, an'analar ham kirib kelgan innovatsiyalar natijasida "qadriyatlilik" mavqeini yo'qotib borishi mumkin. Lekin taraqqiyotning ob'ektiv qonuniyatlari bundan boshqacha bo'lmaydi. Qadriyatlar ham o'zgarib, o'z ahamiyatini yo'qotib qadrsizlanib borishi mumkin. "Innovatsion faoliyatning bosh vazifasi ijobiy o'zgarishlarga yo'naltirilgan ijtimoiy tizimning rivojlanishning yangi darajasiga chiqishiga xizmat qiladigan yangicha usullar, metodlar, texnologiyalar, imkoniyatlarni yaratishdan iborat"¹.

Jamiyatda innovatsion faoliyat kengayib taraqqiy etishi uchun innovatsiyalar jamiyat hayotida, kishilar ongida va faoliyatida aksiologik ahamiyat kasb etib borishi va jamiyat a'zolarining amalga oshiradigan faoliyatining mezoniga aylanib borishi milliy qadriyatlar bilan sintezga kirishishi talab etiladi. Innovatsion faoliyatning tarqalishi ancha murakkab jarayon. Chunki insonlar, jamiyat o'rganib qolgan kundalik odatlaridan, ko'nikmalari va hayot tarzidan birdaniga kechib, yangiliklarni qabul qilishlari va o'z hayotida ularga amal qilishlari qiyin kechadi. Bu borada yuzaga kelishi mumkin bo'lgan qiyinchiliklarni engib o'tishda jamiyatda amal qilayotgan

¹ Делокаров К.Х. Рациональная парадигма и инновационное управление. проблемы и перспективый. Инноватика государственного управления: прорыв в будущее. – Москва: 2006. –С.148-149.

demokratik jarayonlar, innovatsion faoliyatni rivojlantirish uchun mavjud imkoniyatlar katta rol o'ynaydi. "Shaxsning ijtimoiy faol hayotiy pozitsiyaga ega bo'lishi, ijtimoiy jarayonlarga daxldorlik tuyg'usi undagi ijodiy potensialni ro'yobga chiqarishga yordam beradi. Bunday munosabat esa fuqarolik jamiyati shakllanishi jarayonida muhim ahamiyatga ega omildir"¹. Jamiyatda innovatsion faoliyatni tashkil etish, uni rivojlantirish uchun mazkur faoliyatning mohiyati, zarurati hamda dolzarbligi ko'pchilik tomonidan anglab etilishi muhimdir.

Yuqorida qayd etilganidek, innovatsion faoliyatning asoschisi kirib kelayotgan yangiliklarni va o'zgarishlarni qabul qilib, unga moslasha oladigan, zarur bo'lgan holatda o'z qadriyatlaridan, o'rganib qolgan turmush tarzidan, an'analardan kecha oladigan jamiyat a'zosi – innovatsion shaxs hisoblanadi. Zero, «Innovatsion shaxs bu - ijtimoiy taraqqiyotning borishiga bevosita ijobiy ta'sir eta oluvchi zamonaviylikni ijod qiluvchi insondir»². Innovatsion shaxs – innovatsion faoliyatni amalga oshiruvchi, o'z faoliyatida innovatsiyalarni tatbiq etuvchi faol, kreativ hamda ijodkor inson. Innovatsion faoliyat – yangiliklar asosida, kreativ va ijodiy yondashuv asosida amalga oshiriladigan faoliyat.

O'zbekistonda innovatsiyalarning taraqqiyoti hamda innovatsion faoliyatni amalga oshirish uchun katta imkoniyatlar yaratilmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvar PF-60 "2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi Farmonida

¹ Эгамбердиев А. Ўзбекистонда модернизация шароитида ёшларда инновацион онг шаклланишининг ижтимоий-фалсафий муаммолари. Фалсафа фанлар доктори (PhD) диссертацияси. – Андижон, 2019. – Б. 79.

² Карпова Ю.А. Введение в социологию инноватики. – Москва: 2007. –С.74.

quyidagi ustuvor tamoyillar O'zbekiston taraqqiyoti uchun asos sifatida ko'rsatib berilgan:

- "inson qadri uchun" tamoyili;
- "harakatlar strategiyasidan – taraqqiyot strategiyasi sari";
- "davlat inson uchun" tamoyili.

Mazkur tamoyillarga mos ravishda ular asosida ishlab chiqilgan ettita ustuvor yo'nalish belgilandi:

- inson qadrini yuksaltirish va erkin fuqarolik jamiyatini yanada rivojlantirish orqali xalqparvar davlat barpo etish;
- mamlakatimizda adolat va qonun ustuvorligi tamoyillarini taraqqiyotning eng asosiy va zarur shartiga aylantirish;
- milliy iqtisodiyotni jadal rivojlantirish va yuqori o'sish sur'atlarini ta'minlash;
- adolatli ijtimoiy siyosat yuritish, inson kapitalini rivojlantirish;
- ma'naviy taraqqiyotni ta'minlash va sohani yangi bosqichga olib chiqish;
- milliy manfaatlardan kelib chiqqan holda umumbashariy muammolarga yondashish;
- mamlakatimiz xavfsizligi va mudofaa salohiyatini kuchaytirish, ochiq, pragmatik va faol tashqi siyosat olib borish¹.

Agar mamlakatda erkinlik, iqtisodiy-ijtimoiy sohada shaffoflik ta'minlansa, jamiyat a'zolari tomonidan zamonaviy faoliyat turlari doimiy ravishda o'zlashtirilib va takomillashtirilib boriladi. Inson salohiyatini yuksaltirish hamda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoev etakchiligida, bu sohada ulkan ishlar amalga oshirilmoqda. 2021-yil yakunlariga ko'ra O'zbekiston iqtisodiga kiritilgan chet el investitsiyalari keyingi besh yilda 83 milliard AQSh dollarini tashkil etdi. Yangi O'zbekistonni barpo etish erkin va kuchli iqtisodga asoslanadi.

¹ <https://lex/uz/uz/docs/5841063> Мурожаат этилган сана: 22.02.2022

Iqtisodiy soha salohiyatining ortib borishi boshqa siyosiy, madaniy-ma'naviy, ta'lim va boshqa ijtimoiy sohalarning ham taraqqiyotini belgilaydi.

Sir emaski, so'nggi yillarda O'zbekistonda amalga oshirilayotgan islohotlarning samaradorligi aholining turmush darajasini ko'tarilishiga xizmat qilmoqda. Hozirgi kunda so'nggi 5 yilda yaratilgan ish o'rinlarining soni 2,4 mln.ga etdi, o'rtacha ish xaqi 3.2 mln. so'mga oshdi. "Yangi O'zbekistonda amaliy natijadorlik, inson manfaatlari va yana bir bor inson manfaatlari iqtisodiy islohotlarimizning bosh mezoniga aylandi... Islohotlar aholining barcha qatlamlari manfaatlariga xizmat qilmoqda: tadbirkorlar o'z biznesini rivojlantirish uchun erkinlik va yangi-yangi imkoniyatlarga ega bo'lmoqda, dehqon va fermerlar, klaster ishchi xizmatchilari o'zlari etishtirgan hosil va mahsulotning haqiqiy egasiga aylanmoqda"¹.

O'zbekistonning iqtisodiy-siyosiy taraqqiyoti, Markaziy Osiyoda etakchi davlatga aylanib borayotgani hamda dunyo hamjamiyatida o'zining faol va mustaqil pozitsiyasini egallab borayotgani bir qator siyosiy sub'ektlar tomonidan xalqaro maydonda e'tirof etilmoqda. Qayd etilgan iqtisodiy yutuqlarning samaradorligi mamlakatda kambag'allikni keskin kamaytirishga imkon yaratadi. Bu haqda Sh.Mirziyoev quyidagilarni aytdi: "Biz O'zbekistonning yangi tarixida ilk bor kambag'allikni kamaytirish haqidagi qat'iy qarorimizni butun dunyoga ochiq e'lon qildik va uni qisqartirish bo'yicha keng qamrovli ishlarni boshladik. Kambag'allikni qisqartirish, aholini arzon uy-joy va ichimlik suvi bilan ta'minlash, ehtiyojmand oilalar, o'zgalar parvarishiga muhtoj shaxslarni qo'llab-quvvatlash bo'yicha tizimli ishlarni yo'lga qo'ydik"².

¹ Мирзиёев Ш. Янги Ўзбекистон стратегияси. – Т.: O'zbekiston, 2021. – Б.50.

² Мирзиёев Ш. Янги Ўзбекистон стратегияси. – Т.: O'zbekiston, 2021. – Б.51.

Ma'lumki, barcha davlatlarda ham jamiyatda yoshlarning o'рни, pozitsiyasi, ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotga munosabati muhim ahamiyat kasb etadi. Jamiyatning ijtimoiy taraqqiyotining barcha sohalarida yoshlar faolligini ta'minlash bo'yicha O'zbekistonda ulkan ishlar amalga oshirilmoqda. "Yoshlarga oid davlat siyosati to'g'risida"gi qonunning qabul qilinishi, O'zbekiston Yoshlar parlamenti, O'zbekiston Respublikasi Yoshlar ishlari agentligi, Yoshlar ishlari faoliyati yo'lga qo'yilishi yoshlarning salohiyatini yuzaga chiqarishda hamda faolligini oshirishda xizmat qilmoqda. "Yoshlarning huquq va manfaatlarini ta'minlash, ularning o'qishi, mehnat qilishi, bilim olishi va qobiliyatini namoyon etishi uchun barcha sharoitlarni yaratmoqdamiz. Zero, butun xalqimiz qatori yoshlar – Yangi O'zbekiston bunyodkorlaridir!"¹.

Nazorat uchun savollar:

1. Innovatsion faoliyatga ta'rif bering.
2. Innovatsion faoliyat asosida qanday yondashuvlar bor?
3. Innovatsion shaxsga ta'rif bering.
4. O'zbekistonda yoshlar faolligini ta'minlash uchun qanday chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda?

¹ Мирзиёев Ш. Янги Ўзбекистон стратегияси. – Т.: O'zbekiston, 2021. – Б.54-55.

3-§. Yangi O‘zbekistonda inson salohiyati yuksalishining imkoniyatlari va undan foydalanishning istiqbollari

Tayanch tushunchalar: modernizatsiya, innovatsion faoliyat, innovatsion ong, innovatsion tafakkur, inson taraqqiyoti.

Ma’lumki, hozirgi davrda mamlakatimizning barcha sohalarida modernizatsiya jarayonlari amalga oshirilmoqda. Islohotlar etib bormagan sohani topish qiyin. Mazkur jarayonlar inson salohiyatiga tayanadi va ularning samaradorligi inson salohiyatiga bog‘liq. Ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar zamirida jamiyatda mavjud inson salohiyatini yuksaltirish va ishga tushirishga qaratilgan ulkan imkoniyatlar mavjud.

Inson salohiyati taraqqiyotining determinantlaridan biri modernizatsiya hisoblanadi. So‘nggi vaqtlarda falsafiy adabiyotlarda “modernizatsiya” tushunchasi keng qo‘llanilmoqda. O‘zbekiston olimlari tomonidan modernizatsiya muammosini o‘rganish borasida bir qator tadqiqotlar olib borilmoqda. Modernizatsiyaning turli konsepsiyalari va ta’riflari ishlab chiqildi. Jamiyatni nazariy jihatdan tadqiq etishda, jamiyatning oddiydan murakkabga tomon bosqichma-bosqich takomillashib borishi jarayonini o‘rganishda “modernizatsiya” tushunchasidan foydalaniladi.

Jamiyat taraqqiyoti evolyusiyasining davomida uzluksiz ravishda modernizatsiya amalga oshib borgan. Modernizatsiya - jamiyat va inson hayotining doimiy muntazam yangilanib borishini anglatadi. Uning maqsadi inson turmush tarzini yaxshilash, turmush darajasini va farovonligini oshirish va farovonligini oshirishdir. Modernizatsiya - ob’ektiv jarayon

bo'lib, unng natijasida ijtimoiy hayotda yangilanish, transformatsiya amalga oshadi.

Modernizatsiya to'g'risida gapirilganda, asosan iqtisodiy sohaga tegishli yangilanishga aytiladi. Lekin modernizatsiya inson ijtimoiy-madaniy, intellektual hayoti, dunyoqarashi va umuman ongli hayotining barcha sohalariga qo'llanilishi mumkin. Siyosat, fan, texnika, ta'lim sohalari ham bundan mustasno emas. Modernizatsiya (fransuzcha moderne — eng yangi, zamonaviy) — biror narsani yangilash, unga zamonaviy tus berish, uni zamonaviy talablarga muvofiq o'zgartirish degan ma'noni anglatadi. Jamiyatni zamonaviy talablarga muvofiq takomillashtirish maqsadida xilma-xil o'zgarishlarni amalga oshirishdan iborat ijtimoiy-tarixiy jarayonni ifodalovchi tushuncha¹.

Dastlab modernizatsiya jarayonlari asosan iqtisodiy sohada amalga oshadi. Lekin jamiyatning har tomonlama taraqqiyoti uchun iqtisodiy modernizatsiyaning o'zi kamlik qiladi. Unga mos holda qolgan sohalarning ham modernizatsiyasi talab etiladi. Bu jarayonda inson omili o'ta muhim omildir. "Fuqarolik jamiyati rivojida iqtisodiy omilning o'zi kamlik qiladi, albatta. Bu sohadagi yana bir zarurat - inson omilidir. Oliy jamiyat qurish uchun inson, eng avvalo, ehtiyojlarini chuqur anglamog'i va ularni jamiyatda erkin ro'yobga chiqarish masalasini egallamog'i lozim. Zero, bunday jamiyat inson ehtiyojining barcha davrlardagidan ortishi va ularni ro'yobga chiqarishga "chanqoq"lik ham behad kuchayishiga asoslanadi. Albatta, bunda sub'ektiv omil bilan birga ob'ektiv omil, ya'ni inson ehtiyojlari qondirilishi uchun imkoniyat yaratish ham nihoyatda muhim"².

¹ Назаров Қ. Жаҳон фалсафаси қомуси. I. А-Н Ўзбекистон файласуфлари миллий жамияти, Маънавият нашриёти 2019. – Б.82

² Қирғизбоев М. Элни суяганни эл ҳам суяйди. Сиёсатшунос олим М.Қирғизбоев билан суҳбат. //Тафаккур.-Тошкент, 2017.№ 1.-Б.10.

O‘zbekiston olimlaridan modernizatsiyani falsafiy o‘rganish borasida tadqiqotlar olib borgan professor A.Qodirovning fikricha, “Jamiyatni modernizatsiyalash serqirra hodisadir, u inson va jamiyat hayotining deyarli barcha jabhalarini – ma’naviy-madaniy, ma’rifiy, iqtisodiy, siyosiy, ijtimoiy, mintaqaviy va global munosabatlarni qamrab oladi”¹. Mazkur ta’rifda modernizatsiya keng qamrovli jarayon ekanligi, bu ob’ektiv jarayon jamiyat sohalarini qamrab olish bilan birga ma’naviy va global harakatga ega bo‘lgan global munosabatga ham aloqador ekanligi aytilgan.

F.Yuldasheva modernizatsiyani quyidagicha ta’riflaydi: “Modernizatsiya ijtimoiy hayotning barcha sohalarida sub’ektlar tomonidan amalga oshirilayotgan va boshqarilayotgan islohotlar, ilg‘or yangiliklarni joriy etish jarayoni. Modernizatsiya jarayonlari jamiyat tarixining barcha bosqichlarida ham amalga oshib kelgan. Modernizatsiya taraqqiyotning sharti”². Ko‘rinib turibdiki, yuqoridagi ta’riflarda modernizatsiya hodisasiga tarixiy va praksiologik nuqtai nazardan yondashilgan.

Davlatning iqtisodiy salohiyati asosida inson salohiyati turadi. Jamiyat salohiyati xususiyatlarining qanday bo‘lishi uning a’zolarining salohiyatiga bog‘liq. Jamiyat va davlat salohiyatining yuksalishi uning har bir a’zosi salohiyatining yuksalishi bilan belgilanadi. Shu bilan birga o‘z navbatida inson salohiyati jamiyat va davlat tomonidan yo‘naltirilishi, unga imkon yaratilishi, to‘g‘ri realizatsiya qilinishi mumkin.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev tomonidan davlat va jamiyatni modernizatsiya qilish masalasi mamlakat taraqqiyotidagi strategik maqsad sifatida qo‘yilgan.

¹ Қодиров А. Анъанавий жамият ва уни модернизациялаштириш стратегияси. Т., 2006, - Б.5.

² Юлдашева Ф. Модернизациянинг фалсафий жиҳатлари АДУ Илмий хабарнома 2014 й № 4. - Б.38.

Mamlakat rahbari tomonidan ijtimoiy hayotning barcha sohalarini tubdan rivojlantirish, modernizatsiya qilish va yangilash, bu jarayonlarda aholining turli ijtimoiy qatlamlari vakillarining faol ishtirokiga erishish vazifasi belgilab berildi. Davlatimiz rahbari turli viloyat aholisi vakillari, mutaxassislar bilan bo'lgan uchrashuvlarda O'zbekistonda sanoat, qishloq xo'jaligi, texnologiyalar, ilm-fan, madaniyat va boshqa sohalarni zamonaviy asosda modernizatsiya qilish masalalariga alohida e'tibor qaratmoqda¹. Demokratik islohotlarning yangi bosqichida jamiyat hayotining barcha sohalarini yangilash va innovatsion rivojlanish asosida muttassil o'zgartirishni mamlakat barqaror taraqqiyotining muhim omili sifatida e'tirof etish mumkin. Shu o'rinda faylasuf olimlarning beqarorlik, ijtimoiy borliqdagi o'zgaruvchanlik hozirgi zamonning nisbatan turg'un xususiyatiga aylanib qoldi², degan fikrlari yangi bosqichdagi islohotlarning tub mohiyatini anglatishini qayd etish zarur.

Jamiyat taraqqiy etib borgani sari inson salohiyati ham ortib boradi. Bu ikki jarayon o'rtasida dialektik aloqadorlik mavjud. Bunday o'zaro dialektik ta'sir modernizatsiya kontekstida yanada yaqqol namoyon bo'ladi. Chunki har qanday modernizatsiya yangilik asosida amalga oshadi. Yangilik esa insonning ongli faoliyati natijasida paydo bo'ladi. Tarixdan ma'lumki, "Modernizatsiya – ijtimoiy hayotning barcha sohalarida turli sub'ektlar, xalq, buyuk shaxslar tomonidan amalga oshirilgan va boshqarilgan islohotlar, ilg'or yangiliklarni olib joriy etish jarayoni"³. Ma'lumki, rivojlangan davlatlar

¹ Мирзиёев Ш.М. Буюк келажегимизни мард ва олижаноб халқимиз билан бирга қурамыз. – Тошкент: Ўзбекистон, 2017. – Б.488.

² Абдуллаева Н.М., Гаффарова. Г.Г. Философия и современность//Априори.Серия: Гуманитарные науки. – Краснодар, 2014. -№ 2. – С.3.

³ Юлдашева Ф. Модернизациянинг фалсафий жиҳатлари АДУ илмий хабарнома 2014 й № 4 Б.-38

allaqachon innovatsion taraqqiyot yo'liga o'tganlar, chunki innovatsiya – yangilik har qanday modernizatsiyaning asosi.

O'zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoev etakchiligida mamlakat islohotlar va modernizatsiya yo'lidan bormoqda. O'zbekistonning kelajagi innovatsion taraqqiyotsiz bo'lishi mumkin emas. "Innovatsiya bu – kelajak degani. Biz etuk jamiyatimizni barpo etishni bugundan boshlaydigan bo'lsak, uni aytgan innovatsion g'oyalar, innovatsion yondashuv asosida boshlashimiz kerak"¹.

Jamiyatning turli krizislarsiz barqaror taraqqiyoti, kishilar hayotining darajasi, farovonligi inson salohiyatini yanada rivojlantirish uchun ulkan imkoniyatlarni olib keladi. Bu jarayonlar o'zaro dialektik aloqador. Bu borada yuksak taraqqiyotga erishgan davlatlar o'z hayotida modernizatsiya va innovatsiya jarayonlarini muntazam amalga oshirib kelmoqdalar. Taraqqiyotning har qanday bosqichi modernizatsiyaning amalga oshuvi bilan bog'liq. Modernizatsiya amalga oshayotgan barcha sohalar xususiyatidan kelib chiqib, inson salohiyatining ma'lum shaklining namoyon bo'lishiga asoslanadi. Insonning salohiyati uning faoliyati orqali jamiyatning o'zgarishi, taraqqiy etishi va modernizatsiya jarayonlarining omili sifatida ishtirok etadi. Demak, inson salohiyatisiz birdek modernizatsiya ham, islohotlar ham amalga oshmaydi. Chunki insonning har qanday ijtimoiy faoliyatida salohiyatining biror qirradi aks etadi.

Modernizatsiya jarayonini amalga oshirishda inson salohiyati asosiy omil hisoblanadi. Har qanday taraqqiy etayotgan jamiyatda inson salohiyati zarur. Bu ob'ektiv jarayon madaniy-ma'naviy, iqtisodiyot, ilm-fan, siyosat, huquq, sohalarni

¹ Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Олий Мажлисга Мурожаатномаси Т.: Ўзбекистон, 2018. – Б.23.

to'la qamrab olishi sababli jamiyat sohaslarining o'zaro integratsiyasi asosida bitta yo'nalishda amalga oshirilgan o'zgarishlar, albatta, boshqa sohaning ham o'zgarishiga olib keladi.

Modernizatsiya jarayonida shunchaki faoliyat emas, insonning innovatsion faoliyati muhim rol o'ynaydi. "Innovatsion faoliyat (inglizcha "innovation" – yangilik, joriy etish, ixtiro) – ijtimoiy-iqtisodiy, tashkiliy, boshqaruv, texnik, madaniy-ma'rifiy sohalarda yangi g'oyalarni hayotga joriy etish, eng yangi texnika va texnologiyaning qo'llanilishini anglatadi". Innovatsion faoliyatning asosiy maqsadi turli xildagi yangiliklarni qo'llashdan iborat. Ijtimoiy hayotga tobora innovatsiyani tatbiq etish natijasida shaxs innovatsion xususiyat kasb etib boradi. Bunday shaxs innovatsion rivojlanishga ega. Bu jarayonni to'g'ri yo'naltirib borish hamda faoliyatining kengayishi innovatsion jamiyat shakllanishiga olib keladi.

Innovatsion xususiyatga ega bo'lib borayotgan hamda innovatsiyaga qiziquvchi, o'z faoliyatida tatbiq etuvchi va rivojlantiruvchi sub'ektlar jamiyatning ilg'or va yangicha fikrlovchi avlodlarining taraqqiyoti uchun yangi imkoniyatlar yaratiladi. Ularning salohiyatini yuzaga chiqarish uchun yangi sharoitlar yuzaga keladi. O'z navbatida inson faoliyatining yangi elementlari va shakllari paydo bo'ladi. Bunday sharoitda innovatsion shaxs shakllanib boradi. Bunday shaxs innovatsiyalarni o'zlashtirib boradi va ularning tarqalishiga katta ta'sir etadi. "Innovatsion shaxs innovatsion salohiyatga ega bo'lgan insondir. Innovatsion jamiyat shakllanishi jarayonida uning innovatsion salohiyati muhim ahamiyatga ega, chunki bu jarayon innovatsiyalarni o'zlashtirish, tadqiq etish va qabul qilish bilan bog'liqdir"¹.

¹ Эгамбердиев А. Ўзбекистонда модернизация шароитида ёшларда инновацион онг шаклланишининг ижтимоий-фалсафий муаммолари. Фалсафа фанлар доктори (PhD) диссертацияси. – Андижон, 2019. – Б. 82.

Demak, modernizatsiyani amalga oshirayotgan jamiyat bir vaqtning o'zida o'z hayotida tobora innovatsiyaning tarqalishiga va ulardan innovatsion faoliyatga erishib borayotgan jamiyat. Modernizatsiya erkinlik va demokratiyaga asoslanadi. Ijobiy natijalar olib kelayotgan globallashuvning gumanizmga asoslangan shakli inson taraqqiyoti, salohiyatining ortib borishiga katta ta'sir ko'rsatadi va modernizatsiya sur'atlarini tezlashtiradi. Bu jarayonlar inson salohiyatini yuzaga chiqarishda yanada kengroq imkoniyatlar yaratadi.

Davlatimiz rahbari "Yangi O'zbekiston strategiyasi" kitobida yoshlar oldiga qo'ygan vazifalarni hamda "2022 – 2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi Farmonda aks etgan vazifalarni amalga oshirishda yoshlarning shunchaki faoliyati emas, innovatsion faoliyati muhim rol o'ynashini ta'kidlaydi.

Inson tobora kirib kelayotgan yangi qadriyatlarni o'zlashtirib "zamonaviylashib" boradi. Unda yangicha dunyoqarash, bo'layotgan ijtimoiy hodisalarga faol munosabat, kreativ yondashuv shakllanadi. Bu jarayonlarning asosida innovatsion faoliyat yuzaga keladi. Insonning bunday zamonaviy xususiyatlari jamiyatda modernizatsiya jarayonlarining ham samaradorligiga ta'sir ko'rsatadi. Salohiyat, faoliyat haqida so'z borganda, bugungi kunning ob'ektiv ijtimoiy zaruriyatiga aylangan innovatsion faoliyat muammosiga alohida to'xtalish zarur. "Har qanday innovatsion faoliyat jarayoni yuqori samaradorlikka erishishga qaratilgan. Bu jarayonning qanday borishi va natijalari sub'ektlarning:

- innovatsiyalarni qidirib topishga intilishi va ularni o'z faoliyatiga tatbiq qila olishi;
- jamoa faoliyatini innovatsion asosda qura olishi;
- innovatsion g'oyalarni bera olishi;
- ilg'or fikrlarni anglab etishi va qabul qilishi;

- innovatsion ong va innovatsion tafakkurga ega bo'lishi hamda unga asoslangan innovatsion faoliyat olib borishi bilan bevosita bog'liqdir¹".

O'zbekiston jamiyati taraqqiyotining bugungi bosqichida shunchaki faoliyatni amalga oshirish emas, aynan innovatsiyalar asosida shakllangan innovatsion ong, innovatsion tafakkur, orqali namoyon bo'ladigan, mazkur hodisalar tomonidan deterministik shartlangan faoliyat talab etiladi. Innovatsion faoliyat yo'nalishlari to'g'risida turli falsafiy qarashlar va ilmiy yondashuvlar mavjud bo'lib, faylasuf olim A.S.Begmatov innovatsion faoliyatni quyidagicha tavsiflaydi: "Innovatsion faoliyat" atamasi ishlab chiqarishda yangi takomillashtirilgan mahsulotni yaratish bo'yicha xizmatlar bajarishni, yangi takomillashtirilgan texnologik jarayonni anglatadi. Innovatsion faoliyatning o'ziga xos xususiyatlari quyidagilardan iborat:

- yangi mahsulotni yaratish bo'yicha faoliyat;
- yangi original g'oyalarni tayyor mahsulot sifatida bozorga chiqarish;
- yangi original g'oyalarni takomillashtirish va h.k»².

Olim bu erda shaxs faoliyatining shunday qirrasiga e'tibor qaratmoqdaki, unga ko'ra shaxs mavjud ijtimoiy vaziyatga tanqidiy munosabatda bo'lib, ilmiy tadqiqot faoliyati natijasini amaliyotga tatbiq etish tufayli ijtimoiy jarayonga yangilik kiritishning uddasidan chiqadi.

Innovatsiya - bugungi taraqqiyot talabi. Shaxsdan jamiyat taraqqiyotiga mos ravishda o'z faoliyatini kengaytirib hamda salohiyatini yuksaltirib borishni talab etadi. 2017-yilda davlatimiz rahbari Sh.Mirziyoev Oliy Majlisga Murojaatnomasida

¹ Юлдашева Ф.Х., Эгамбердиев А.А. Инновациялар: инновацион онг ва инновацион фаолият. АДУ Илмий хабарнома, № 2 2017. - Б. 40-44.

² Бегматов А.С. Инновацион онг: моҳияти, функциялари ва шаклланиш шартлари. – Тошкент, 2017. – Б.3.

“Bugun biz davlat va jamiyat hayotining barcha sohalarini tubdan yangilashga qaratilgan innovatsion rivojlanish yo‘liga o‘tmoqdamiz. Bu bejiz emas, albatta. Chunki zamon shiddat bilan rivojlanib borayotgan hozirgi davrda yangi fikr, yangi g‘oyaga, innovatsiyaga tayangan davlat yutadi”¹, - deb ta‘kidlab, innovatsion faoliyat masalasiga to‘xtalgan edi. Prezidentimiz o‘z fikrini yana davom ettirib quyidagilarni ta‘kidlaydi: “Biz o‘z oldimizga O‘zbekistonni rivojlangan mamlakatga aylantirishni maqsad qilib qo‘ygan ekanmiz, bunga faqat jadal islohotlar, ilm-ma‘rifat va innovatsiyalar orqali erisha olamiz. Buning uchun, avvalo, islohotlarning amaliy natijadorligini oshirish, joylarda yangi tashabbuslarni ilgari surishda aholimizning yanada faol, yanada tashabbuskor bo‘lishiga erishmog‘imiz lozim”².

Jamiyatda qaysi sohada bo‘lmasin faoliyat olib borish uchun va shunchaki faoliyat emas, jamiyatning tez sur‘atlar bilan o‘sib borayotgan taraqqiyotiga mos keluvchi va uni ta‘minlovchi sub‘ektiv omil zarur. Bunday sub‘ektiv omilga – jamiyat a‘zolariga va aynan salohiyatlilarga qo‘yiladigan talab – yuksak salohiyatga ega bo‘lishdir. Chunki sub‘ektiv omilning yuksak salohiyati uning samarali natijaga ega bo‘lgan faoliyatini ta‘minlaydi. Bu nuqtai nazardan jamiyat, millat, ayniqsa, yoshlardan ulkan mas‘uliyat, shijoat, tinmay mehnat qilish, o‘z faoliyatiga kreativ yondashish hamda muntazam innovatsiyalarni tatbiq etish talab etiladi. Qayd etilgan holatlar sub‘ektlar faoliyatning samaradorligini ta‘minlaydi.

Prezident Sh.Mirziyoyev tomonidan imzolangan “2022 — 2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risi”dagi PF-60-son O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmonida jamiyat oldiga “...mahallalarning

¹ <https://president.uz/uz/lists/view/1371> Мурожаат этилган сана: 13.03.2022

² Мирзиёев Ш. Янги Ўзбекистон стратегияси. – Т.: О‘zbekiston, 2021. – Б.23.

“o‘shish nuqtalari” va ularda yashovchi aholining tadbirkorlik faoliyatidagi ixtisoslashuvidan kelib chiqib, ularda istiqomat qilib, faoliyat yurituvchi aholini davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash tizimi samaradorligi oshirilsin”¹ deyilgan. Ko‘rinib turibdiki, Strategiyada aholining ixtisoslashuvi, demak mavjud salohiyatidan kelib chiqib, ularning faoliyatini tashkil etish asosida “Mamlakatda yangi ish o‘rinlari yaratish, aholi daromadlarini oshirish va shu orqali 2026 yil yakuniga qadar kambag‘allikni kamida 2 baravarga qisqartirish”² vazifasi qo‘yilgan.

2022 — 2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasining IV qismi “Adolatli ijtimoiy siyosat yuritish, inson kapitalini rivojlantirish” deb nomlanib, unda 27-50 chi maqsadlarda ta‘lim tizimini tubdan o‘zgartirish va unda yuqori salohiyatli yoshlarni tarbiyalash maqsadi va uni amalga oshirish mexanizmi aks etgan. 70 chi maqsad “yoshlarga oid davlat siyosatini takomillashtirish”ga bag‘ishlangan. Unda yoshlarning ma‘naviy, ijtimoiy, jismoniy va axloqiy jihatdan kamol topishiga ko‘maklashish “iqtidorli va iste‘dodli yoshlarni qo‘llab-quvvatlash hamda rag‘batlantirish”³ vazifasi qo‘yilgan. Shu bilan birga “Yangi O‘zbekiston — ma‘rifatli jamiyat” konsepsiyasini amalga oshirish, aholiga axborot-kutubxona xizmatini ko‘rsatishni yanada rivojlantirish, kitobxonlikni keng ommalashtirish hamda “Kitobsevar millat” umummilliy g‘oyasini ro‘yobga chiqarish, buyuk ajdodlarimizning boy ilmiy merosini chuqur o‘rganish va keng targ‘ib etish, jamiyatda millatlararo totuvlik va dinlararo bag‘rikenglik muhitini mustahkamlash, aholi salomatligi va genofondiga ziyon etkazadigan mavjud ekologik muammolarni bartaraf etish, mamlakatda yangi ish

¹ <https://lex.uz/uz/docs/5841063> Мурожаат этилган сана: 14.03.2022

² <https://lex.uz/uz/docs/5841063> Мурожаат этилган сана: 14.03.2022

³ <https://lex.uz/uz/docs/5841063> Мурожаат этилган сана: 14.03.2022.

o'rinlari yaratish, kabi inson salohiyatini yuksaltirishga qaratilgan jarayonlar o'ziga xos maqsadlar sifatida belgilab berilgan¹.

Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 06.04.2022 yildagi "Tashqi savdo faoliyati ishtirokchilarini qo'llab-quvvatlashning qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni qabul qilindi. Ushbu farmonga muvofiq 2022-yil 1-apreldan boshlab:

1. 2023-yil 1-aprelga qadar:

- mahalliy korxonalar (ularning vakolatli vakillari)ga Yevropa Ittifoqi davlatlariga yuqori qo'shilgan qiymatli mahsulotlarni eksport qilishda tashish harajatlarini 70 foizgacha miqdorda kompensatsiya qilishga subsidiyalar taqdim etiladi;

- qo'shni davlatlarga eksport qilingan yuqori qo'shilgan qiymatga ega mahsulotlarni eksport qilishda tashish harajatlarini 50 foizgacha miqdorda kompensatsiya qilishga subsidiyalar taqdim etiladi;

2. Muvofiqlikni baholash organlarini xalqaro ILAC/IAF tashkilotlari a'zosi hisoblangan akkreditatsiya idorasi tomonidan akkreditatsiyadan o'tkazish bilan bog'liq harajatlar Eksportni rag'batlantirish agentligi tomonidan qoplab beriladi;

3. Tadbirkorlik sub'ektlari tomonidan tovarlar (maxsus turdagi tovarlardan tashqari), ishlar va xizmatlar eksportini shartnoma tuzmasdan hisobvaraqa-fakturalar (invoyslar) asosida amalga oshirishda talab etiladigan oldindan to'lov miqdori 100 foizdan 50 foizga kamaytiriladi².

O'zbekistonda hozirgi kunda amalga oshayotgan islohotlarning borishi, muvaffaqiyati va samaradorligi inson omili va uning salohiyatiga bog'liq. "Bugun biz davlat va jamiyat

¹<https://lex.uz/uz/docs/5841063> Мурожаат этилган сана: 14.03.2022 (Қонунчилик маълумотлари миллий базаси, 29.01.2022 й., 06/22/60/0082-сон).

²https://www.norma.uz/uz/qonunchilikda_yangi/davlat_tashqi_savdo_faoliyatiishtirokchilarini_qullab-quvvatlaydi Мурожаат этилган сана: 08.04.2022

hayotining barcha sohalarini tubdan yangilashga qaratilgan innovatsion rivojlanish yo'liga o'tmoqdamiz. Bu bejiz emas, albatta. Chunki zamon shiddat bilan rivojlanib borayotgan hozirgi davrda kim yutadi? Yangi fikr, yangi g'oyaga, innovatsiyaga tayangan davlat yutadi. Innovatsiya – bu kelajak degani. Biz buyuk kelajagimizni barpo etishni bugundan boshlaydigan bo'lsak, uni aynan innovatsion g'oyalari, innovatsion yondashuv asosida boshlashimiz kerak”¹.

Bir qator olimlar ayrim jamiyatlarda modernizatsiyaga katta e'tibor qaratilib, o'ta zamonaviylikka berilib ketish milliy etnostatus, milliy qadriyatlar va milliy o'zlikni anglashni xavf ostiga qo'yishi mumkinligi to'g'risida ogohlantiradi. Innovatsiyalar milliy ongga nisbatan texnologiyalar taraqqiy etishi natijasida texnologik ongni shakllanishiga katta ta'sir ko'rsatadi. Albatta, ilm-fan, texnika, ishlab chiqarish texnologiyalarining taraqqiy etishi jamiyatning iqtisodiy farovonligini hamda aholi turmush darajasini o'sishiga olib keladi. Professor S.Atamuratov bu masalada quyidagi fikrlarni aytadi: “Texnogen ongning rivojlanishiga yaxshi tomonlama qarash to'g'ri bo'ladi. Birinchidan, u yangi texnika va texnologiyani yaratishga hamda bu bilan insonlarning moddiy farovonligini oshirishga yordam beradi. Bu insoniyatning moddiy ehtiyojlari tez o'sib borayotgan bugungi kun uchun amaliy ahamiyatga egadir. Ish bilan barcha texnika va texnologiyani boshqarish imkoniyati inson qo'li va insoniyat salohiyati darajasidan ilgarilab ketishi uning, oxir oqibatda, o'zini-o'zi halokatga mahkum etishi mumkinligini ham hisobga olish o'ta muhim”².

¹ Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Олий Мажлисга Мурожаатномаси 22.12.2017. <https://president.uz/uz/lists/view/1371> Мурожаат этилган сана: 08.04.2022

² Атамуратов С. Глобаллашув: миллатни асраш масъулияти. Т.: “O'zbekiston”, 2018.- Б.128

Inson salohiyati

Inson salohiyatini o'rganishga intilish bu jamiyat va insoniyatning hayotiylikini o'rganish bilan bog'liq muammo hisoblanadi. Jamiyat qanday qilib o'z hayotining davomiyligini va uzluksizligini, progressivligini ta'minlashi mumkinligini tahlil etish bo'yicha turli-tuman iqtisodiy, siyosiy va boshqa nazariyalar yaratilgan. Bunday o'rganish davomida ko'p yondashuvlarning markazida insonning roli, sub'ektiv omillarning o'rnini e'tirof etilgan. Barcha nazariyalarning birlashtiruvchi xususiyati shundaki, ularda inson taraqqiyoti dialektik va dinamik jarayon sifatida qaralgan. "Inson taraqqiyoti" va inson salohiyati tushunchalarini solishtirsak, insonning har qanday taraqqiyoti uning salohiyati taraqqiyotini ham bildirishini anglaymiz.

Taraqqiyotning o'ta jadallashib borayotgan hozirgi davrida inson salohiyati ijtimoiy makonda, tarixiy jarayonda mavjudlikning va taraqqiy etishning omili ekanligi aniq. O'zbekistonning kelajagi haqida fikr yuritilganda, hozirgi kundagi islohotlarning natijasi va samaradorligi inson salohiyatining yuksalishi uchun xizmat qilayotganligi hamda dolzarb faoliyat turlarini kengayib borishi uchun qanday sharoitlar yaratilayotganligi muhimligini nazarda tutish zarur.

Dunyoning bir qator ilmiy markazlari va ilmiy tadqiqot institutlarida inson salohiyatini o'rganishga katta ahamiyat berilayotganligi bugungi kunda inson salohiyati muammosining dolzarb bo'lib borayotganligidan dalolat beradi. Chunki har qanday ob'ektiv taraqqiyotning sub'ektiv omili inson va uning salohiyati asosida faoliyat olib borishni to'g'ri tashkil etishga bog'liq.

O'zbekistonda inson salohiyatidan to'g'ri foydalanish inson salohiyatining yuzaga chiqishi uchun imkoniyatlar, sharoit yaratish, mamlakatda to'plangan mavjud salohiyatni to'g'ri taqsimlash va to'g'ri realizatsiya qilish hamda buning asosida

tashkil etiladigan, amalga oshadigan faoliyatni maqsadli to'g'ri yo'naltirish, salohiyatli kadrlarni ob'ektiv baholab joy-joyiga qo'yish orqali etarli darajada realizatsiya qilish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi.

Jamiyatda demokratik islohotlar har bir shaxsning orzu-umidlari va oldiga qo'ygan maqsadlarini amalga oshishi hamda tobora ortib borayotgan ehtiyojlarini qondirish uchun keng imkoniyatlarni yaratadi. Bunday imkoniyatlardan to'g'ri foydalanish uchun jamiyat a'zosining har biri yuqori ma'naviy ong va zarur salohiyatga, ya'ni etarli ko'nikmaga, malakaga, ilg'or dunyoqarashga, zamonaviy bilimlarga ega bo'lishi zarur. Sanab o'tilgan elementlardan iborat salohiyat jamiyat taraqqiyotining sub'ektiv omili uchun ma'lum zamin hamda imkoniyat beruvchi omil hisoblanadi.

Jamiyat taraqqiyotining zamonaviy talablari shaxsdan yangicha yondashuv, kreativlik, bir so'z bilan aytganda, shaxsdan ham yangilanishni talab etadi. Bu borada rahbarning roli katta bo'lib, unga xos xususiyatlar va uning etakchilik salohiyati boshqalarga ham ta'sir etishi, etakchi sifatida ularni ma'lum faoliyatga yo'naltirishi, to'g'ri orientatsiya berishi muhim hisoblanadi. "Bugun bizga mas'uliyatni dadil zimmasiga oladigan, bilimli, dunyoqarashi keng, madaniyatli, huquqiy ongi kuchli, qat'iyatli, bir so'z bilan aytganda, zamonaviy rahbarlar kerak. Barcha jabhalarda shiddatli raqobat kechayotgan hozirgi davrda rahbarlar zimmasidagi mas'uliyat va ularga qo'yilayotgan talablar kuchaymoqda. Turli bo'g'indagi rahbarlar nafaqat etakchilik qobiliyati, odob-axloqi va muomala madaniyati bilan ham o'rnak bo'lishi lozim. Zero, muomala odob-axloq madaniyatimizning muhim mezonlaridandir"¹.

¹ Ўқиган ўқдан ўзар. С.ф.д., проф.Алишер Файзуллаев билан суҳбат.// Тафаккур. - Тошкент, 2018. №1.-Б.8.

Bundan kelib chiqadiki, rahbar etakchiligida butun guruh yoki jamoa a'zolari yangicha fikrlash, faol ongga hamda kreativ tafakkurga, yuksak ma'naviy-axloqqa ega bo'lishi, bir so'z bilan aytganda, yangilanishi talab etiladi. Ilg'or tashabbuslarning jamoa tomonidan qo'llab-quvvatlanishi muhim ahamiyat kasb etadi. "Har qanday progressiv tashabbus ko'pchilik tomonidan qo'llab-quvvatlangandagina, u amaliyotga aylanadi. Bu sohada, ayniqsa, rahbarning o'rni va tutgan yo'li muhim bo'lib, uning xatti-harakatlari va faoliyati u rahbarlik qilayotgan jamoa yoki yo'nalishning ham faoliyatini belgilaydi. Rahbar dunyoqarashi, yuksak axloq, erkin va chuqur fikrlash, yangicha tafakkurga asoslanishi talab etiladi"¹.

Aynan inson salohiyati O'zbekistonda amalga oshirilayotgan modernizatsiya jarayonlari hamda barcha sohalarda borayotgan islohotlarning muhim omili sifatida jamiyat taraqqiyotining harakatlantiruvchi kuchi sifatida namoyon bo'lmoqda. Inson salohiyatidan to'g'ri foydalana olish, uni maqsadli realizatsiya qilib borish, muntazam mamlakat va millatning o'sib borayotgan ehtiyojlarini, manfaatlarini hisobga olib borish, albatta, davlatimizning barqaror iqtisodiy-ijtimoiy taraqqiyotiga progressiv ta'sir ko'rsatishi aniq. Ob'ektiv tarixiy shart-sharoitlar, tarixiy imkoniyatlarga sub'ektiv omil va uning salohiyatining mos tushishi o'ta muhim bo'lib, bu holat jamiyatning kelajak taraqqiyotiga katta ta'sir ko'rsatadi.

Mamlakatning barqaror rivojlanishi va raqobatbardoshlik xususiyati uning strategik maqsadlarini amalga oshirishda katta ahamiyat kasb etadi. Bu jarayonni ta'minlashning muhim omili esa inson salohiyati asosiga qurilgan faoliyat hisoblanadi. O'z evolyusion taraqqiyotida modernizatsiya va innovatsiyani

¹ Юлдашева Ф. Ўзбекистонда глобаллашув шароитида маънавий янгиланишнинг ўзига хос хусусиятлари Фалсафа фанлари бўйича фалсафа доктори (DSc) диссертацияси. – Т.: 2019. – Б. 187.

amalga oshirayotgan davlatlar, albatta, inson salohiyati, uni rivojlantirish hamda realizatsiya qilishning o'ziga xos va samarali yo'llarini qidirib topib, bu jarayonni ob'ektiv ehtiyojlarni qondirishga tomon yo'naltirishlari muhim ahamiyat kasb etadi.

Salohiyat va faoliyat o'zaro bog'liqligi masalasini nazariy to'g'ri hal etish, salohiyatni saqlash, yuzaga chiqarish, rivojlantirish, to'g'ri taqsimlash va uni kelajak avlodlarga etkazib berish muammosining progressiv hal etilishi inson salohiyati va faoliyatini yanada rivojlantiradi.

Inson salohiyatini yuzaga chiqarish va rivojlantirish mavjud salohiyatni to'g'ri realizatsiya qila olishni talab etadi. Kompyuter, internet, raqamlashtirish, sun'iy intellekt, masofaviy ta'lim, ijtimoiy tarmoqlardan maqsadli foydalanish lozim. Bunday ulkan innovatsiyalarning ta'siri jamiyat va inson hayotining barcha sohalarida uchrashi tabiiy.

Inson faoliyatini tahlil etishda, albatta, unga dialektik aloqador bo'lgan ehtiyoj, maqsad, manfaat, motiv, sharoit, imkoniyat kabi ijtimoiy-antropologik hodisalarni ham falsafiy jihatdan o'rganish zarur.

Umuman olib qaraganda, faoliyatning xususiyatlarini quyidagicha tavsiflash mumkin:

- Har qanday faoliyat ma'lum maqsadga yo'nalgan;
- olamni inqilobiy o'zgartirishi;
- yaratuvchanlik va borliqni o'zlashtirish;
- ma'lum predmetliligi;
- deterministik xususiyati;
- tabiiy va ijtimoiy shart-sharoitlarga bog'liqligi;
- vazifalarning bo'linishi;
- davomiy va cheksizligi;
- dialektik xususiyati va boshqalar¹.

¹ Назаров Қ. Жаҳон фалсафаси қомуси. II. О-Х Ўзбекистон файласуфлари миллий жамияти, Маънавият нашриёти 2019. – Б. 418.

O'zbekistonda inson salohiyatini yuksaltirish, faoliyatini xalqaro mezonlarga mos ravishda kengaytirish mamlakatimiz taraqqiyotining muhim omillaridan ekanligi ma'lum bo'ldi. Bu borada O'zbekistonning xalqaro maydonda o'z mavqeiga ega bo'lishi, iqtisodiy, siyosiy, madaniy va boshqa xalqaro munosabatlarning faol sub'ektiga aylanib, Markaziy Osiyodagina emas, jahon miqyosida tan olinishi ko'p jihatdan yuqorida tahlil etilgan inson salohiyati muammosining ham to'g'ri hal etilishiga aloqador. Bu nuqtai nazardan o'zbek millatining boshqa xalqlar va mamlakatlarning tajribasini o'zlashtira olishi progressiv taraqqiyotga xizmat qiladi. Bu borada milliy qadriyatlar va turmush tarzi bilan cheklanib qolishning o'zi kamlik qiladi.

Milliy o'zlikni anglash millat shakllanishining shartlaridan biri bo'lib, u o'zga millatlar va ularning tajribasi, madaniyatini inkor etish hisobiga emas, aksincha, ularga hurmat bilan qarash, o'zini boshqa millatlar madaniyati va ma'naviyatiga taqqoslash, ularning ilg'or tomonlaridan o'rnak olish va o'zlashtirish orqali o'ziga xosligi va mentalitetini saqlab qolish demakdir. "Binobarin, biz davlatimiz kelajagini o'z qobig'imizga o'ralib qolgan holda emas, balki umumbashariy va demokratik qadriyatlarni chuqur o'zlashtirgan holda tasavvur etamiz. Biz istiqbolimizni taraqqiy topgan mamlakatlar tajribasidan foydalanib, davlat va jamiyat boshqaruvini erkinlashtirish, inson huquq va erkinliklarini, fikrlar rang-barangligini o'z hayotimizga yanada kengroq joriy qilishda ko'ramiz. Biz butun ma'rifatli dunyo, xalqaro hamjamiyat bilan tinch-totuv, erkin va farovon hayot kechirish, o'zaro manfaatli hamkorlik qilish tarafdorimiz"¹.

Inson faqatgina jamiyatda yashaganligi uchun ijtimoiy mohiyat kasb etadi. Agar jamiyatda yashamaganda insoniylik qiyofasiga ega bo'lmas edi. Inson aynan ma'lum bir faoliyati

¹ Каримов И.А. Юксак маънавият - енгилмас куч.-Тошкент: Маънавият, 2008.-Б.114.

orqali ijtimoiy mohiyat kasb etadi. Bu jarayon bevosita boshqa sub'ektlar bilan o'zaro aloqaga kirishishni ta'minlaydi.

Faoliyat jarayoni bevosita sub'ektning mehnat jarayoni sifatida tushuniladi. Insonning o'zga insonlar yoki jamiyat bilan o'zaro aloqalarni o'rnatishi bevosita faoliyat orqali amalga oshadi.

Innovatsion faoliyat faoliyatning yuqori bosqichi bo'lib, ehtiyojlarning ortib borishi natijasida vujudga kelgan. Innovatsion faoliyat turli yangiliklarni insonlar hayotiga olib kirishdan iborat.

Agar jamiyatda modernizatsiya jarayonlari qo'llanilayotgan bo'lsa demak, innovatsion taraqqiyot bosqichiga o'tilgan hisoblanadi. Modernizatsiya jarayonlari inson salohiyatini yanada kengroq yuzaga chiqishini ta'minlaydi.

Nazorat uchun savollar:

1. Modernizatsiya tushunchasiga ta'rif bering.
2. Modernizatsiyaga qanday yondashuvlar mavjud?
3. Innovatsion faoliyat nima?
4. Salohiyat va faoliyat o'zaro bog'liqligi qanday?
5. Faoliyatning xususiyatlari qanday tavsiflanadi?

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

Normativ-huquqiy hujjatlar va metodologik ahamiyatga molik nashlar

1. Ўзбекистон Республикаси Конституцияси.
<https://lex.uz/docs/6445145>

2. Ўзбекистон Республикасининг “Таълим тўғрисида”ги Қонуни. Ўзбекистон Республикасининг Қонуни, 23.09.2020 йилдаги ЎРҚ-637-сон. <https://lex.uz/docs/5013007>

3. Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантириш бўйича Ҳаракатлар стратегияси тўғрисида. Расмий нашр. – Тошкент: Адолат, 2017. – Б.112.

4. Ўзбекистон Республикасининг 2016 йил 14 сентябрь “Ёшларга оид давлат сиёсати тўғрисида”ги ЎРҚ-406-сон Қонуни. (Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлари тўплами, 2016 й., 37-сон, 426-модда; 2017 й., 24-сон, 487-модда; Қонун ҳужжатлари маълумотлари миллий базаси, 24.07.2018 й., 03/18/486/1559-сон; Қонунчилик маълумотлари миллий базаси, 21.04.2021 й., 03/21/683/0375-сон; 26.01.2022 й., 03/22/747/0064-сон)

5. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 17 февралдаги ПҚ-2789-сон “Фанлар академияси фаолияти, илмий-тадқиқот ишларини ташкил этиш, бошқариш ва молиялаштиришни янада такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги Қарори. (Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлари тўплами, 2017 й., 8-сон, 117-модда, 23-сон, 447-модда, 36-сон, 950-модда; Қонун ҳужжатлари маълумотлари миллий базаси, 03.03.2018 й., 06/18/5329/0846-сон, 06.04.2018 й., 06/18/5399/1018-сон; 28.09.2020 й., 06/20/6075/1330-сон; 19.03.2021 й., 07/21/5032/0226-сон)

6. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2018 йил 27 июнь “Yoshlar – kelajagimiz” Давлат дастури тўғрисида»ги ПФ-5466-сон Фармони.

7. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 21.09.2018 йилдаги ПФ-5544-сон “2019 — 2021 йилларда Ўзбекистон Республикасини инновацион ривожлантириш стратегиясини

тасдиқлаш тўғрисида”ги Фармони. (Қонун ҳужжатлари маълумотлари миллий базаси, 22.09.2018 й., 06/18/5544/1951-сон; 08.03.2019 й., 06/19/5687/2723-сон, 11.12.2019 й., 06/19/5892/4134-сон; 20.03.2020 й., 06/20/5971/0348-сон; 28.09.2020 й., 06/20/6075/1330-сон; Қонунчилик маълумотлари миллий базаси, 23.08.2021 й., 06/21/6280/0811-сон; 18.03.2022 й., 06/22/89/0227-сон)

8. Ўзбекистон Республикаси Президентининг “2017-2021 йилларда Ўзбекистон Республикасини ривожлантиришнинг бешта устувор йўналиши бўйича Ҳаракатлар стратегиясини “Ёшларни қўллаб-қувватлаш ва аҳоли саломатлигини мустаҳкамлаш йили”да амалга оширишга оид Давлат дастури тўғрисида”ги 2021 йил 3 февраль ПФ-6155-сон Фармони. (Қонун ҳужжатлари маълумотлари миллий базаси, 04.02.2021 й., 06/21/6155/0082-сон; Қонунчилик маълумотлари миллий базаси, 05.10.2021 й., 07/21/5254/0933-сон)

9. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг “Ўзбекистонда Ёшларга оид давлат сиёсатини 2025 йилгача ривожлантириш концепциясини тасдиқлаш тўғрисида”ги 2021 йил 18 январь 23-сон Қарори.

10. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2019 йил 8 октябрдаги “Ўзбекистон Республикаси олий таълим тизимини 2030 йилгача ривожлантириш Концепциясини тасдиқлаш тўғрисида” ПФ-5847-сонли Фармони. (Қонун ҳужжатлари маълумотлари миллий базаси, 09.10.2019 й., 06/19/5847/3887-сон; 30.04.2020 й., 06/20/5987/0521-сон; Қонунчилик маълумотлари миллий базаси, 09.11.2021 й., 06/21/3/1037-сон, 18.03.2022 й., 06/22/89/0227-сон)

11. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2019 йил 3 майдаги “Иқтидорли ёшларни аниқлаш ва юқори малакали кадрлар тайёрлашнинг узлуксиз тизимини ташкил этиш чора-тадбирлари тўғрисида”ги ПҚ-4306-сон Қарори.

12. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2019 йил 30 августдаги “Ёшларни илм-фан соҳасига жалб этиш ва уларнинг ташаббусларини қўллаб-қувватлаш тизимини такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги ПҚ-4433-сонли Қарори

13. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2018 йил 25 сентябрдаги “Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамаси

ҳузуридаги мутахассисларни хорижда тайёрлаш ва ватандошлар билан мулоқот қилиш бўйича “Эл-юрт умиди” жамғармаси фаолиятини ташкил этиш тўғрисида”ги ПФ-5545-сон Фармони.

14. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2022 йил 28 январдаги “2022-2026 йилларга мўлжалланган Янги Ўзбекистоннинг тараққиёт стратегияси” ПФ-60-сонли Фармони // (Қонунчилик маълумотлари миллий базаси, 29.01.2022 й., 06/22/60/0082-сон, 18.03.2022 й., 06/22/89/0227-сон) <https://lex.uz/pdfs/5841063>

15. Мирзиёев Ш.М. Миллий тараққиёт йўлимизни қатъият билан давом эттириб, янги босқичга кўтарамиз. 1-жилд. – Тошкент: Ўзбекистон, 2017. – 592 Б.

16. Мирзиёев Ш.М. Буюк келажагимизни мард ва олижаноб халқимиз билан бирга қурамиз. – Тошкент: Ўзбекистон, 2017. – Б.488.

17. Мирзиёев Ш.М. Халқимизнинг розилиги бизнинг фаолиятимизга берилган энг олий баҳодир. 2-жилд. – Тошкент: Ўзбекистон, 2018. – 508 Б.

18. Мирзиёев Ш.М. Нияти улуғ халқнинг иши ҳам улуғ, ҳаёти ёруғ ва келажаги фаровон бўлади. 3-жилд. – Тошкент: Ўзбекистон, 2019. – 400 Б.

19. Мирзиёев Ш.М. Миллий тикланишдан – миллий юксалиш сари. 4-жилд. – Тошкент. Ўзбекистон, 2020. – 456 Б.

20. Мирзиёев Ш.М. Гўзал ва бетакрор ўлка. (Наманган вилояти сайловчилар вакиллари билан учрашувдаги нутқ). Мирзиёев Ш. Буюк келажагимизни мард ва олижаноб халқимиз билан бирга қурамиз. - Тошкент: Ўзбекистон, 2017.-Б.103.

21. Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Олий Мажлисга Мурожаатномаси. 22 декабрь, 2017 йил. - Тошкент: Ўзбекистон, НМИУ, 2018.-Б.79.

22. Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Олий Мажлисга Мурожаатномаси. Т.: Ўзбекистон, 2018. – Б.23.

23. Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Олий Мажлисга мурожаатномаси (2020 йил 29

декабрь)[https://nrm.uz/contentf?doc=646642_o%E2%80%98zbekiston_respublikasi_prezidenti_shavkat_mirzиеevning_oliy_majlisga_murojaat_nomasi_\(2020_yil_29_dekabr\)&products=1_vse_zakonodatelstvo_uzbeki_stana](https://nrm.uz/contentf?doc=646642_o%E2%80%98zbekiston_respublikasi_prezidenti_shavkat_mirzиеevning_oliy_majlisga_murojaat_nomasi_(2020_yil_29_dekabr)&products=1_vse_zakonodatelstvo_uzbeki_stana)

24. Мирзиёев Ш. М. Асосий мақсад - мамлакатимизда инсон капиталини ривожлантириш. www.president.uz/uz/2604

25. Мирзиёев Ш.М. Янги Ўзбекистон стратегияси. – Тошкент.: 2021.- Б.457.

Monografiya, ilmiy maqola va ilmiy to'plamlar

26. Абдуллаева Н.М., Гаффарова. Г.Г. Философия и современность//Apriori.Серия: Гуманитарные науки. – Краснодар, 2014. -№ 2. – С.3.

27. Акрамова Ш. Г. Инсон капитали: моҳияти ва уни ўрганишга ёндашувлар. Иқтисод ва молия / Экономика и финансы № 10, 2011. Б.53-57. <https://cyberleninka.ru/article/n/inson-kapitali-mo-iyati-va-uni-rganishga-yondashuvlar>;

28. Ахунов М.А. Инсон омили - ижтимоий иқтисодий тараққиётнинг етакчи кучи ва бош мақсади. // Илмий хабарнома. Андижон. АндДУ, 2016. № 4.-Б.51.

29. Назаров Қ. Дунёқараш ва тафаккуримизни ўзгартираётган маънавий мезонлар. // Ўзбекистон демократик ислохотлар ва фуқаролик жамиятини ривожлантириш йўлида. Республика илмий-амалий конференция материаллари тўплами.-Тошкент: Академия,2012.-Б.5.

30. Саидов А. Конституционное регулирование прав в Узбекистане. // Ижтимоий фикр. Инсон Ҳуқуқлари. -Тошкент, 2014. № 4.-С.15.

31. Салоҳўжаев Р. Инсон капитали тараққиёти замонавий иқтисодиётни ривожлантиришнинг ягона йўли. https://review.uz/oz/post/rauf-saloxojaev-inson-kapitali-taraqqiyyoti-6.17_zamonaviy-iqtisodiyotni-rivojlantirishning-yagona-yoli;

32. Ҳамидов З. Ш. Абайнинг “Насихатлар” асарида ахлоқ ва ахлоқийлик масалалари . // АДУ Илмий хабарнома. – Андижон. 2018. № 4. Б. 54-57

33. Хошимов П.З., Шамсиева Ю.О., Интеллектуал салоҳият ижтимоий-иқтисодий категория сифатида. Иқтисод ва молия / Экономика и финансы 2019, 12(132). <https://cyberleninka.ru/article/n/intellektual-salo-iyat-izhtimoiy-i-tisodiy-kategoriya-sifatida/viewer>

34. Юлдашева Ф. Модернизациянинг фалсафий жиҳатлари. // АДУ Илмий хабарнома. – Андижон. 2014. № 4 Б.37-41.

35. Юлдашева Ф.Х., Эгамбердиев А.А. Инновациялар: инновацион онг ва инновацион фаолият. АДУ Илмий хабарнома, № 2 2017. - Б. 40-44.

36. Юнусов К. Мамлакатимизнинг модернизациялашуви жараёнида жамиятни креатив бошқаришни тадқиқ этиш муаммолари. // АДУ Илмий хабарнома.-Андижон. 2016. №3. Б.37-40.

37. Ўқиган ўқдан ўзар. С.ф.д., проф. Алишер Файзуллаев билан суҳбат.// Тафаккур. - Тошкент, 2018. № 1.-Б.8-13.

Kitob, monografiya, risola va maqolalar

38. Falsafa. Ahmedova M.A., Xan V.S., Alimova D.A. va boshq.; Ahmedova M.A.umumiy tahriri ostida: O'zR Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi. — T.: O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti, 2006. - 299-b.

39. Абдурахмонов. Қ.Х., таҳрири остида. Инсон тараққиёти. Дарслик. – Т.: Иқтисодиёт, 2013. – 542 б.

40. Абдурахмонов Қ.Х., Холмўминов Ш.Р., Зокирова Н.Қ. Персонални бошқариш. Т.: “O'QITUVCHI” 2008. <http://library.tuit.uz/skanir knigi/book/personalni boshqarish/1-2%20bob.htm>

41. Абу Наср Форобий. Фозил одамлар шахри.-Т.: А.Қодирий нашриёти. 1993. – 223 б.

42. Абу Наср Форобий. Одамларнинг бирлашувига ўзаро ёрдамга эҳтиёжи борлиги ҳақида. Фозил одамлар шахри. – Т.: Янги аср авлоди, 1993.

43. Бегматов А. Инновацион онг: моҳияти, функциялари ва шаклланиш шартлари.- Т., 2016.- 74 б.

44. Ваҳобов А. В., Иброҳимов А. Т. Молиявий таҳлил: Дарслик.

— Т.: «Шарқ», 2002. — 224 б.

45. Гимуш Р.И., Матмуродов Р.М. Инновацион менеджмент. - Тошкент, 2008.

46. Давлатимизнинг юксак мукофотлари топширилди. // Халқ сўзи. 2017 йил, 8 декабрь, 247-сон.

47. Жомий. Ҳафт авранг. —Т., 1914. Б. 81.

48. Каримов И.А. Озод ва обод Ватан, эркин ва фаровон ҳаёт – пировард мақсадимиз.-Т.8. –Тошкент: Ўзбекистон, 2000.

49. Каримов И.А. Юксак маънавият – енгилмас куч. –Тошкент: Маънавият, 2008.

50. Маънавият: изоҳли луғат.-Тошкент: Маънавият, 2010.

51. Мавлонова Р., Рахмонқулова Н. Бошланғич таълим педагогикаси. Инновация ва интеграция. - Тошкент: Voris-nashriyoti, 2012;

52. Назаров Қ. Жаҳон фалсафаси қомуси. I. А-Н Ўзбекистон файласуфлари миллий жамияти, Маънавият нашриёти 2019. – Б.82

53. Назаров Қ. Жаҳон фалсафаси қомуси. II. О-Ҳ Ўзбекистон файласуфлари миллий жамияти, Маънавият нашриёти 2019.

54. Отамуратов С. Глобаллашув: Миллатни асраш масъулияти (сиёсий - фалсафий қирралар).-Т.: – “O'zbekiston”, 2018.– 352 б.

55. Ортиқов Т., Алиев Р.. Маънавият ва маърифат таҳлили. Андижон: “Ҳаёт” , 2018.- 128 б.

56. Салоҳўжаев Р. Инсон капитали тараққиёти замонавий иқтисодий ривожлантиришнинг ягона йўли <https://review.uz/oz/post/rauf-saloxojaev-inson-kapitali-taraqqiyyoti-zamonaviy-iqtisodiyotni-rivojlantirishning-yagona-yoli>

57. Фалсафа: Энциклопедик луғат. – Т.: “Ўзбекистон миллий энциклопедияси” Давлат илмий нашриёти, 2010 – Б. 281.

58. Ташкенбаев У., Ўзбекистонда шахс ўз салоҳиятининг неча фоизидан фойдалана олиши ҳисоблаб чиқилди <https://kun.uz/news/2020/10/18/ozbekistonda-shaxs-oz-salohiyatining-necha-foizidan-foydalana-olishi-hisoblab-chiqildi>

59. Энгельс Ф. Маймуннинг одамга айланиш процессида меҳнатнинг роли. Т.: - 1947, Б. – 1

60. Хошимов П.З., Шамсиева Ю.О., Интеллектуал салоҳият ижтимоий-иқтисодий категория сифатида. Иқтисод ва

молия / Экономика и финансы 2019, 12(132).
<https://cyberleninka.ru/article/n/intellektual-salo-iyat-izhtimoiy-i-tisodiy-kategoriya-sifatida>

61. Хуррамова З., Тошалиева С., Туропов Ж. Жаҳон иқтисодиёти ва халқаро иқтисодий муносабатлар. Қарши, Насаф нашриёти, 2007. 164 – б.

62. Қодиров А. Анъанавий жамият ва уни модернизациялаштириш стратегияси. Т., 2006. – 157 б.

63. Шайхова Х. Интеллектуал салоҳият – тараққиёт мезони. - Т.: 2011 Ўзбекистон НМИУ.112 б.

64. Фалсафа қомусий луғат. Т.: Ўзбекистон файласуфлари миллий жамияти нашриёти, Шарқ нашриёти. 2004. Б. 495.

65. Falsafa: Oliy o'quv yurtlari uchun o'quv qo'llanma / E.Y.Yusupov, S.Sh.Shermuhamedov, A.T.Ayupov va boshq. to'ldirilgan 2- nashri. – Т.: “Oqituvchi” NMI 2005. -В.167.

Dissertatsiya va avtoreferatlar

66. Абдурахмонов Х.И. Замонавий ёшлар дунёқарашида инновацион тафаккурни шакллантиришнинг ижтимоий омиллари. Фалсафа фанлар доктори (PhD) диссертацияси – Андижон, 2021. Б. 141.

67. Артикова М. Б. Умумтаълим мактаби ва оила ҳамкорлиги асосида ўқувчиларда тадбиркорлик кўникмаларини ривожлантириш. Педагогика фанлари доктори (DSc) диссертацияси автореферати – Андижон, 2020. Б.62.

68. Гарафиев И.З. Инновационный человеческий капитал в регионе (социологический анализ). Автореферат дисс. на соискание степени кандидата соц. наук. Пенза, 2013.-С. 369.

69. Делокаров К.Х. Рациональная парадигма и инновационное управление.проблемы и перспективый. Инноватика государственного управления: прорыв в будущее. – Москва: 2006. – С. 148-149.

70. Калинина Т.В. Функционально-типологический анализ человеческого потенциала.Дисс.на соискание степени кандидата философских наук.Специальность: 09.00.11-Социальная философия.

Нижний Новгород, 2007. – С. 188.

71. Карпова Ю.А. Введение в социологию инноватики. – Москва: 2007. –С.74.

72. Ўринбоев Д. Б. Замонавий фалсафада стратегемалар назариясининг Ўзбекистондаги ўзига хос хусусиятлари (ижтимоий-фалсафий таҳлил). Фалсафа фанлар доктори (PhD) диссертацияси. – Тошкент, 2021. – Б. 88.

73. Қурбонова Л. А. Антропология ва элитология ўзаро муносабатларининг фалсафий методологик хусусиятлари. Фалсафа фанлари доктори (DSc) диссертацияси автореферати. – Т.: 2018. – Б. 67.

74. Храмцова Т. Г. Методология исследования социально-экономического потенциала потребительской кооперации: Дис. ...д-ра экон. Наук: 08.00.05: Новосибирск, 2002. С. 397.

75. Эгамбердиев А. Ўзбекистонда модернизация шароитида ёшларда инновацион онг шаклланишининг ижтимоий-фалсафий муаммолари. Фалсафа фанлар доктори (PhD) диссертацияси – Андижон, 2019. Б. 162.

76. Юлдашева Ф. Ўзбекистонда глобаллашув шароитида маънавий янгиланишнинг ўзига хос хусусиятлари Фалсафа фанлари бўйича фалсафа доктори (DSc) диссертацияси. – Т.: 2019. – Б. 226.

Xorijiy tillardagi adabiyotlar

77. Абдурахманов К. Х. Тенденции развития человеческого капитала Узбекистана. <https://cyberleninka.ru/article/n/tendentsii-razvitiya-chelovecheskogo-kapitala-uzbekistana/viewer>

78. Акьюлов Р. И. Человеческие ресурсы как комплексная экономическая категория // Журнал экономической теории. 2009. № 4. С.11.

79. Анри Бергсон. Творческая эволюция. М.: Терра-Книжный клуб, 2001.- 384 с.

80. Бабинцев В.П., Куркина М.П. Человеческий потенциал как научная категория. Научные ведомости. Серия Философия. Социология. Право. 2012. №: 8 (127). Выпуск 20. С. 223-229.

81. Буева Л.П. Человек: деятельность и общение // Л.П. Буева. – М., 1978. - С.57.

82. Григорян С.Н., Сагадеев А.В. Избранные произведения мыслителей стран Ближнего и Среднего Востока IX-XIV вв. С.498. М.: - 1961, Издательство социально-экономической литературы (Соцэкгиз)

83. Заславская Т.И. Двадцать лет российской трансформации. Человеческий потенциал в современном трансформационном процессе. <https://ecsocman.hse.ru/data/2010/12/15/1214861784/Zaslavskya.pdf>

84. Иванов О.И. Человеческий потенциал: вопросы теории и методологии исследования <https://dspace.spbu.ru/bitstream/11701/1403/1/Ivanov.pdf>

85. Иванов О. И. Человеческий потенциал (формирование, развитие, использование) монография Санкт-Петербург: Скифия – принт. 2013. –С.336.

86. Инкелес Алекс. <https://studopedia.Org/6-74263.html>

87. Йонас Г. Принцип ответственности.-Москва: Пионер, 2000. –С. 80

88. Каган М.С. Человеческая деятельность, (опыт системного анализа). - М.: Политиздат, 1974.-С.5.

89. Калашникова Н.А. Роль критического мышления в формировании инновационной социальной среды. ISSN 1998-9946. Вестн. Волгогр. гос. ун-та. Сер. 7, Филос. 2015. № 4 (30) 127-133 <https://cyberleninka.ru/article/n/rol-kriticheskogo-myshleniya-v-formirovanii-innovatsionnoy-sotsialnoy-sredy/pdf>

90. Карпова Ю.А. Введение в социологию инноватики:. Учебное пособие. -СПб.: Питер, 2004. С. 185.

91. Китайцева Е.А. Сущность понятия “человеческий потенциал”. <http://thsp.ru/issues/issue0609/060907.htm>

92. Колин К. К. Человеческий потенциал и инновационная экономика.// Вестник Российской Академии естественных наук. 2003, № 4. С.3.

93. Курганский С.А., Структура человеческого капитала и его оценка и его оценка на макроуровне, Известия ИГЭА. 2011. № 6 (80). С.-15-22. <https://cyberleninka.ru/article/n/struktura-chelovecheskogo-kapitala-i-ego-otsenka-na-makrourovne>

94. Кулагин В.М., Лебедева М.М., Мельвиль А.Ю. Глобализация и развитие человека.// В кн. Глобализация: человеческое измерение. -

Москва: РОССПЕН, 2002.-С.26-27.

95. Келле, В.Ж. Человеческий потенциал и человеческая деятельность / В.Ж. Келле // Человеческий потенциал: опыт комплексного подхода / под ред. И. Т. Фролова. - М.: Эдиториал УРСС, 1999. - С. 62 - 72.

96. Леманова П.В., Социальная политика в управлении развитием человеческого капитала. Москва. 2016 С. 227.

97. Молостова М.Ю. Теоретико-методологические основания понятия инновационное поведение. // Известия Самарского научного центра Российской академии наук. Самара. Т. 12, 2020, № 5.- С.132.

98. Новая технократическая волна на Западе. Гуревич П. С. (ответственный редактор) М.: «Прогресс», 1986.- 453с.

99. Очерки истории арабской культуры, V – XV вв. Главная редакция восточной литературы. М., 1989. - С. 440

100. Рубинштейн, С.Л. Человек и мир. - М., 1997. - С. 138-160

101. Солнцева Г.Б., Смолян Г.Л. Человеческий потенциал: размышления содержания понятия. В кн.: Человеческий потенциал: опыт комплексного подхода // РАН. Ин-т человека; Под ред. Фролова И.Т. - М.: Эдиториал УРСС, 1999. С. 59.

102. Соболева И.В. Человеческий потенциал российской экономики, проблема сохранения и развития. М.: Наука, 2007. – С. 12.

103. Сорокин П.А. Социальная мобильность. М.: 2005. –С. 119

104. Чеснокова В.Ф., Уильям Л. Питирим Сорокин: социальная стратификация и социальная мобильность. Человек. Сообщество. Управление. 2007. № 1. – С. 115;121 <https://cyberleninka.ru/article/n/uilyam-l-uorner-pitirim-sorokin-sotsialnaya-stratifikatsiya-i-sotsialnaya-mobilnost/pdf>

105. Шаповалов В.Ф. Основы философии современности. К итогам XX века. –Москва: Флинта-Наука, 1998. -С.112.

106. Щупленков О. В. Проблема формирования инновационной личности в современном обществе. // Психология и психотехника.- Москва, 2013.-№ 8.-С.21.

107. Bourdieu, P. Forms of Capital, in: Granovetter, M. and R. Swedberg (eds.). The Sociology of Economic Life. 2nd ed. Boulder: Westview Press, 2001. –P. 98-102 <https://cyberleninka.ru/article/n/ponyatie-kapitala-formy-kapitalov-i-ih-konvertatsiya/pdf>

108. Becker G. Human Capital. NY., L., 1975.

Internet ma'lumotlari

109. <https://constitution.uz/uz>

110. <https://president.uz> - Ўзбекистон Республикаси Президентининг расмий веб-сайти.

111. <https://lex.uz> - Ўзбекистон Республикаси Қонунчилик маълумотлари миллий базаси

112. <https://strategy.uz>

113. Википедия – Эркин энциклопедия веб саҳифаси
<https://ru.wikipedia.org/wiki/%D0%A7%D0%B5%D0%BB%D0%BE%D0%B2%D0%B5%D1%87%D0%B5%D1%81%D0%BA%D0%B8%D0%B9%D0%BF%D0%BE%D1%82%D0%B5%D0%BD%D1%86%D0%B8%D0%B0%D0%BB>

114. Илмий электрон кутубхона, Россия табиий фанлар академияси нашриёти томонидан чоп этилган монографиялар веб сайти <https://monographies.ru/en/book/section?id=11610>

115. Архив открытого доступа Санкт-Петербургского государственного университета <https://dspace.spbu.ru/bitstream/11701/1403/1/Ivanov.pdf>

116. Евразийский международный научно-аналитический журнал, Проблемы современной экономики, № 3 (43), 2012, <http://www.m-economy.ru/art.php?nArtId=4219>

117. <https://ecsocman.hse.ru/data/2010/12/15/1214861784/Zaslavskya.pdf>

GLOSSARIY

Ijtimoiy faoliyat – Ijtimoiy faoliyat jamiyat moddiy va ma’naviy hayoti barcha jihatlarining qaror topishi, mavjudligi va rivojlanishining asosidir.

Ijtimoiy faoliyat deyilganda: jamiyatni tashkil qiluvchi kishilarning moddiy va ma’naviy ne’matlarni yaratishga qaratilgan hatti-harakatlarini; moddiy va ma’naviy hayotni takror ishlab chiqarish; jismoniy va ruhiy sog‘lom kishilarni tarbiyalash; jamiyat va uning a’zolarini barcha sohalarda salohiyatini yuksaltirish bo’yicha olib boriladigan nazariy va amaliy ishlar; jamiyat va insonning tegishli sohalarda yangilik yaratishga intilishi nazarda tutiladi.

Ilmiy - intellektual faoliyat – tabiat, jamiyat, inson hamda ular bilan bog‘liq amalga oshadigan tabiiy, ijtimoiy hodisalarni, jarayonlarning xususiyatlari va mohiyatini bilishga qaratilgan insonning nazariy va amaliy faoliyati.

Inson kapitali – shaxsning va jamiyatning tobora ortib boruvchi yehtiyojlarini qondirish orqali o‘z salohiyatini yanada rivojlantirishga xizmat qiladigan qobiliyati, bilimi, ijtimoiy tajribasi va ko’nikmalari yig‘indisini tashkil yetadi.

Inson resurslari – Inson resurslari iqtisodiy-ijtimoiy hayot, iqtisodiy-ijtimoiy va madaniy-ma’naviy ishlab chiqarishning yuksalishiga qaratilgan va buni yuzaga chiqaruvchi moddiy va ma’naviy imkoniyatlarni anglatadi va insonning intellektual, ijodiy, tadbirkorlik, mehnat va boshqa qobiliyati, axloqiy xususiyatlarini o‘z ichiga oladi.

Inson salohiyati – inson ongida mavjud va kelajakda harakatga keltirilishi mumkin bo‘lgan va uning oldiga qo‘ygan maqsadiga yerishuvi jarayonida kelib chiqadigan vazifalarni hal yetishda zarur bo‘lgan imkoniyatlar, resurslar, vositalar, zaxiralar majmuasini tashkil yetadi.

Inson salohiyati umumiy holda salohiyatning biologik, iqtisodiy, ijtimoiy, ma'naviy, axloqiy, siyosiy, intellektual, yestetik kabi shakllarini birlashtiradi. Inson salohiyatining namoyon bo'lishi bevosita jamiyatning maqsadlari va manfaatlaridan kelib chiqqan holda insonning manfaatlari va yehtiyojlari masalasiga aloqador. Insonning mohiyatidan kelib chiqib, u doimo o'zida mavjud salohiyatni yuzaga chiqarish va rivojlantirishga intiladi.

Inson faoliyati - insonning intellektuallik darajasi, ko'nikmalari, tafakkur qilishi qobiliyati asosiga qurilgan bo'lib, ma'lum sohada o'zini realizatsiya qilib borishini belgilab beradi hamda yo'naltiradi.

In'ikos - In'ikos borliqning umumiy xususiyati hisoblanadi. In'ikos butun olamga, noorganik va organik tabiatda barcha mavjudotlarga, insonga xos bo'lgan hodisa. In'ikos turli narsa va hodisalarning o'zaro bir-biriga ta'sir yetish jarayonida paydo bo'ladi va bir-birini o'zgartiradi. Har qanday o'zgarish, harakat in'ikosdan boshlanadi. Notirik tabiatda masalan, temirning yomg'ir ta'sirida zanglashi, suvning muzlashi, tirik tabiatda bahorda o'simliklarning o'sib chiqishi, turli tirik mavjudotlarning tabiat o'zgarishlariga nisbatan reaksiyasi va boshqalar in'ikosga misol bo'lishi mumkin.

Iqtisodiy faoliyat - insonning o'z yehtiyojlaridan kelib chiqib, borliqni o'zlashtirish asosida moddiy boyliklar yaratishga qaratilgan faoliyat.

Madaniy - ma'naviy faoliyat - inson va jamiyatning axloqiy, diniy, yestetik sohada amalga oshiriladigan faoliyat

Ma'naviy yetuklik - insonda daxldorlik hissini shakllantirish bilan bog'liq bo'lgan jarayondir. Ma'naviy yetuklik inson axloqining jamiyatda belgilangan axloqiy qoidalarga, axloqiy ongi jamiyat ijtimoiy ongining axloqiy shakliga mos tushishini anglatadi. Bu holat inson ma'naviyatining jamiyat talablari asosida shakllanishiga ta'sir yetadi.

Ma'naviy salohiyat – ma'naviy yangilanish jarayonining asosiy omillaridan biri hisoblanadi. U insonning axloqi, dunyoqarashi, ma'naviy qadriyatlari, ma'naviy tanlovi, hayotga faol munosabati asosida shakllangan hodisa bo'lib, u olib borayotgan faoliyatning samarasini ta'minlaydi. Albatta, ma'naviy salohiyat bevosita moddiy boylik yaratmaydi, lekin moddiy boylik yaratuvchi insonlarning ongi, aqli, ruhiyati, aksiologik orientatsiyasi, faolligi kabi jihatlariga ta'sir ko'rsatadi.

Ma'naviy faoliyat - ma'naviyatni anglash, uni rivojlantirish va ma'naviy boyliklar yaratishga qaratilgan faoliyat. Bu faoliyat davomida ma'naviy boyliklar yaratiladi, ma'naviy qadriyatlar saqlanib avlodlardan-avlodlarga uzatiladi, ya'ni ma'naviy meros boyib boradi. Inson ma'naviy faoliyat jarayonida jamiyatda mavjud axloq, urf-odatlar, ma'naviy qadriyatlar, bilim olish kabilar orqali o'z ma'naviy yehtiyojlarini qondirib, undan ma'naviy faoliyatga hamda faoliyat orqali ma'naviy munosabatlarga kirib boradi. Ma'naviy jarayon yanada rivojlanadi.

Modernizatsiya – Jamiyat taraqqiyoti yevolyusiyasining davomida uzluksiz ravishda modernizatsiya amalga oshib borgan. Modernizatsiya - jamiyat va inson hayotining doimiy muntazam yangilanib borishini anglatadi. Uning maqsadi inson turmush tarzini yaxshilash, turmush darajasini va farovonligini oshirish va farovonligini oshirishdir. Modernizatsiya - ob'ektiv jarayon bo'lib, unng natijasida ijtimoiy hayotda yangilanish, transformatsiya amalga oshadi.

Salohiyat - "Salohiyat" so'zi arabchadan olingan bo'lib, "qobiliyat" degan ma'noni anglatadi.

Siyosiy - huquqiy faoliyat – jamiyatning siyosiy hayotini tashkillashda, ichki va tashqi siyosatida ishtirok yetish bilan bog'liq. Har qanday faoliyatning asosida yaratuvchilik, yangilik

izlashga intilish yotadi. Inson jamiyatda amalga oshirayotgan faoliyati, yashashi, xatti-harakatlari orqali muntazam ijtimoiylashib boradi. Inson ma'lum madaniyatga tegishli, mazkur madaniyatni tashuvchisi bo'lganligi tufayli u madaniy mavjudot sifatida o'zini namoyon yetadi. Bu sifatda uning yehtiyojlari, talablari va ideallari davr ruhiga mos tarzda o'zgarib boradi.

Faoliyat - Yeng umumiy ma'noda faoliyat inson va jamiyatning tashqi olam bilan o'zaro munosabati hisoblanadi. Inson va jamiyat – faoliyat sub'ekti bo'lib, uning munosabati tashqi olam, ya'ni faoliyatning ob'ektiga qaratilgan. Bu yerda sub'ekt borliq bilan, ya'ni ob'ekt bilan faoliyat orqali munosabatga kirishadi. Faoliyatni insonning uni o'rab turgan olamni hamda o'zini o'zgartirishga qaratilgan ongli harakati, deyish mumkin.

Yehtiyoj - inson, uning faoliyatini shakllantiruvchi, sub'ektiv omilni ma'lum yo'nalishlarga yo'naltiruvchi hodisa. Ijtimoiy faoliyatlar jamiyat a'zolarining shaxsiy va ijtimoiy yehtiyojlarini qondirish, ular manfaatlariga xizmat qilish maqsadida amalga oshiriladi. Yehtiyojlar va manfaatlar bunda ijtimoiy faoliyatlarni harakatga keltiruvchi kuch, jamiyatning moddiy va ma'naviy hayotining tayanchi bo'lib xizmat qiladi. Ularda jamiyat a'zolarining qiziqishlari, maqsadlari, rag'batlari, xohish va irodalari o'z ifodasini topadi. Bu yehtiyojlar va manfaatlar, o'z tabiatlariga ko'ra, moddiy yoki ma'naviy bo'lib, doimo jamiyat a'zolarining niyatlarida aks yetib, ular anglanib olingach, kishilar ijtimoiy faoliyatlarining qonuniyatlari sifatida namoyon bo'ladi

Qobiliyat - Qobiliyat insonning individual salohiyatini tashkil yetadi va uning nafaqat xususiyati, tug'ma imkoniyati ham hisoblanadi. Qobiliyat o'ta individual xususiyat bo'lib, u ko'proq insonning biologik va psixologik o'ziga xos jihati bilan bog'liq.

Qobiliyat insonni asosan ruhiy va intellektual imkoniyatlari nuqtai nazaridan tavsiflaydi. Qobiliyat ijtimoiy shart-sharoitlar doirasida, avvalo, oila hamda jamiyatda ijtimoiy munosabatlar asosida yanada rivojlanadi. Insonning bilimi va ko'nikmalari ortib borgani sari uning qobiliyati va salohiyati ham kengayib boradi. Bu jarayonda insonning amalga oshirayotgan ijtimoiy faoliyati, amaliy hayoti muhim hisoblanib, unda inson taraqqiyoti uchun ulkan imkoniyatlar mavjud.

Shaxs salohiyati - "Shaxs salohiyati" tushunchasi insonni individual qobiliyati, ruhiy-fiziologik xususiyatlari nuqtai nazaridan tavsiflaydi. Albatta, jamiyat salohiyati tarixiy taraqqiyotning barcha bosqichlarida ham shaxs salohiyatiga asoslanadi. Jamiyat salohiyati uning a'zolari salohiyatining qandayligiga bog'liq. Jamiyat a'zolarining barcha sohalarida moddiy va ma'naviy kamolotga yerishib borishi, albatta, jamiyat taraqqiyotiga va uning salohiyatining yuksalib borishiga xizmat qiladi. Shu bilan birga shaxs salohiyati uning jamiyatda amalga oshirayotgan faoliyati natijasida taraqqiy yetadi. Bu – dialektik jarayon qonuniylik xarakteriga yega.

"Tabula tasa" - "toza taxta" - Djon Lokk "Inson aqli to'g'risida tajriba" nomli asarida har qanday bilim tajriba asosida olinishini ta'kidlaydi. U insonni "tabula tasa" - "toza taxta" sifatida tavsiflaydi va asta-sekin inson tashqi olam bilan o'zaro munosabati asosida tajribaga yega bo'lib boradi, deydi. Tajriba ichki va tashqi bo'lib, tashqi tajriba sezgilar orqali olingan g'oyalalar, ichki tajriba insonning shaxsiy faoliyati haqidagi g'oyalardir. Ularning shakllanishida inson asosiy rol o'ynaydi. Ko'rinib turibdiki, Lokk faoliyat muammosiga gnoseologik nuqtai nazardan bilish asosida yondashadi. Chunki o'rganilayotgan narsa yoki hodisa aqlning uch xil faoliyati asosida o'zlashtiriladi: solishtirish, moslashuv, abstraksiya.

MUNDARIJA

KIRISH.....	3
I BOB. INSON SALOHİYATINI O'RGANISHNING NAZARIY-METODOLOGIK ASOSLARI	5
1-§. "Inson salohiyati" tushunchasi	6
2-§. Inson salohiyati ijtimoiy muammo sifatida	20
II BOB. INSON SALOHİYATI TIZIMI, UNING YELEMENTLARI VA SHAKLLARI	36
1-§. Inson salohiyati tizim sifatida	37
2-§. Inson salohiyatining shakllari.....	59
III BOB. INSON SALOHİYATI VA FAOLIYATINING O'ZARO DIALEKTIK ALOQADORLIGI	84
1-§. "Faoliyat" tushunchasi va faoliyatning tarkibi.....	85
2-§. Innovatsion faoliyat va inson salohiyatining yuksalishi	102
3-§. Yangi O'zbekistonda inson salohiyati yuksalishining imkoniyatlari va undan foydalanishning istiqbollari	111
FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI.....	129
GLOSSARIY.....	140

ОГЛАВЛЕНИЕ

ВВЕДЕНИЕ	3
ГЛАВА I. ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ И МЕТОДОЛОГИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ ИЗУЧЕНИЯ КОМПЕТЕНЦИИ ЧЕЛОВЕКА.....	5
§-1. Понятие «человеческий потенциал»	6
§-2. Человеческий потенциал как социальная проблема.....	20
ГЛАВА II. СИСТЕМА ЧЕЛОВЕЧЕСКИЙ ПОТЕНЦИАЛ, ЕЁ ЭЛЕМЕНТЫ И ФОРМЫ.....	36
§-1. Человеческий потенциал как система	37
§-2. Формы человеческого потенциала	59
ГЛАВА III. ДИАЛЕКТИЧЕСКОЕ СООТНОШЕНИЕ ЧЕЛОВЕЧЕСКОЙ ПОТЕНЦИАЛ И ДЕЯТЕЛЬНОСТИ	84
§-1. Понятие «деятельность» и структура деятельности.....	85
§-2. Инновационная активность и рост человеческого потенциала.....	102
§-3. Возможности повышения человеческого потенциала в новом Узбекистане и перспективы его использования.....	111
СПИСОК ИСПОЛЬЗУЕМЫХ ССЫЛОК	129
ГЛОССАРИЙ.....	140

TABLE OF CONTENTS

INTRODUCTION	3
CHAPTER I. THEORETICAL AND METHODOLOGICAL BASIS OF THE STUDY OF HUMAN COMPETENCE	5
§-1. The concept of "human potential"	6
§-2. Human potential as a social problem	20
CHAPTER II. THE SYSTEM OF HUMAN AUTHORITY, ITS ELEMENTS AND FORMS.....	36
§-1. Human potential as a system	37
§-2. Forms of human potential	59
CHAPTER III. THE DIALECTIC RELATIONSHIP OF HUMAN ABILITY AND ACTIVITY.....	84
§-1. The concept of "activity" and the structure of activity	85
§-2. Innovative activity and growth of human potential.....	102
§-3. Possibilities of increasing human potential in new Uzbekistan and prospects for its use.....	111
LIST OF REFERENCES.....	129
GLOSSARY	140

Ilmiy nashr

X.N.Xolmirzayev

INSON SALOHIYATI

o'quv qo'llanma

Texnik muharrir: Umarov Sh.
Dizayner: Muhammad_Rizo

“Iste’dod ziyo-press” nashriyoti,
Namangan shahri, Davlatobod tumani,
3- kichik tuman 2-uy.



Terishga 2024-yil 4-martda berildi. Bosishga 2024-yil 11-martda ruxsat etildi.
Bichimi: 60x84 ¹/₁₆. «Cambria» garniturasida raqamli bosma usulida oq qog'ozga bosildi.
Hajmi 9,25 bosma taboq. Adadi 100 nusxa. Bahosi kelishilgan narxda.

“Yashin sanoat” bosmaxonasida chop etildi.
Manzil: Namangan shahri, Hamroh ko'cha, 71^A-uy.